

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**B.B. TOXIROV, M.B. TAG'AYEVA**

**O'SIMLIKLAR BIOKIMYOSI**

**O'quv qo'llanma**

**DURDONA**

**"Durdona" nashriyoti  
Buxoro – 2024**

**UO'K 633/635:581.1(075.8)**

**41/42+28.07ya73**

T 59

Toxirov, B.B.

O'simliklar biokimyosi [Matn] : o'quv qo'llanma / B.B. Toxirov, M.B. Tag'ayeva. – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2024. – 188 b.

**KBK 41/42+28.07ya73**

Mazkur qo'llanma 60710200 "Biotexnologiya (tarmoqlar bo'yicha), 60811300 oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, u BuxDU tasdiqlagan namunaviy dastur asosida mahalliy sharoitni hisobga olgan holda yozilgan.

Qo'llanmada o'simliklar biokimyosi fanining maqsadi, vazifalari, ilmiy - tadqiqot usullari, muammolari. O'simliklar biokimyosi fanining qishloq xo'jalik, tabiatni muhofaza qilishdagi ahamiyati, osimliklarning kimyoviy tarkibi haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish, o'simlik tarkibidagi oqsillarning tuzilishi, funksiyasi, ahamiyati, o'simlik tarkibidagi lipidlar, lipidlar almashinushi jarayonlarining xilma-xilligi va ahamiyati, o'simliklarda organik kislatalar, ya'ni hujayrada metabolizimining ahamiyati, o'simliklarda organik kislatalar ahamiyati haqidagi, o'simliklarda organik kislatalarning biolgik ahamiyati, oziq-ovqatmahsulot sifatida ta'siri, o'simliklarda organik kislatalarning xususiyatlari, o'simliklar olamidagi vitaminlar, alkaloidlar, o'simlik tetraploidlari hamda glikozidlar va mavzularga oid laboratoriya mashg'ulotlarining ko'rsatmalari tartibi ko'rsatilgan. Qo'llanmadan nafaqat yuqorida ko'rsatilgan mutaxasis talabalar, balki qishloq xo'jaligi kolleji talabalar, agronomlar va boshqa mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

### **Taqrizchilar:**

**H.M.Mustafoyev**, BuxDU "Botanika va o'simliklar fizologiyasi" kafedrasi dotsenti, k.f.n.

**M.I.Mustafoyeva**, BuxMI "Tibbiy biologiya" kafedrasi dotsenti, b.f.n.

**O'quv qo'llanma Buxoro davlat universitetining 2023-yil 27-iyundagi 354-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Ro'yxatga olish raqami 354-48.**

**ISBN 978-9910-04-394-9**

## MUNDARAJA

<b>I bob. O'simliklar biokimyosi faniga kirish .....</b>	<b>6</b>
1.1. O'simliklar biokimyosi faniga kirish. Biologiya fanlar tizimi.	6
<b>II bob. O'simliklarning kimyoviy tarkibi .....</b>	<b>15</b>
2.1. Kimyoviy elementlarning o'simlik hayotidagi roli .....	15
2.2. O'simlik tarkibidagi oqsillar.....	34
<b>III bob. Fermentlar .....</b>	<b>40</b>
3.1. O'simlik fermentlari .....	40
<b>IV bob. Uglevodlar .....</b>	<b>50</b>
4.1. O'simlik uglevodlari.....	50
<b>V bob. Lipidlar .....</b>	<b>65</b>
5.1. Osimlik tarkbidagi lipidlar.....	65
5.2. Lipidlar klassifikasiyasi .....	67
5.3.O'simlik lipidlari .....	73
5.4. Triglitseridlar .....	74
5.5. Mumlar.....	75
5.6. Fosfolipidlar .....	77
5.7. Glikolipidlar .....	78
5.8. 3-sinf qutbli lipidlar .....	79
5.8. Oksilipinlar .....	79
<b>VI bob. Lipidlar metabolizimi .....</b>	<b>80</b>
6.1. O'simlik lipidlar almashinuvining xususiyatlari.....	80
6.2. Triglitseridlarning biosintezi .....	81
6.3. Mum biosintezi .....	82
6.4. Fosfolipidlarning biosintezi .....	83
6.5. Glikolipidlarning biosintezi .....	84
6.6.O'simliklarda lipidlarning biodegradatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari .....	84
6.7. Linolein va linolenin yog 'kislotalarining parchalanishi uchun oksiyena yo'li .....	85
6.8. Glioksilat aylanishi .....	86
<b>II bob. Organik kislotalarning metabolizimi .....</b>	<b>89</b>
7.1. Organik kislotalar va ularning metabolizimi.....	89
7.2.Organik kislotalarning biologik roli va oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga ta'siri. .....	90
7.3. Yuksak o'simliklarda organik kislotalarning almashinushi ....	92

7.4. Osimliklarda uchraydigan organik kislotalarning xususiyatlari.	93
<b>VIII bob. Vitaminlar.....</b>	<b>97</b>
8.1. Vitaminlar .....	97
8.2. Vitaminlar tasnifi .....	99
8.3.Yog'da eriydigan vitaminlar.....	99
8.3.1. A guruhi vitaminlari .....	99
8.3.2. D vitaminlari(kaltsiferol) .....	101
8.3.3. E vitamini (a-tokoferol, antisteril vitaminlar).....	102
8.3.4. K vitamini (filloxoynon) - 2-metil, 1,4- hosilalari naftoxinon.....	102
8.4. Suvda eriydigan vitaminlar.....	103
8.4.1. Vitamin B1 .....	103
8.4.2. B2 vitamini (riboflavin) .....	104
8.4.3. Vitamin B3 (pantonat kislota).....	105
8.4.4. Vitamin B5 yoki PP (nikotinik kislota, nikotinamid) ..	106
8.4.5. Vitamin B6 (piridoksin, adermin) .....	106
8.4.6. S vitamini (askorbin kislotasi) .....	107
<b>IX bob. O'simlikning ikkilamchi metabolitlari.....</b>	<b>109</b>
9.1. O'simlikning ikkilamchi metabolitlari.....	109
9.2.Terpenlar.....	111
9.3.Fenol birikmaları .....	114
9.4. Flavonoidlar.....	116
9.5.Antostianlar.....	117
9.6.Tanninlar.....	119
9.7.Birlamchi va ikkilamchi o'simlik metabolizmi .....	121
9.7.1.Atropin.....	122
9.7.2.Syanogen glikozid.....	123
9.7.3.Karotenoidlar.....	126
<b>X bob. Fenolli birikmalar.....</b>	<b>129</b>
10.1. Fenolli birikmalar.....	129
<b>XI bob. Alkaloidli o'simliklar.....</b>	<b>134</b>
11.1. Alkaloidli o'simliklar .....	134
11.2.Alkaloidlar o'simliklar dunyosida tarqalganligi .....	135
11.3.Alkaloidlarning o'simliklar hayotidagi ahamiyati.....	136
11.4.Alkaloidlarning fizik va kimyoviy xossalari.....	137
11.5.Alkaloidlar va tarkibida alkaloid saqlovchi mahsulotlar tasnifi .....	138

11.6.O'simlik tarkibidagi alkaloidlarga tashqi muhit ornillarining ta'siri. ....	140
11.7.Alkaloidlarning tibbiyotda ishlatalishi. ....	141
<b>XII bob.Terpenoidlar (izoprenoidlar).....</b>	<b>146</b>
12.1. Terpenoidlar (izoprenoidlar).....	146
<b>XIII bob. Gilikozidlar .....</b>	<b>152</b>
13.1. Gilikozidlar .....	152
13.2.Glikozidlarning tasnifi. ....	153
13.3.Glikozidlarning o'simlik olamida tarqalishi.....	156
13.4.Glikozidlarning fizikaviy va kimyoviy xossalari. ....	156
13.5.Glikozid saqllovchi xomashyoni yig'ish, quritish va saqlash. .....	158
<b>Glossariy.....</b>	<b>159</b>
<b>Test savollari .....</b>	<b>166</b>

DURDONA

# I BOB.O'SIMLIKLER BIOKIMYOSI FANIGA KIRISH

## 1.1. O'simliklar biokimyosi faniga kirish. Biologiya fanlar tizimi

O'simliklar biokimyosi fani o'simliklarning hayotiy faoliyati va moddalar almashinuvi jarayonida bo'ladigan kimyoviy tadqiqotning eng muhim tarkibiy qismlaridan birini anglash, shuningdek fiziologik jarayonlarni molekulyar darajada o'rganish, o'simlik organizmlarining oziga xos kimyoviy tarkibi, biokimyoviy xususiyatlarni chuqur bilish va ularni tartibga solish mexanizmlari va munosabatlari bilan shug'ullanadi. O'simliklar biokimyosi fani o'simlikda sodir bo'ladigan biokimyoviy jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshishini tushunish, o'simlik tanasida o'n minglab reaksiya sintezi amalga oshishi va bu jarayo

nlarning o'ziga xosligini aniqlaydigan individual kimyoviy birikmalar mavjudligini o'rganish orqali sanoat xom-ashyosi, birinchi navbatda, oziq-ovqat manbai sifatida o'simliklardan keng foydalanish imkonyatini beradi. Shuningdek o'simliklar biokimyosini o'rganish talabalarning ilmiy doirasini, dunyoqarashini, kengaytiradi va oziq-ovqat va boshqa sohalarda foydalanish istiqbollarini, o'simlik organlaridan keng foydalanishga imkonyat yaratadi.

Bularning asosida moddalar almashinuvining assimilatsiya va dissimilatsiya jarayonlari yotadi. Shu bilan birga u o'simliklarni o'sishi va rivojlanishi, gullash, meva tugish, plastik moddalarning sintezi va to'planishi uchun zarur bo'ladigan kimyoviy jarayonlami tashqi muhit bilan bog'lab o'rganadi.

O'simliklar biokimyosi botanika, biokimyo, bioflzika, molekulyar biologiya, mikrobiologiya, hayvonlar fiziologiyasi, kimyo, fizika kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ulaming yutuqlaridan foydalaniladi va o'z navbatida ularga ta'sir etadi. O'simliklar biokimyosi fanida keyingi yillardagi tabiiy fanlar yutuqlaridan, xususan, fizik-kimyoviy usullardan, xromatografiya, nishonlangan atomlar, elektron mikroskopiya, elektroforez, differensial sentrafugalash, spektrofotometriya, rentgen tuzilish analizi va boshqalardan foydalanish natijasida juda katta yutuqlarga erishildi.

Jumladan, o'simlik hujayrasining murakkab tuzilishi, hujayra organoidlarining tuzilishi va tarkibi ham fiziologik funksiyalari, hujayraga moddalarning kirishi va chiqishi jarayonlarida membranalaming ahamiyati va boshqalar birmuncha puxta o'rganildi.

Ayniqsa, o'simliklar hujayrasida energiyaning to'planishi va sarflanishi mexanizmlari haqidagi tushunchalar kengaydi. Yashil O'simliklar yer sharidagi boshqa tirik organizmlardan o'zining bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi.

Birinchidan, yashil o'simliklar energiya manbai sifatida yorug' sikning elektromagnit energiyasidan foydalanib, ulami organic moddalar tarkibidagi erkin kimyoviy energiyaga aylantirish qobiliyatiga ega (otosintez). Shuning bilan birgalikda, o'simliklar tashqi muhitdan bir qancha anorganik moddalami o'zlashtirib, ulami hujayradagi moddalar almashinushi jarayonida energiya bilan boyitadi va organic modda ko'rinishida yer sharidagi barcha tirik mavjudotlar uchun moddiy va energetik asosni yaratadi.

Ikkinchidan, yashil O'simliklar nisbatan yuqori rivojlangan foto assimilatsion yuzaga hamda yer ostki va ustki organlarining yuqori darajada shoxlanish qobiliyatiga ega. Bu hoi o'z navbatida o'simliklarning ildiz orqali tuproqdan suv va unda erigan moddalarning o'zlashtirilishiga, barglar orqali esa atmosfera havosidan oziqlanish kabi kimyoviy jarayonlar bilan bog'liq.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligida o'simliklarning yangidan-yangi navlarini yaratishda, ekinlaming turli noqulay muhit omillariga nisbatan chidamliligin oshirish va ulaming hosildorligini ko'paytirishda, hosil sifatini yaxshilash va ulami saqlashda mazkur fanning ahamiyati yildanyilga ortib bormoqda.

O'simliklar biokimyoviy yo'nalish-fotosintez va nafas olish jarayonida hosil bo'ladigan-turli xildagi moddalarning funksional ahamiyatini o'rganadi. Shu bilan birga o'simliklami tuproqdan oziqlanish qonuniyatlarini va turli xildagi anorganik moddalardan organik moddalami sintezlanish qonuniyatlarini ochib beradi. O'simliklar biokimyo fani 3 bo'limdan iborat:

1. Statik biokimyo.
2. Dinamik biokimyo.
3. Funktsional biokimyo.

Statik biokimyo tirik organizm tarkibiga kiruvchi moddalarning kimyoviy tarkibi va xususiyatlarini o'rganadi. Bu bo'limning asosiy masalalari bioorganik kimyo tomonidan o'rganiladi.

Dinamik biokimyo organizmga moddalarning qabul qilinishidan boshlab oxirgi mahsulotlar shaklida chiqarib yuborilishigacha bo'lган barcha o'zgarishlarni tahlil qiladi.

Funktsional biokimyo a'zo va to'qima funktsiyalariga bog'liq ravishda, ularda kechadigan kimyoviy jarayonlarni tadqiq etadi.

Bioximiya ning barcha bo'limlari o'zaro uzviy bog'langan va zamonaviy biokimyoning qismlari hisoblanadi.

O'simliklar biokimyosi tadqiqot ob'yektiga ko'ra o'simliklar biokimyosi va mikroorganizmlar biokimyosiga bo'linadi.

Bioximiya biologiya va kimyo fanlari oralig'idagi bir soha bo'lganligi uchun u shu ikki fanning ma'lumotlari va g'oyalariga asoslanadi. Bu fan alohida fan sifatida biologiya va kimyo fanlarining ma'lum rivojlanish bosqichida paydo bo'lgan.

Biologik kimyo haqidagi dastlabki tushuncha mashhur fransuz olimi Lavuaz'e (1743-1794) ning XVIII asr oxirlarida olib borgan tajribalaridan boshlangan deb hisoblanadi. Uning oksidlanish va bu jarayonda kislorodning o'rni haqidagi klassik tadqiqotlari tanadagi "yonish" hodisasining kimyoviy asosini aniqlashga olib keldi. Lavuaz'e bu reaksiyada kislorod yutilib, karbonat angidrid ajralib chiqadi va issiqlik hosil bo'ladi, degan xulosaga kelgan edi.

O'rta asrning buyuk allomasi va tabibi Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'zining "Tib qonunlari" asarida tibbiyotda qo'llaniladigan kimyoviy moddalarning tasnifini, tananing "suyuq"ligi va siyidik tarkibidagi moddalarni aytib o'tgan.

Insonlarning kasalliklar sababini tushunish va unga qarshi dori izlashga bo'lgan tabiiy intilishlari tirik organizmlarda kechadigan jarayonlarga qiziqish uyg'ota bordi.

Farmasevtika amaliyotida biokimyo yangidan-yangi o'rinnarni egallamoqda. Jumladan, biologik katalizatorlar bo'lgan – fermentlar sanoatda dori moddalari (masalan, steroid gormonlar)ni sintez qilishda qo'llanilmoqda. Gen injeneriyasi usuli yordamida tabiiy dori preparatlarini ishlab chiqarishning istiqbolli yo'llari ko'rib chiqilmoqda. Mikroorganizmlar biokimyosini bilish aminokislotalar, nukleotidlar, nukleozidlar, vitaminlar, antibiotiklar kabi dori preparatlarini sanoatda ishlab chiqarishning qulay va iqtisodiy jihatdan samarali usullarini yaratish imkonini berdi. Fermentlardan analitik reagent sifatida foydalanib dorilarni tez va o'ziga xos (spesifik) tahlil qilish usullari ishlab chiqildi.

Amaliyotda dorilarning ta'sir mexanizmlarini bilish katta ahamiyatga ega. Hujayraning ferment sistemasi tomonidan dorilarning o'zgarishga uchrashini o'rganish qo'llaniladigan dorining me'yorini, uning organizmda almashinuvini boshqarish va ta'sir etuvchi

moddaning tabiatini, ya’ni uning samarasi dastlabki moddaning ta’sirimi yoki uning almashinuv mahsuloti ekanligini tushunish imkoniyatini beradi.

O’simliklar biokimyosi faninig asosiy yo’nalishlari. O’simliklar biokimyosi faninig asosiy sohalari. Boshqa fan sohalarida bo’lgani kabi biologik kimyo shug’ullanadigan muammolarning kengayishi va tobora chuqurlashishi tufayli undan yangi shaxobchalar ajralib, mustaqil tarmoqlar paydo bo’ldi. Ilgariroq ajralib hozirgi davrda keng sohalarga aylangan enzimologiya, vitaminologiya, endokrinologiya qatoriga keyingi yillarda membranalar biokimyosi, neyrobiokimyo, analitik biokimyo, kvant biokimyosi va boshqalar qo’shildi. Ammo biologiya fanlarida keyingi chorak asr ichida yuz bergen fundamental o’zgarishlar, molekulyar biologiya, molekulyar genetika va bu ajoyib sohalarning rivojlanishi asosida dunyoga kelgan gen, hujayra, oqsil injenerligi va umuman biotexnologiyaning mislsiz muvaffaqiyatlari bilan bo’liq.

Oqsillar va nuklein kislotalar molekulalarining strukturasi bilan ularning biologik vazifasi orasidagi bog’lanishning aniqlanishi 1-navbatda, biologiya faninig biokimyoviy ma’lumotlariga asoslangan eng yosh sohasi – molekulyar biologiyaning dastlabki, ammo eng muhim yutuqlaridandir.

Shunday qilib, hozirgi zamon biokimyosi hayotiy jarayonlarning eng chuqr sirlarini ochish, oqsil sintezi, moddalar almashinuvi va nasni idora qilish muammolarini hal etish arafasida turibdi. Bu muhim vazifalarning hal etilishi odamlar uchun eng og’ir ofat bo’lgan rak, virusli kasalliklar, irsiy kasalliklar va yurak-tomir kasalliklarini yengish, inson umrini uzaytirish kabi muammolarni hal qilishning nazariy asosini yaratadi.

Bioximiya fanining boshqa fanlar bilan bog’lanishi. Biologik kimyo fanining kimyo fanlari bilan, ya’ni fizik kimyo bilan umumiylilik juda ko’p. Bu ayniqsa, ularning tabiiy moddalarni o’rganishda qo’llaniladigan usullari uchun taalluqlidir, ammo biologik kimyo va kimyo fanlari oldida turlicha vazifalar turadi. Organik va fizik kimyo fanlarini ko’proq kimyoviy birikmalarining tuzilishi va xossalari, masalan ularning elektron strukturalari, bog’lanish tabiatи va ularning hosil bo’lish mexanizmi, izomeriyasi, konformasiyasi va boshqalar qiziqtiradi. O’simliklar biokimyosi uchun esa barcha kimyoviy moddalarning biologik (funksional) vazifalari va tirik organizmdagi fizik-kimyoviy jarayonlar, shuningdek turli kasalliklarda bu

vazifalarning buzilish mexanizmlarini tushunish asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi.

O'simliklar biokimyosi bir qancha aralash fanlardan kelib chiqqan bo'lib, ilgarigidek ular bilan tirik tabiatni o'rganishda uzviy aloqalarni saqlab qoladi, lekin shu bilan birga u o'ziga xos va mustaqil fan sifatida qoladi hamda moddalarning tuzilishi va ularning vazifalari o'rtasidagi bog'liqlikni, tirik organizmda kimyoviy birikmalarning almashinuvini, tirik sistemalarda energiyaning hosil bo'lism yo'llarini, organizm, to'qima, hujayrada fizik-kimyoviy jarayonlarning boshqarilish mexanizmlarini, tirik organizmlarda genetik axborotning ko'chirilishini molekulyar mexanizmlarini va hokazolarni o'rganishni o'zining asosiy vazifasi deb hisoblaydi.

O'simliklar biokimyosi tadqiqotlar va ularning uslubi. Bioximiklarning ishi tirik ob'ektlar bilan bog'liq bo'lganligi sababli biror bir moddani ajratib olish uchun yuqori darajadagi usullarni qo'llashi, odatdagи fizik-kimyoviy tahlillarga biologik molekulalarni olib borish uchun bir qator qo'shimcha jarayonlarni bajarishi lozim bo'ladi. Biologik materialdan moddalarni ajratib olishda jarayonlarning borish tartibi taxminan quyidagicha bo'ladi:

1. Gomogenlash.
2. Ultrasentrifugalash.
3. Ekstraksiya.

4. Tahlil (reekstraksiya, issiqlik bilan ishlov berish, dializ, sedimentasiya, elektroforez, xromatografiya).

Biologik moddalarni ajratib olish va tahlil qilish usuli ularning xususiyatlariga bog'liq holda tanlab olinadi.

Ajratib olinadigan moddalarning tuzilmalarini va fizik-kimyoviy xossalarni aniqlash, uni miqdoriy jihatdan o'rganish uchun turli xil fizik, fizik-kimyoviy, kimyoviy tahlil usullari, shuningdek ajratilgan birikmaning elektron tuzilmasini kvant-mexanik hisoblaridan foydalaniladi. Bu usullarni qo'llash biologik moddalarning tabiiy strukturasini saqlab qolish imkonini berishi kerak.

Biologik materiallarni tekshirishda qo'yilgan maqsadga binoan lozim bo'lgan usullardan foydalaniladi. Eksperiment sharoitida biokimyoviy tadqiqot uchun har qanday biologik materialni osonlik bilan olish mumkin, klinikada esa bu imkoniyat nisbatan chegaralangan. Farmatsiyada esa biologik material sifatida hayvon to'qimalari va dori preparatlari ishlatiladi.

Biologik suyuqliklar har xil tabiiy moddalarning suvda erigan aralashmasidan iborat. Fermentlar esa tabiatan murakkab oqsillardan tashkil topganligi sababli, ularni aniqlashda biologik suyuqliklarga tarkibini o'zgartiruvchi moddalar qo'shilmaydi, bordi-yu ferment kontsentratsiyasi yuqori bo'lsa, u suyultiriladi. Agarda biologik suyuqlikdagi ferment undagi tekshirilayotgan moddani katalizlab, aniqlashga to'sqinlik qilayotgan bo'lsa, ferment faolligi tegishli reaktiv bilan to'xtatiladi. Odatda, bu maqsad uchun uchxlorsirka kislotasi, nitrat, fosforvolframli, sulfat kislotalari yoki termik ta'sir qo'llaniladi. Bunda fermentlar bilan birga boshqa oqsillar ham cho'kmaga tushadi.

**Gomogenlash.** Biokimyoviy tadqiqotlar hujayra, to'qima, organ tarkibiy qismlarida joylashgan organoid yoki uning bo'lakchalarida, masalan, membranalarida o'tkaziladigan bo'lsa, unda hujayra yoki to'qimani avval maydalash kerak bo'ladi. Buning uchun ko'pincha to'qimani gomogenizator yordamida mexanik parchalash usuli qo'llaniladi. Gomogenizator ko'rinishi bo'yicha shisha stakanga o'xshash bo'lib, hajmlari har xil. Ushbu stakanga qaychi bilan maydalangan to'qima bo'lagi va olinayotgan hujayralar bo'lakchasini intaktligini saqlovchi muhit suyuqligi (odatda saharoza, kaliy xlorid) solinadi.

Elektr toki yordamida stakandagi gomogenizator dastasining aylanishi natijasida hujayra membranasi parchalanadi, struktura bo'lakchalari ajraladi. Oddiy sharoitda gomogenat to'qimani farforli hovonchada shisha kukuni yoki kvarts qumi bilan maydalab olinadi.

Gomogenatlar tarkibi bo'yicha to'qima, hujayra bo'laklarining o'lchovi, shakli, kimyoviy tuzilishi jihatidan har hil bo'lgan murakkab aralashmasidan iborat. O'simliklar biokimyosi tadqiqotlar o'tkazish uchun ularni molekulasi bo'yicha taqsimlash va ajratib olishda bir qator fizik-kimyoviy usullardan foydalaniladi.

Sentrifugalash - suyuqlik tarkibidagi og'ir qismlarni markazdan qochuvchi kuch ta'sirida yengil qismlaridan ajratish usuli. Aralashmadagi og'irligi katta bo'lgan bo'lakchalar birinchi navbatda cho'kadilar. Ular ajratib olingach, cho'kma usti suyuqligini (supernatant) qayta katta tezlikda sentrifugalab, boshqa qimslarini ham ajratish mumkin. Aralashmadagi komponentlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sentrifugalashni preparativ sentrifugalash deb atalib, undan qonning shaklli elementlarini ajratishda, siydikdagi hujayralarni cho'ktirib, ajratib olishda va boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

Klinik-biokimyoviy laboratoriyalarda qo'llaniladigan kichik hajmdagi sentrifugalarning maksimal tezligi daqiqasiga 6000 aylanishdan oshmaydi. Maxsus biokimyoviy tadqiqotlarda oqsillar va nuklein kislotalarning molekula og'irligini aniqlashda o'lchovi va zichligi bo'yicha farqlanuvchi zarrachalarni bir-biridan taqsimlashda yuqori tezlikdagi ultrasentrifugalar (aylanish tezligi daqiqasiga 70000 gacha) qo'llanganligi uchun analitik sentrifugalash deb ataladi.

Zarrachalar cho'kish tezligi markazdan qochish kuchini ortishi bilan o'lchanadi. U g (gravitatsiya doimiyligi  $980 \text{ sm}\cdot\text{s}^{-2}$ ) birligida ifodalanadi. Amaliyotda g har bir ultrasentrifugani nomogrammasida ko'rsatilgan qo'llanma bo'yicha tuziladi. Masalan, qon shaklli elementlari 300-400 g da 20-30 daqiqa sentrifugalanganda cho'kadi va h.k. Differentsial sentrifugalash yordamida subhujayra qismlari - yadro, mitoxondriya, lizosomalar, mikrosomalar va boshqalar ajratiladi.

**Tahlil usullari.** Elektroforez deb tashqi elektr maydoni ta'sirida zaryadlangan zarralarni taqsimlanishiga aytiladi. Elektroforez biologik eksperimentlarda, klinik meditsinada qon oqsillari va peptidlari, ayniqsa, qon zardobini tahlil qilishda qo'llaniladigan zamonaviy usul hisoblanadi. Zaryadlangan zarralar o'lchovi va zaryadinining kattakichikligiga qarab elektr maydonida har xil tezlikda harakatlanadilar, bu esa ularni o'zaro ajralib, taqsimlanishiga olib keladi.

Elektroforezni ikkita asosiy turi bo'lib, frontal va zonal usullarga bo'linadi, ulardan keyingisi ko'proq tarqalgan. Bunda oqsil eritmasi bufer eritmasiga yupqa qavat ko'rinishda joylashtiriladi. Elektroforez davomida har xil oqsil molekulalari alohida fraktsiyalarga bo'linadi. Bu fraktsiyalarni alohida-alohida ajratib, osonlik bilan kesib olinadi. Zonal elektroforezni asosi sifatida filtr qog'ozi tasmasi, atsetiltsellyuloza, kraxmal kukuni, agar, poliakrilamid gel va boshqa materiallardan foydalaniladi.

Hozirgi vaqtida biologik va tibbiy tadqiqotlarda maxsus apparat poliakrilamidli gel elektroforezi ko'proq ishlatilmoqda.

Fraktsiyalarga bo'lingan moddalarning foregrammasi kumassi ko'ki, bromfenol ko'ki yoki amidoshvarts 10 V eritmasida 20-30 daqiqa ushlanadi va miqdori ular bo'yalgan bo'yoqning quyuqligiga qarab aniqlanadi, ya'ni har xil oqsilni bo'yoq bilan bog'langan ko'rsatkichi shu oqsilning miqdoriga to'g'ri proporsional.

**Xromatografiya.** Xromatografiya har xil aralashmalarni o'z tarkibiy qismlariga taqsimlanishini o'rganadi. Xromatografiyaning asosan to'rt turi mavjud.

a). Informatsion kolonkali xromatografiya - bu usul ion ko'rinishida bo'lgan eruvchi moddalarni taqsimlashda qo'llaniladi. Usulni harakatsiz va harakatli fazalari farqlanib, harakatsiz fazasi asosini ion almashuvchilardan iborat bo'lgan organik polimerlar - smolalar tashkil etadi.

b) Suyuqlikli xromatografiyada harakatsiz faza o'rnida mikroskopik zarralar qo'llaniladi. Bu usul katta tezlikka ega bo'lib, qisqa vaqt oralig'ida deyarli har qanday birikmani taqsimlay oladi.

v) Taqsimlovchi xromatografiyada aralashma tarkibidagi moddalar radikallarining katta-kichikligi, funktsional (gidrofil) guruhlarining bor-yo'qligi, harakatli va harakatsiz eritmalarda har xil erishiga qarab o'z individual komponentlariga taqsimlanadilar.

Xromatografik qog'oz tasmasining pastki chegarasidan 1 sm yuqoriga bir tomchi tekshirilayotgan modda tomizilib, tagida harakatlanuvchi eritma, ko'pincha, organik eritma saqlagan xromatografiya kamerasiga joylashtiriladi.

Kamera atmosferasidagi suv bug'lariga to'yingan modda harakatsiz (polyar) eritmani hosil qiladi. Harakatlanuvchi eritma yuqoriga o'zi bilan birga gidrofob moddani olib harakatlanadi, gidrofil moddalar esa suvda erigani uchun startda qoladi. Har bir moddani bo'yalgandan so'ng individual R<sub>f</sub> lari o'lchanadi yoki standart modda bilan identifikatsiya qilinadi.

Optik usullar. Fotokolorimetrik usulda tahlil qilishda tekshirilayotgan eritma rangining rayshanlik darajasi (kontsentratsiyasi) avvaldan ma'lum bo'lgan standart eritma rangi bilan solishtiriladi. Kolorimetrik aniqlashda miqdori o'lchanayotgan moddaning boshqa modda bilan rangli birikma hosil qilish reaksiyasidan foydalaniladi. Olingan eritma rangini jadalligi bo'yagan moddaning miqdoriga to'g'ri proportsional. Rang jadalligi qanchalik ko'p bo'lsa, optik zichlik ham shunchalik yuqori bo'ladi. Grafik bog'liqlikni aniqlashda abtsissa o'qiga mol'/l (S) da modda miqdori, ordinata o'qiga esa eritmaning optik zichligi (D) qo'yiladi.

Uslubni qo'llash uchun D va S ko'rsatkichlari o'rtasida proportsional bog'liqlik bo'lishi shart.

Spektrofotometrik tahlil usulida eritmadi yoki qattiq muhitdagi moddaning nur yutishi ma'lum to'lqin uzunligiga to'g'ri kelishi aniqlanadi. Spektrofotometri qo'llab spektrni ko'zga ko'rindigan (600 dan 1100 nm), ultrabinafsha spektr qismida (220 dan 650 nm gacha) ishslash mumkin.

Biologik birikmalarning tuzilishi, almashinushi va vazifalarini o'rganish uchun kimyo, fizik-kimyo, matematika, fiziologiya usullari bilan bir qatorda biologik kimyoning o'zining xususiy tadqiqot usuli – fermentativ tahlil usuli ham bor. Bu usul amaliy tibbiyotda, farmasiya va ilm-fanning turli sohalarida hamda xalq xo'jaligida keng qo'llaniladi.

**1-Topshiriq:** Hayotning tuzilish darajalarini toifalarga ajrating va toifalash jadvalida ifodalang.

**Toifalash jadvali bilan ishlash uchun yo`riqnomा:**

- 1.Matn bilan tanishib chiqing.
2. O'simliklar biokimyosi bo'limlarni aniqlab oling.
- 3.Jadvalning birinchi vertikal qatoriga O'simliklar biokimyosi tadqiqot usullarini yozib chiqing.
4. Jadvalning ikkinchi gorizontal qatoriga O'simliklar biokimyosi tadqiqot usullarini tavsif bering.

№	O'simliklar biokimyosi tadqiqot usullari				
1.					
2.					

**2-Topshiriq:** “O'simliklar biokimyosi” mavzusini insert jadvalidan foydalanib o`qib keling.

**«Insert» jadvali**

Mavzuchalar nomi	+	?	!	

? - yangi ma'lumot. + – bilib oldim. ! - tushuna olmadim.

## II BOB. O'SIMLIKLARNING KIMYOVİY TARKIBI

### 2.1. Kimyoviy elementlarning o'simlik hayotidagi roli

Hujayrada organik va anorganik moddalar uchrab, hujayraning normal o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydi (1-jadval). Hujayrada D.I. Mendeleyev davriy sistemasidagi kimyoviy elementlarning 80 dan ko'prog'i aniqlangan. Shulardan 40 tasi biologik aktiv moddalar tarkibiga kiradi va moddalar almashinuvida qatnashadi. Bu elementlarni biogen elementlar deb ataladi. Biogen elementlar organik va anorganik birikmalar holida bo'ladi. Organik birikmalarga oqsillar, nuklein kislotalar, uglevodlar, yog'lar va yog'simon moddalar kabilar kirsa, anorganik moddalarga suv va mineral tuzlar kiradi. Biogen elementlarni uchrush miqdoriga arab uch guruhga bo'linadi.

1. Makroelementlar – 98%, kislorod – (O) 75% gacha, uglerod (C) 12% gacha, vodorod (H) 8 % gacha, azot (N) 3% gacha.
2. Mikroelementlar – 1,9 % – kaliy (K), fosfor (P), oltiingugurt (S), magniy (Mg), xlor (Cl), kalsiy (Ca), natriy (Na), temir(Fe).
3. Ultramikroelementlar 0,01 % – yod (I), mis (Cu), kobalt (Co), rux (Zn), molibden (Mo), brom (Br), marganets (Mn), bor(B) va boshqalar

2.1-jadval.

Moddalar % hisobidan	
Anorganik	Organik
Suv 70–80	Oqsillar 10–20
Mineral tuzlar 1–1,5	Yo'g'lar 1–5 (hayvonlarda)
	Uglevodlar 0,2–2
	Nuklein kislotalar 1–2

Vodorod, kislorod, uglerod birgalikda uglevodlar va yog'larni hosil qiladi. Oqsillar va nuklein kislotalar tarkibida yuqoridagi 3 ta elementlardan tashqari azot, oltingugurt va fosfor ham mavjud. Kaliy, natriy va xlor hujayra membranalari orqali turli moddalarni o'tkazishni ta'minlaydi. Nerv hujayralarining qo'zg'alishi shu elementlar ishtirokida ro'y beradi. Kaliy va natriy hujayra

membranasida biotokni hosil qiladi. Kalsiy va fosfor suyak to‘qimalarini hosil qilishda ularning mustahkamligini ta’minlashda ishtirok etadi. Bundan tashqari kalsiy qonning normal ivishini ta’minlovchi omil.Ultramikroelementlarning yetishmasligi natijasida moddalar almashinishi buzilishi kuzatiladi. Ularning ortib ketishi ham har xil kasalliliklarga sabab bo‘ladi.

**Suv.** Ma’lumki, o’simliklar to‘qimalari tarkibining 70-95% suvdan iborat. Suv o’zining ajoyib xususiyatlari tufayli organizmlar hayot faoliyatida birinchi va boshqa moddalarga tenglashtirib bo‘lmaydigan o‘rinni egallaydi. Ammo uning hujayra tuzilishida va undagi molecular darajada boradigan turli metabolik jarayonlardagi o‘rni to’liq o’rganllmagan.

Suvning butun bir organizmdagi o‘mi turlichadir. Butun yer yuzidagi hayot formalari faqatgina suvli holatdagina mavjud. Shuning uchun ham hujayra tarkibidagi suvning kamayishi, tirik tuzilmalaming tinchlik,ya’nl Anabioz holatiga o’tishiga olib keladi. Tirik organizmlaming asosiy komponentlaridan biri suvdir.

O‘simlikning barcha organlarida suv bo’ladi: bargda-90%, novdada-70-90%, lldirda-50-60%, urug‘da-10%. Vakuolada-98%, sitoplazmada 80% , qoblqda-50% atrofida suv uchraydi.

Biologik obyektlarda suv quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- 1.Hujayra, molekula, to‘qimalar va organlami bir butun qilib birlashtirib turadi. Suv uziksiz muhitni tashkil qiladi.
2. Biokimyoviy reaksiyalar uchun eng yaxshi va muhim muhitdir.
3. Hujayra tuzilmalarini tartibga solishda qatnashadigan oqsillar tarkibiga kirib, ularning konformasiyasini belgilaydi.
4. Bir qancha biokimyoviy reaksiyalaming tarkibiy qismidir;  
t ) fotosintez jarayonida elektronlar donoridir.  
b) Kres sikkida oksidlanish-qaytarilish jarayoni ishtirokchisi.
5. Hujayra hayotiy jarayonlarida, xususan, suvning membranelardagi elektronlar va protonlar tashiluvividagi o‘mi beqiyosdir.
6. Moddalar almashinuvida asosiy o‘rinni tutadi. Masalan, ksilema to’qlmalarl bo’ylab esa suv va unda erigan moddalami tashisa, floema to‘qimalari bo’ylab moddalarning simplast va apoplast tashiluvi amalga oshiradi.

7. Issiqlikni boshqaruvidir. Suv tufayli o'simlik to'qimalarida harontning birdan o'zgarishi ro'y bermaydi. Bu hoi suvning yuqori issiqlik sig'imi bilan o'lchanadi.

8. Suv tufayli yuzaga keladigan egiluvchanlik xususiyati tufayli o'limlikiar har xil mexanik ta'sirlardan saqlanadi.

9. Suv sababli bo'ladigan osmos va turgor holatlari tufayli to'qimalaming nisbatan qattiq holati saqlanadi.

O'simliklaming evolutsiyasi mobaynida ulaming suvga bog'liqligi birmuncha kamaya borgan. Masalan, suv o'tlari uchun suv ko'payish va yashash muhitidir. Yer osti sporali o'simliklarida esa ulaming ko'payishiga suvning ta'siri qisman saqlanib qolgan xolos, ya'ni suv gametalaming ipchalari tufayli harakatlanishiga yordam beradi. Urug'li o'simliklar o'zlarining changdonlari va urug'donlari tufayli ko'payish jarayonlarida suvga muhtoj emas. Urug'li o'simliklarda ontogenez davomida suvdan foydalanish jarayonlari anchagina takomillashgandir.

Ushbu jarayonlar albatta tiriklik dunyosining suvli muhitdan quruqlik muhitiga ko'chishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Suvning tuzilishi va xossalari. Ma'lumki suv uch agregat holatida bo'lishi mumkin, ya'ni suyuq, qattiq va gaz holatlarida. Bu tuzilmalaming har birida suv turlicha tuzilishga ega.

Shuningdek, tarkibidagi moddalarga qarab suv boshqa xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Suvning qattiq holati ham kamida ikki xil bo'ladi. Bular, muzning sof kristall holati va kristall bo'limgan shishasimon muz holati.

Muzning shishasimon holati suv tez muzlaganda ro'y beradi. Bunda suv molekulalari kristall panjaralari hosil qilishga ulgurmeydi. Buni biz suvni suyuq azot bilan muzlatganimizda ko'rishimiz mumkin.

Atmosfera havosidan yuqori bosim ostida olinadigan suyuq azotning harorati  $-170^{\circ}\text{C}$  gacha bo'lishi mumkin. Suvning mana shu xususiyati tufayli ayrim bir hujayrali suv o'tlarini va faqatgina ikki qator hujayralardan tarkib topgan Muhiym ular organizmiga zarar yetkazmasdan muzlatish. Hujayra va to'qimalar sekin asta

soviganda ularda sof suv kristallari hosil bo'ladi va ular qaytmas zararlanadilar. Bunga asosan ikkita sabab bo'lishi mumkin, ya'ni hosil bo'lgan muzning mexanik ta'siri yoki hujayraning suvsizlanishi holatlari.

Suvning sof kristall muz holati turli-tuman bo'lishi mumkin. Masalan, muzning paporotniklaming barglari ko'rinishida, har xil gulsimon tuzilishlari shular jumlasidandir.

Sof suvning molekular tuzilishi va xossalari. Bizning davrimizda suv boshqa moddalami o'rganishda ulaming hajmi va solishtirma zichliklari o'lchamlari uchun namuna sifatida foydalaniladi.

**Zichlik.** Barcha moddalar qizdirilganda ularning zichligi kamayadi, suvniki esa ortadi. Masalan, 0,1013 MPa (1 atm.) bosimda 0°C haroratdagi suvni asta sekin qizdira borsak, uning zichligi orta boradi va 4°C haroratda eng yuqori ko'rsatkichga (sm/g) ega bo'ladi. Suv muzlaganda esa uning hajmi keskin 11% ga ortib ketadi.

Shuningdek, muzni 0°C eritish uning zichligining keskin kamayib ketishiga olib keladi. Suvning zichligiga bosim ham ta'sir qiladi. Masalan, bosimning har 13,17 MPa (130 atm) suvning muzlash va qaynash haroratlarining 1°C ga o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun ham dengiz sathidan ancha baland joylarda suv nisbatan past haroratlarda qaynaydi. Okeanlaming o'ta chuqur joylarida suvning harorati manfiy bosada u muzlamaydi.

Suvning haroratini 4°C dan 100°C gacha oshirish uning zichligining 4% ga ortishiga olib keladi.

**Issiqlik sig'mi.** Suvning issiqlik sig'imi, ya'ni uning qaynash haroratini 1°C ga oshirish uchun zarur bo'ladigan issiqlik miqdori boshqa moddalamikiga nisbatan 5-30 marta ko'pdir. Faqatgina vodorod va ammiakning issiqlik sig'imi suvnikiga nisbatan yuqori. Agar biz suv va qumning issiqlik sig'imi solishtiradigan bo'lsak, qumning issiqlik sig'imi suvnikiga nisbatan 5 marotaba kamligini ko'rishimiz mumkin.

Shuning uchun ham bir xil quyosh haroratida qum suvga nisbatan kamroq isiydi, ammo suv qumga nisbatan shuncha ko'proq o'zida issiqliknинг ushlab tura oladi.

Suvning bug' hosil qilish va qaynash issiqligining nisbatan yuqori bo'lishi uning tarkibidagi vodorod bog'lariga bog'liqdir. Buni biz ikkita bir-biriga o'xhash birikmalarda  $C_2H_5OH$  va  $(CH_3)_2O$  ko'rishimiz mumkin:

Suv mena shu o'zining yuqori issiqlik sig'imi xossasi tufayli havo harorati blrdaniga isib ketganida ham o'simlik to'qimalarini haddan tashqari qizib ketishdan saqlasa, suvning par hosil qilish issiqlik sig'imi o'slmlklar tanasining termoregulatsiyasida ishtirop etadi.

O'simlik hujayrasi tarkibidagi suv deyarli sof holda uchramaganligi uchun, uning eritmalardagi holatini o'rganish alohida ahamiyatga ega.

Tarkibida ionlar bo'lган eritmalardagi suvning tuzilishi sof suv tuzilishidan keskin farq qiladi. Bu hoi suyultirilgan eritmalarda (0,1 mol/1) zaryadlangan ionlar hisobiga bo'ladi.

**Immobilashgan suv.** Immobilashish bu makromolekulalaming konformatsion o'zgarishi vaqtida suvni mexanik ushlab olinishidir.

Buning natijasida suv makromolekula ichida yoki ular orasidagi yopiq muhitga tushib qoladi. Immobilashgan suvning bir qismi gitratatsiya jarayonlarida qatnashsa, qolgan qismi oddiy suv xossalariiga ega bo'ladi.

Ammo immobilashgan suv o'zining yuqori harakatchanligiga qaramasdan yopiq sistemada bo'lганligi sababli makromolekulalardan faqatgina katta kuch tufayli uzilishi mumkin. Bu jihatdan immobilashgan suvni bog'angan suv deb qarash mumkin. Shuni aytib o'tish kerakki, moddalar tarkibidagi immobilashgan suvning miqdori haqida aniq-tiniq ma'lumotlar yo'q. Ammo o'simliklar ontogenezida immobilashgan suvning fiziologik ahamiyati juda katta. Masalan, o'simlik urug'ari tabiiy sharoitda yoki sun'iy ravishda qisman suvsizlanganda, uning endospermi kraxmal qismida suv butunlay qolmagan taqdirda ham uning murtagida oqsillarga immobilashgan suv qolib, urug'lar unuvchanligini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'simlik hujayrasi tarkibidagi ionlar bilan bog'angan suvni **osmotik bog'langan** suv deyiladi va u hujayra osmotik bosimining asosiy xususiyatini belgilaydi.

**Hujayradagi suv formalari.** O'simliklaming hujayralari va to'qimalarida suvning asosan ikki formasi mavjud. Bular erkin va bog'angan suv molekulalari. Hujayradagi erkin suvning miqdori undagi fiziologik-biokimyoiy jarayonlaming jadalligini belgilasa, bog'langan suv ularning chidamliligi asoslarini belgilaydi.

Bog'langan suv o'z navbatida bir necha xil bo'lishi mumkin.

a) osmotik bog'langan suv (ionlar, molekulalar kabi moddalami gidratlaydi);

b) kolloid bog'langan suv, ya'ni o'z ichiga kolloid sistemaning ichidagi, tashqarisidagi va orasidagi suvni oluvchi suv formasi;

d) kapillar bog'langan suv (o'tqazuvchi sistemalar va hujayra devoir tarkibidagi suv).

Umuman o'simlik hujayralaridagi bog'langan suvning miqdori uning turiga, o'sayotgan joyiga, to'qimalardagi suvning miqdoriga va o'simlik qismlariga bog'liqdir. Ammo umumiy suv miqdori ko'proq o'simlikning turiga bog'liqdir. Masalan, arpaning ildiz uchlarida umumiy suvning miqdori 93% bo'lsa, sabzi ildiz uchlarida ushbu ko'rsatkich 88,2% ni tashkil qiladi. Shuningdek, karam barglarida **86%** bo'lsa, makkajo'xori barglarida 77%. Xuddi shunday mevalardagi suv miqdori ham har xil— pomidorida 94,1%, olmada 84,0% dan iboratdir.

O'simliklar urug'lari tarkibidagi umumiy suv miqdori ularning turiga qat'yan bog'liq bo'lib, urug'laming unuvchanligi va o'sish energiyasini belgilovchi bosh mezondir. Masalan, yeryong'oqda - 5,1%, makkajo'xorida - 11,0% bo'lsa, arpa donlarida - 10,2% dir. Umuman urug'larda suvning miqdori o'simliklaming turiga qarab 5-20% atrofida bo'lishi mumkin.

O'simlik hujayralaridagi suvning asosiy qismi, ya'ni 98% ga yaqini uning vakuolalarida bo'ladi. Ammo meristema hujayralari bundan mustasno. Masalan, ildiz uchlari meristema to'qimalarida oz sondagi mayda-mayda vakuolalar bo'ladi va ularning hujayra devorlari juda yupqa bo'lib suvning asosiy qismi sitoplazmadadir.

V.Larxerning (1976) fikricha hujayradagi suv formalari har xil, Masalan, kimyoviy bog'langan suv holatida, zaxira suv holatida, ya'ni hujayra kompartmentlari suv yig'uvchi bo'shliqlarida, vakuolda hamda interstitsial suv-hujayra oraliqlaridagi va o'tkazuvchi naylar hamda to'rsimon naylardagi tashuvchilik vazifasini bajaruvchi suv holatlarida bo'ladi.

Erkin suv yetarli darajada harakatchandir. Masalan, ildizlari yuvilayotgan muhitga nishonlangan og'ir suv formasi kiritilsa, 1-10 daqiqadan so'ng og'ir suvning ildiz to'qimalari ichkarisidagi va tashqi muhitdagi miqdorlari bir xil bo'ladi. Bu o'z navbatida ildiz hujayralari plazmalemmasining suvni o'tkazish xususiyatining anchagina yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bug'doyning yosh ildizlari hujayrasidagi suvning 3/4 qismi vakuolalarda joylashgan, 1/4 qismi esa hujayra devori tarkibida va faqatgina 1/20 qismigina sitoplazmada joylashgan. Ammo tarkibida birqancha vakuolalar bog'lan meristema hujayralarida suvning asosiy qismi sitoplazmada joylashgan.

Hujayralarda suvning ushlab turilishi asosan osmos va biokalloidlarning bo'kishi natijasida bo'ladi.

Umuman olganda erkin suv miqdori fiziologik jarayonlaming intensivligini belgilasa, bog'langan suv miqdori o'simliklaming noqulay omillarga chidamliliginibergilaydi.

O'simliklarga suv va unda erigan turli xil moddalarning kirishi hamda o'simlik tanasi bo'ylab harakatlanishi muhim fiziologik jarayonlardan biridir. Ushbu jarayonning amalga oshishida o'simlik hujayrasining osmotik potensiali alohida ahamiyatga ega va o'z navbatida diffuziya va osmos qonunlaridan kelib chiqadi.

Diffuziya-bu erituvchi va erigan modda molekulalarining vaqt birligi ichida bir tekis taqsimlanish jarayonidir. Diffuziyaning yo'nalishi yuqori konsentratsiyadan past konsentratsiyaga qarab, ya'ni kam erkin energiyaga ega bo'lgan tomonga qaralgandir.

O'simlik hujayrasi osmotik sistema sifatida. Vakuol tarkibida ko'pgina osmotik faol moddalar, ya'ni qandlar, organik kislotalar, tuzlar va boshqalar bo'lganligi tufayli o'ziga suvni tortish xususiyatiga ega.

Bunda plazmolemma va tonoplast yarim o'tkazuvchan membrane sifatida xizmat qiladi. Ushbu sistema tanlab o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi sababli, suv undan boshqa moddalarga nisbatan tez o'tadi.

Suvning hujayraga kirish kuchi uning so'rish kuchi deb ataladi. So'rish kuchining kattaligi hujayra shirasining osmotik bosimi ( $P$ ) va uning turgor yoki gidrostatik bosimi ( $\pi$ ) ga bog'liq. Turgor bosim bu hujayra devorining unga bo'lgan bosimga qarshiligidir

Ideal osmotik hujayra uchun gidrostatik bosimi ( $P$ ), osmotic bosim ( $\pi$ ) va so'rish kuchi ( $S$ ) o'rtasidagi o'zaro bir-biriga bog'liqlik sxemasi (V.V.Polevoy, 1989).

O'simlik hujayralarida modda almashinushi jarayonlari doimiy ravishda sodir bo'lib turadi. Hujayra po'sti suvda erigan moddalarni yaxshi o'tkazadi. Protoplazmadagi plazmolemma hamda tonoplast membranalari moddalarni tanlab o'tkazish xususiyatiga ega, shuning uchun suv va unda erigan moddalarni hujayra shirasiga har xil tezlikda o'tadi.

Suv ko'pgina muhim funksiyalarni bajaradi:


- universal erituvchi;
- hujayrada moddalarning transporti;
- hujayra tarkibiga kiradi, (sitoplazmani ko'pgina qisminitashkil qiladi);

- termoregulyatsiyada qatnashadi;
- gidroliz va fotosintez reaksiyalarida qatnashadi;
- gametalar tarkibida bo‘ladi.

Hujayraning fizik xossalari uning hajmi, tarangligi suvga bog‘liq. Suvning o‘ziga xos fizik-kimyoviy xossasi uning molekulasi ikki qutbli bipolyar bo‘lishidan kelib chiqadi. Bunday struktura suv molekulalarining o‘zaro va boshqa molekulalarning elektromanfiy atomlari bilan ko‘plab vodorod bog‘lar orqali bog‘lanishiga olib keladi. Suvning molekulasining qutbliligi tufayli hujayrada juda ko‘p molekulalar u bilan elektrostatik ta’sir etadi yoki vodorod bog‘lar orqali birikadi. Suvning biologik roli uning molekulyar o‘lchamikichikliga bog‘liqdir, uning spetsifikligi qutblilik, vodorod bog‘ini hosil qila olishidadir. Jumladan suvning solishtirma issiqlik sig‘imi katta ekanligi o‘sha xossalari bilan ifodalanadi Tashqi muhit temperaturasi ko‘tarilganda yoki pasayganda suv molekulasi o‘rtasida vodorod bog‘larining uzilishi yoki yangidan hosil bo‘lishi tufayli issiqlik yutiladi va ajralib chiqadi. Suvning erituvchi sifatidagi xossasi uning molekulalari ichki tuzilish xususiyatlaridan biri bilan izohlanadi. Moddalarni suv bilan munosabatiga ko‘ra gidrofil suvda eruvchi) yoki gidrofob (suvda erimaydigan) moddalarga ajratiladi. Gidrofil moddalarga mineral tuzlar, kislota, monosaxaridlar, oqsillar va boshqa moddalar kiradi. Gidrofob moddalarga esa yog‘lar, polisaxaridlar va boshqa moddalar kiradi. Suvning erituvchanligi suv molekulalarining qand va spirit gidroksil guruhlari bilan vodorod bog‘lar hosil qilishidan kelib chiqadi.

Vodorod bog‘lar faqat suv molekulari uchun xarakterli emas. Vodorod bog‘lar, ayniqsa oqsil va nuklein kislota molekulalarini ma’lum shaklda turg‘un saqlashini ta’minlashda ishtirok etadi. Bu birikmalarda vodorod bog‘lar umuman bir molekula ichida yoki qo‘sni molekulalar o‘rtasida NH gruppating vodorodi bilan karbonil gruppa (CO) ning kislороди орасида hosil bo‘ladi. Organizmda oziq moddalar, ionlar, turli metabolitlar, fiziologik faol birikmalar, gormonlar va boshqalar ham bir joydan boshqa joyga suv orqali transport qilinadi, suyuq muhitdan hujayraning ichiga o’tadi. Nihoyat, suv organizmda gidrolitik yo‘l bog‘bilan murakkab birikmalarning parchalanish reaksiyasida ishtirok etadi.

## 2.1-rasm. Suvning molekulyar strukturasining sxemasi va suv molekulalari o'rtasida vodorod bog'i



Mineral tuzlar. Mineral tuzlar hujayraning 1–1, 5 % ini tashkil qiladi. Hujayrada anorganik moddalarning ko‘pgina qismi tuzlar tarkibida bo‘ladi. Mineral tuzlar organizm rivojlanishida muhum vazifani bajaradi. Mineral tuzlar suvli eritmada anion va kationga dissotsiatsiyalanadi, osmotik bosimni hosil qilishda qatnashadi, to‘qima suyuqligida kuchsiz ishqoriy pH (7,2–7,4) ni hosil qiladi. Hujayradagi anorganik moddalardan ko‘pchiligi tuzlar shaklida bo‘ladi. Kationlardan  $\text{Na}^+$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{Ca}^+$ ,  $\text{Mg}^{2+}$ , anionlardan  $\text{HPO}_4^{2-}$ ,  $\text{H}_2\text{PO}_4^{-}$ ,  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{HCO}_3^-$  – muhim ahamiyat kasb etadi. Hujayra ichida kaliyning miqdori natriyning konsentratsiyasidan ancha ko‘p, hujayra tashqarisida esa natriyning miqdori ko‘p bo‘ladi. Kationlar yetishmovchiligi hujayrada qo‘zg‘aluvchanlikni susaytiradi. Hujayraga suvning kirishi ma’lum ma’noda hujayradagi bufer eritmalarga bog‘liq.

O’simliklardi har bir makro- va mikroelementning funksiyalari aniq o’ziga xosdir, bitta elementni boshqasi bilan almashtirish mumkin emas. Makro va mikroelementlarning etishmasligi o’simliklardi metabolik va fiziologik jarayonlarga, ularning o’sishi va rivojlanishining pasayishiga, hosildorlik va uning sifatining pasayishiga olib keladi. O’tkir ozuqa etishmovchiligidagi o’simliklar ochlik belgilarini namoyon qiladi.

Azot Bu o’simliklarda metabolik jarayonlarda muhim rol o‘ynaydigan aminokislotalar, amidlar, oqsillar, fermentlar, nuklein kislotalar, xlorofil, alkaloidlar, fosfatidlar, ko‘pgina vitaminlar va boshqa organik azot birikmalarining bir qismidir.

Tabiiy sharoitda o’simliklar iste’mol qilish orqali azot bilan ta’minlanadi nitrat ioniva ammoniy kationituproq eritmasida va tuproq kolloidlari almashinadigan holatida bo‘ladi. O’simliklarda olingan azotning mineral shakllari murakkab o’zgarishlarga uchraydi va natijada organik birikmalar - aminokislotalar, amidlar va nihoyat oqsil tarkibiga kiradi.

Nitratli azot o'simliklarga ko'p miqdorda zarar bermasdan to'planishi mumkin. Ammo ozuqa, sabzavot va boshqa o'simlik mahsulotlaridagi nitrat miqdori ma'lum chegaradan yuqori bo'lsa, bunday mahsulotlarni iste'mol qiladigan hayvonlar va odamlarning tanasiga zararli ta'sir ko'rsatadi.

Uglevodlarning etarli miqdori bilan o'simliklardan tuproqqa kirgan va nitratlarning pasayishi jarayonida hosil bo'lgan ammiak azotiga organik keto kislotalar - birlamchi aminokislotalarni (aspartik va glutamik) hosil qiluvchi uglevodlarni (oksalat, sırka, ketoglutarik yoki fumarik) to'liq bo'limgan oksidlanish mahsulotlari kiradi. Ushbu jarayon deyiladi to'g'ridan-to'g'ri aminatsiya va aminokislotalar hosil bo'lishining asosiy usuli.

Proteinni (20 dan ortiq) tashkil etadigan boshqa barcha aminokislotalar sintez qilinadi aspartik va glutamik kislotalarning transaminatsiyasi. Fermentlar ta'sirida transaminatsiya jarayonida ushbu va boshqa aminokislotalarning aminokislotalari boshqa keto kislotalarga o'tkaziladi. Transaminatsiya juda katta ahamiyatga ega oqsil sintezishuningdek uchun aminokislotalarni zararsizlantirish - aminokislotadan aminokislotaning ajralishi, natijada ammiak va keto kislotasi hosil bo'ladi. Ikkinchisi o'simliklar tomonidan uglevodlar, yog'lar va boshqa moddalarni qayta ishlash uchun ishlatiladi va ammiak yana aminokislotalar sintezida ishtirok etadi.

Azot metabolizmida katta rol o'ynaydi amidlar – asparagin va glutamin, ular boshqa ammiak molekulasiga aspartik va glutamik kislotalarning qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. Amidlarning hosil bo'lishi natijasida ammiakning zararsizlanishi sodir bo'ladi, bu ko'p miqdorda ammiak oziqlanishi va o'simliklarda uglevodlar etishmasligi bilan to'planadi.

O'simliklarning o'sishi va rivojlanishi jarayonida juda ko'p miqdordagi turli xil proteinlar doimiy ravishda sintez qilinadi. Uchun oqsil sintezi Boshqa murakkab organik birikmalar singari, katta miqdordagi energiya talab qilinadi. O'simliklardagi asosiy energiya manbalari fotosintez va nafas olish (oksidlovchi fosforillash), shuning uchun oqsil sintezi va nafas olish va fotosintezning intensivligi o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud.

O'simliklarda sintez bilan birga sodir bo'ladi oqsillarning parchalanishi proteolitik fermentlar ta'sirida ammiakni yo'q qilish bilan aminokislotalarga. Yosh o'sayotgan organlar va o'simliklarda oqsil

sintezi parchalanishdan oshadi, yoshi ulg'aygan sari parchalanish jarayoni faollashadi va sintez ustidan ustunlik qila boshlaydi. Shunday qilib, o'simliklarda organik azotli moddalar sintezining murakkab tsikli ammiakdan boshlanadi va ularning parchalanishi uning shakllanishi bilan tugaydi. D. N. Pryanishnikov "... ammiak o'simliklarda azotli moddalar almashinishidagi alfa va omega" ekanligini aytdi.

tabiiy xususiyatlari yomonlashadi - ya 'ni, konsistensiyasi (holati), ta'mi, rangi, xushbo'yligi o'zgaradi. Undan tashqari, tez qizdirib, mahsulot sterilizatsiyasi ferment aktivsizlanmasdan amalga oshiriladi. Bunda fermentlar to'liq aktivligini y o 'qotib, saqlash vaqtida reaktivlanib uning buzilishiga olib keladi. Peroksidaza faolligini o'rganishda shunga o'xhash o'zgarishlar kuzatilgan. Ildizmevalilarga yuqori harorat ta'sirida ular to'qimalaridagi ferment aktivligi nolga teng bo'lgan, ammo saqlash jarayonida ferment aktivligi to'liq tiklanmagan. Bunga sabab peroksidaza yuqori termostabil fermentlar qatoriga kirib, juda yuqori haroratdagina denaturatsiyaga uchrashligidir. Peroksidaza fermentining Ca ionlari va oqsillar ishtirokida stabilligi (turg'unligi) ortadi. Peroksidaza fermentining aktivligi kuchayishi mahsulotni saqlash harorati ortishi bilan boradi. Go'shtlarni uzoq vaqt past haroratda dudlanganda, mahsulotlarida murakkab kimyoviy jarayonlar boradi. Natijada go'shtdagi uglcvodlar, lipidlar, oqsillar va vitaminlar tarkibi o'zgaradi. Fermentlar ishtirokida oqsillar, polisaxaridlar, lipidlar va nuklein kislotalar gidrolizi reaksiyalari boradi. Ushbu reaksiya mahsulotlari dudlangan go'sht va go'sht mahsulotlarining ta'mi, rangi va xushbo'yligini belgilaydi. Igarilari meva va sabzavotlarni konservalashda, sterilizatsiya mahsulotni 100—120 Cda 30-60 minut davomida qizdirish bilan olib borilar edi. Bunday sharoitda xomashyodagi biokimyoviy jarayonlarni boshqaruvchi yuqori haroratga chidamli fermentlar ham mikroorganizmlar o'mmasdan parchalanadi. Sterilizatsiya rejimini ishlab chiqarishda faqat sterilizatsiyaning mikrobiologik ko'rsatkichlari bilan chegaralangan. Ferment aktivligi esa inobatga olinmas edi. Ammo, yangi sterilizatsiya usulida o'tish bilan vaziyat o'zgardi.

Mahsulotlarga uzoq vaqt harorat bilan ishlov berilganda ularning tabiiy xususiyatlari, ta'mi, rangi, xushbo'yligi yo'qoladi. Shu sababli aseptik sterilizatsiyaga ahamiyat berilayapti, unda issiqlik bilan ishlov berish muddati bir necha marta qisqartirildi va bu haroratni +130°C-150°C orttirish hisobiga amalga oshiradi. Hamma ishlovlar mahsulotni qayta zararlanishini oldini oladi. Ko'pgina tez qizdirilib, mahsulotni yuqori haroratda sterillanganda ferment sistemaning inaktivatsiyasiga ro'y beradi. Undan tashqari, fermentlar issiqlik bilan ishlov berilganda to'liq aktivligini yo'qotib, mahsulotni saqlash davomida reaktivatsiyasiga uchrab, mahsulotni buzilishiga olib kelar edi. Peroksidazaning termochidamliligin o'rganilganda har xil sabzavotlarda ar xil termochidamlilikka ega bo'ladi. Qizdirilgan mahsulotda peroksidazaning aktivligi yo'lqolishi kuzatilib. Saqlash

jarayonida tiklanishi mumkin. Olma, pomidor va sabzi sharbatlarida peroksidazaning termochidamliligi taqqoslanilganda, olma peroksidazasi qizdirishga kam chidamli ekanligi aniqlanilgan. Bu fermentning aktivligini yo'qotish  $80\text{-}90^{\circ}\text{C}$  gacha 5 sekund davomida qizdirilsa yetarli bo'ladi. Harorat chidamliroq bo'lib sabzining peroksidazasi hisoblanadi. Uni  $+145^{\circ}\text{C}$ da inaktivatsiyada uchratish uchun 30 sekunddan ko'proq vaqt talab qilinadigan. Peroksidazaning aktivligini bevosita mahsulotni qizdirilgandan so'ng va ma'lum vaqt (2-7), harorat  $+2\text{CH}$  saqlab turish mumkin.

Har xil sabzavotlarni qizdirish bilan ishlov berish peroksidazaning inaktivlanishi va muddatida uni regeneratsiyasini oldini olish mumkin. Peroksidazaning regeneratsiyasi kuzatiladi, qachonki qizdirilgandan so'ng fermentning kuchsiz aktivligi saqlanib qolsa, to'liq fermentning inaktivlashishi ro'y bersa, so'ogra u pasayadi. Ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi taxminga kelindi. Mahsulotni qizdirilganda denaturatsiyaga uchraydi va cho'kmaga tushadi. Bu oqsil qisman denaturatsiyaga uchramagan fermentni himoyaga oladi. Denaturatsiyaga uchramagan ferment mahsulot birinchi kun saqlanishi davomida elyurlangan oqsil bilan sekin tiklanib yana eritmada aktiv holatga o'tadi

Peroksidazaning regeneratsiyasi mahsulot saqlash harakatiga qarab, yuqori haroratda tezroq boradi. Masalan, peroksidazaning regeneratsiyasini ogohlantirish uchun makkajo'xori doni ikki sutka saqlanganda harorat  $+2,2^{\circ}\text{C}$  bo'lganda uni 30 sekundda  $149^{\circ}\text{C}$  gacha qizdiriladi.  $+38\text{nCda}$  saqlangan donlar esa 130 sekund davomida, sabzi sharbatiga peroksidaza  $137\text{nS}$  saqlanganda regeneratsiyasi tajribada juda tez borib, 1—2 soat davomida ro'y beradi. Qadimda oziq-ovqat mahsulotlarini har xil turdag'i bijg'ish orqali amalga oshirilgan. 19 asr oxiriga kelib, bijg'ish jarayonini mikroorganizmlarbajarib u lardan ajratiladigan fermentlar yordamida amalga oshiriladi va bu bijg'ish jarayonini fermentatsiyasi deyiladi. Enzimologiya fanining yutuqlari asosida fermentativ reaksiyalarni boshqarishni yangi prinsiplari ishlab chiqildi. Bunda ishlab chiqarish aralashmasiga kerakli fermentni qo'shish orqali amalga oshiriladi. Bunda fermentlarning xarakterli xususiyatlaridan biri ularning maxsusligidir, buning natijasida bir moddaning chuqur kimyoviy o'zgarishi mahsulotning boshqa tarkibiy qismlariga tegishli bo'lmaydi. Undan tashqari fermentlarning yumshoq ta'siri noo'rin o'zgarishlarni yuzaga keltirmaydi, kimyoviy ishlov berilganda esa yuzaga keladi. Iliar xil mikroorganizmlar ferment olish uchun kerakli va qulay xomashyo hisoblanadi, masalan, ferment

preparati qo'shilishi undan non pishirishni qisqartiradi va nonning ta'mini yaxshilaydi. Meva va sabzavotlarni qayta ishslashda ferment yoki ferment preparatlari qoilanilganda sharbat miqdori ortadi, mahsulotni tiniqlashishi va sifati yaxshilanishiga olib keladi. O'simliklarto'qimalarida sharbat miqdorini orttirilishi sellyulozaning, gemisellyulozaning, protopektinning, pektin va boshqalarning gidroliz jarayonlarini jadallashtirib boradi. Ushbu maqsadlarda sellyulozalar, protopektinazalar, pektinesterazalar, poligalakturanaza va boshqalar ishlatiladi. Sharbat ta'mi mevalardagi polifenollar hisobiga k olincha yomonlashadi. Bu kamchilik har xil oksidazalar polifenol oksidazalar, peroksidazalar va boshqalar yordamida bartaraf etiladi. Sharbatlatni tiniqlashtirish va loyqalanishini oldini olish uchun saqlash davomida, tarkibidagi oqsillarni gidrolizlash kerak. Bu jarayonni protcazalar yordamida amalga oshiriladi. Individual fermentlar hozircha mevarezavor sharbatlar ishlab chiqarishda kam ishlatiladi. Keng koMamda tarqalgan konsentrangan pektolitik fermentlar preparatlardir - ular nafaqat pektolitik fermentlardan, balki boshqa gidrolitik fermentlar - proteazalar, sellyulozalar va gemisellyulozalardan iboratdir. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, fermentlar hamrna biokimyoviy jarayonlarni sharoitini yaratib beradilar. Shuning uchun fermentlarning ahamiyati beqiyosdir. Bunda fermentlar tashkiliy va k o'pgina vazifalarni bajarishda ishtirop etadi.

### Nazorat savollari.

1. Nima uchun fermentlar o'ta maxsus bo'ladilar?
2. Biokatalizatorlarning kimyoviy katalizatorlardan qanday farqi bor?
3. Fermentlarning klassifikasiuasi va nomenklaturasi nimaga asoslangan?
4. Fermentlarni ajratib olish qanday maqsadlar uchun olib boriladi?

## IV BOB. UGLEVODLAR

### 4.1. O'simlik uglevodlari.

Molekulasining tarkibi C,H va O dan tarkib topgan va uglerodning  $H_2O$  holatidagi gidratlarini o'zaro fazoviy tuzilmalaridan hosil bo'lgan murakkab moddalar karbonsuvlar (uglevodlar) deb ataladi. Ular tabiatda keng tarqalgan moddalar bo'lib, muhim biologik vazifalarni o'taudi. Ayniqsa, ular o'simliklarda ko'p miqdorlarda uchraydi, ularning quruq vazniga nisbatan 70-80%ini tashkil etadi. Odam va hayvonlar organizmida ularning miqdori 2% atrofida bo'ladi.

Kimyoviy tuzilishi jihatidan karbonsuvlar ko'p atomli spirlarning aldegidlari va ketonlari hisoblanadi. Tirik jonzotlardagi karbonsuvlarning bajarayotgan vazifalari turli-tuman.

#### **Uglevodlarni o'simlik hayotidagi funksiyalari.**

- Energiya;
- Plastik;
- Strukturaviy;
- Zaxira;
- Osmotik;
- Tartibga solish;
- Signal;
- Himoya.

Eng avvalo, karbonsuvlar biologik ahamiuatga ega, ular nafas olish jarayoni bilan biologik oksidlanishga uchrab, o'zlarida jamg'arilgan bioquvvatni ajratadi. Hisoblashlarga ko'ra, 1 g karbonsuv oksidlanganda 4,1 kkal yoki 16,9 kDj bioquvvat hosil bo'ladi.

Karbonsuvlar quruvchi modda sifatida ham ahamiuatga ega. Ular nuklein kislotalari, karbonkislotalar, aminokislotalar, huddi shunday oqsillar, lipidlar bilan birikib, muhim biogen ahamiuatli birikmalarni hosil qiladi.

Karbonsuvlar himoya vazifasini ham o'taydi. Ular o'simlik to'qimalarining qobig'ini hosil qilishda, hashoratlar, qisqichbaqasimonlarning tashqi qurilmasini, bakteriualarning hujayra devorlarini va barcha tirik jonzotlarning hujayrasi membrana(qobiq)larini tashkil etishda qatnashadi.

Karbonsuvlar tauanch vazifasini ham bajaradi. Kletchatka va boshqa murakkab karbonsuvlar hujayra qobig'ini tashkil etishda

ishtirok etib, mexanik vazifasini idora etadi va to'qimalarning tauanch hususiyatlarini uuzaga chiqaradi. Ular odam va hayvonlarning tog'au to'qimalari tarkibiga xondroitinsulfatlar holida qatnashib, oqsillar bilan hamkorlikda, tauanch vazifasini bajaradi.

Karbonsuvlar boshqaruva vazifasini ham bajaradi. Masalan, oziq moddalar bilan qabul qilingan kletchatka(selluuloza) ichak ximusi tarkibida bo'lganida, ichak vorsinkalarini mehanik ko'zg'atib, ichak harakatini faollashtiradi. Bu esa ichakda ovqat hazm bo'lishini tezlashtiradi. Huddi shunday, monosaxaridlar ichki muhit barqarorligini - gomeostazni saqlashda ham qatnashib, osmotik bosim hosil qilishda faollilik ko'rsatadi.

Eng muhimi, karbonsuvlar mahsus vazifalarni ham bajarishda ishtirok etadi. Jumladan, glikoprotein tabiatli murakkab moddalar har xil gurhdagi qonning antigenli hususiyatini taniu oladi, ular asab hujurasining uchlarida ko'p miqdorda uchrab, asab impulsini o'tkazishda ham qatnashadi. Aurim glikoproteinli fermentlar qonning sovutgichisi, baliqlarda esa antikoaguluant vazifasini bajaradi.

Karbonsuvlar zahira oziq modda vazifasini ham o'taudi. Odam va hayvon to'qimalarida glikogen, o'simliklarda - kraxmal holida to'planib, zarur bo'lganda bioenergiya uchun sarflanishi kuzatiladi.

Karbonsuvlar tarkibi va hossalariga qarab uch guruhga bo'linadi: monosaxaridlar, oligosaxaridlar va polisaxaridlar(glikanlar).

5.1- jadval

Uglevodlar		
Monosa-xaridlar	oligosaxaridlar	Polisaxaridlar (glikanlar).
Glyukoza	Disaxaridlar (saxaroza, lakteza, maltoza))	Kraxmal
Fruktoza,	Trisaxaridlar 3. (rafinoza)	Glikogen,
Galaktoza	Tetrasaxaridlar (staxioz)	Inulin
Mannoz		Fruktozan
Sorboza		Sellyuloza,
Ksiloza		Gemitsellyuloza, pektinlar, agar-agar
Riboza		pektinlar, agar-agar

Monosaxaridlar yoki oddiy karbonsuvlar. Ularning umumiytarkibi  $(CH_2O)_n$  bo'lib, n - ning soni 3 dan 9 gacha bo'ladi.

Ular o'z navbatida tarkibidagi uglerod atomining soniga qarab, t r i o z a / C<sub>3</sub>H<sub>6</sub>O<sub>3</sub> /, t e t r o z a / C<sub>4</sub>H<sub>8</sub>O<sub>4</sub> /, pentoza / C<sub>5</sub>H<sub>10</sub>O<sub>5</sub> /, guekoza / C<sub>6</sub>H<sub>12</sub>O<sub>6</sub> /, geptoz a / C<sub>7</sub>H<sub>14</sub>O<sub>7</sub> / kabi guruhlarga bo'linadi. Tuzilishiga ko'ra barcha monosaxaridlar aldegid ( CH; CO) va keton guruhlarini saqlagani uchun aldozalar va ketozi lar ga bo'linadi:


Triozalaza – fotosintez jarayonida hosil bo'ladigan oraliq mahsulot eritroza misol bo'ladi. Ksiloza va arabinoza o'simliklarda shilimshiq moddalar va gemitsellyuloza tarkibiga kiradi.

Ketopentozalardan ba'zilari biologik ahamiyatga ega.

Geksozalarga glyukoza, fruktoza va galaktoza kirib, ularning umumi y formulasi C<sub>6</sub>H<sub>12</sub>O<sub>6</sub>. Glyukozaning molekula massasi 180. Erkin holda hujayralarda to'qima suyuqliklarida bo'ladi. U qonda doimo ma'lum konsentratsiyada hozir bo'lib, to'qimalarning energiyaga bo'lgan ehtiyojini tezdan ta'minlab turadi.

Glyukoza – uzum shakari, tabiatda juda ko'p uchraydi. Glyukoza hujayraning birlamchi energiyasini hosil qiladi. Qonda glyukozaning ortib ketishi nerv va mushak to'qimasida salbiy o'zgarishlar kuzatiladi. Glyukoza osmotik bosimni regulatsiyalaydi.

5.1- rasm




Fruktoza – meva shakari qandli diabetga uchragan odamlarga fruktoza beriladi. Chunki glyukoza hujayrada juda sekin o'zlashtiriladi va shuning uchun qonda glyukoza miqdori oshib ketadi. Fruktoza glyukozaga nisbatan oson o'zlashtiriladi va oson tarqaladi

Monosaxaridlardan tabiatda pentozalar, geksozalar keng tarqalgan bo'lib, muhim biologik vazifalarni bajaradi. Jumladan, pentozalar


riboza, dezoksiriboz va ribuloza holida uchraydi, riboza RNK, dezoksiriboz DNK tarkibiga kiradi:

Gekozalar glukoza, galaktoza, mannoza kabi aldogeksozalar holida hamda fruktoza kabi ketogeksoza holida keng tarqalgan:




Ulardan, gluukoza yoki uzum shakari tabiatda uzum shirasida (15%), mevalarda, barglarda, ildizlarda, gullarda hamda qonda(0,08 - 0,12%), mushaklarda(0,01%), miokardda (0,03), miuada(0,06%) uchraydi.

Fruktoza ham mevalarda, gulshira(nektar)da, asalda (60% gacha), uchraydi, u saxaroza va boshqa oligosaxaridlarning tarkibiga kiradi. U organizmda osonlik bilan gluukozaga izomerlanadi:




Molekulasi tarkibida aldegid ( $\text{--C}=\text{O}--\text{H}$ ) va spirt ( $\text{>C}-\text{OH}$ ) guruhlari bo'lganligi uchun suvdagi eritmalarda, ayniqsa, kristall holda aldegid holda ham, zanjir holda ham bo'laoladi:




Kimuoviy xossalari bo'uchaga monosaxaridlar uchun quyidagi reaksiyalar tavsiflidir:


1). Feling suyuq ligi ta'sirida oksidlanib gluukonat kislotasiga aylanadi:




2). Oksidlovchilar ta'sirida 1 - va 6 - uglerod atomlari oksidlanib, ikki asosli qand kislotasini hosil qiladi:



3). Zanjirli shakldagi monosaxaridlar spirtlar bilan ta'sirlashib, murakkab efir - glikozidlar hosil qiladi:




4). To'qimalarda biologik oksidlanish jarayonida ham murakkab efirlar hosil qiladi:



5). Aldozalar molekulasining 2 - uglerod atomidagi hidroksil guruhini aminoguruhga almashtirish hisobidan aminoshakarlarga

aylanadi, tabiatda ana shunday aminoshakarlardan D - glukozamin bilan D - galaktozamin, xitin, heparin, mukopolisaxaridlar va bakteriyalarning polisaxaridlari tarkibida uchraydi:



### Sanoatda turli ugevodlarning shirinligini qiosiy bahosi

Saxaroza	100	Ksiloza	40
glyukoza	74	maltoza	32
fruktoza	173	galaktoza	32
sorbitol	48	Raffinoza	23
glitserin	48	laktoza	16

5.3-jadval

### Oziq –ovqat mahsulotlarda turli uglevodlarning miqdori% hisobida

Mahsulot	Saxaroza	Glukoza	Fruktoza
Oq karam	0,1	2,6	1,6
Sabzi	3,7	2,9	7
Piyoz	6,3	1,3	1,2
Pomidor	0,2	1,5	1,0
Olma	3,0	3,8	8,1
Gilos	0,4	4,5	3,8
O'rik	6,0	2,2	1,7
Apelsin	3,6	1,3	1,5
Limon	0,9	0,6	0,6
Xurmo	1,2	9,1	7,8

### Mohosaxaridlarning almashinuvda ishtiroki.

- a) ichki qayta tuzilishlar-mutatsiyalar (mutazlar bilan katalizlangan monosaxarid fosfat molekulasi dagi fosfat guruhining harakatlanishi);- epimerizatsiya (epimerazlar


tomonidan katalizlangan monosaxaridning assimetrik uglerod atomlaridan birida konfiguratsiyaning o'zgarishi ishtirok etadi);

- b)  $C_2$  va  $C_3$  qoldiqlarini ko'chirish  $C_2$  va  $C_3$  qoldiqlarini bir monosaxariddan ikkinchisiga o'tkazish o'simliklarda keng tarqalgan ikkita muhim ferment, transketolaza va transaldolaz tomonidan amalgalashiriladi.
- c) oksidlanish-qaytarilish reaktsiyalari - aldon kislotalarning (glyukon kislotasi) hosil bo'lishi; - alduron kislotalarning (glyukuron kislotasi) hosil bo'lishi; - aldar kislotalarning (glyukarat kislotasi) hosil bo'lishi; - poligidroksi spirlarning (poliollar) hosil bo'lishi (glyukoza bo'lganda). kamayadi, sorbitol hosil bo'ladi)hosil bo'lishda ishtiroki.

**Oligosaxaridlar** tarkibi bo'uicha monosaxaridlarning angidridlaridir. Tarkibiga qarab di-, tri-, tetra- va hokazo saxaridlarga bo'linadi. Ulardan biologik ahamiuatga ega bo'lganlari disaxaridlar va trisaxaridlardir.


Tarkiblariga ko'ra disaxaridlar gluukozid harakteriga ega, faqat ularda hidroksilning vodorodi o'rniga joylashgan radikal monosaxarid qoldig'idir, ularning eng ahamiuatlari vakillari:

**M a l t o z a:**




Tuzilishidan ko'rinish turibdiki, u gluukozido-gluukoza tarkibli disaxarid, undagi bog'lanish 1 : 4 gluukozid bog'dan iborat. U tabiatda erkin holda uchramaudi, faqat, odam va hayvonlarda kraxmal bilan glikogenning parchalanishidan, o'simliklarda ham kraxmalni, donlarni o'sishi davrida, gidrolizlanishidan hosil bo'ladi. Agar maltoza gidrolizlansa ikki molekula gluukoza hosil bo'ladi.

**S ue 11 o b i o z a:**




Sellobiozadagi gluukozid bog' - D - gluukopiranozaning b - shaklidan hosil bo'lган, u selluuloza(kletchatka)ning fermentli bijg'ishidan hosil bo'ladi, suvda yaxshi eriydi.

### L a k t o z a - sut shakari:



Tarkibi D - gluukopirnoza bilan D - galaktopiranozadan tuzilgan. Faqat sut tarkibida uchraydi, uning sutdagi miqdori 5-8% ni tashkil etadi. Uning gidrolizatidan bir molekula gluukoza bilan bir molekula galaktozani ajratib olishi mumkin.

T r i s a x a r i d l a r ham tabiatda erkin holda uchraydi. Eng muhim vakili rifinozadir, u chigit, qandlavlagisi tarkibida uchraydi:



Agar rafinoza gidrolizlansa galaktoza, gluukoza va fruktoza hosil bo'ladi. Yana bir vakili mueliitzadir, u ayrim nina bargli daraxtlarning shirasi tarkibida uchraydi, agar gidrolizlansa, ikki molekula gluukoza bilan bir molekula fruktoza ajraladi.

### Nazorat savollari.

- 1.Uglevodlarning vazifasi va tuzilishi.
2. Uglevodlarning klassifikatsiyasi.
3. Uglevodlarning tarixi.
4. Uglevodlar klasifikasiyasi.
5. Uglevodlar tuzilishiga ko'ra qanday guruhga bo'linadi?
6. Fotosintez jarayonida ishtirok etadigan uglevodlar qaysi?

### 4-2. O'simlik polisaxaridlari.

Polisaxaridlarning umumiyformulasi ( $C_6H_{10}O_5$ )n bo'lsa ham tuzilishi bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Shuning uchun ularni gomopolisaxaridlар va geteropolisaxaridlarga bo'lishadi, monomer orasidagi glikozid bog'larning tabiatiga qarab ham farqlanishi yaqqol ko'rish mumkin.


Ayrim polisaxaridlar o'simlik va hayvon organizmlarida, ularning tana tuzilishini hosil qilishda qatnashadi, ularning mexanik mustahkamligini ta'minlaudi. Ularga kletchatka(o'simliklarda), xitin(xashoratlarda) moddalarini kiradi. Polisaxaridlarning o'simliklardi kraxmal va inulin, hayvonlardagi glikogen kabi vakillari oziq mahsulotidir. Bularidan tashqari bakteriyalar va zamburug'lar tarkibida geteropolisaxaridlar ham uchraydi.

Polisaxaridlarning ko'pchiligi oqsillar bilan majmuiu birikmalar hosil qiladi, gluukoproteinlar, mukoproteinlar, shular jumlasidandir.

Eng muhim gomopolisaxaridlardir:

**Kraxmal** U o'simliklarda fotosintez jarayonida hosil bo'lib, o'simliklarning donida, ildizmevalarida, to'g'anakmevalarida va boshqa qismlarida zahira oziq modda sifatida(kraxmal donachalari holida ) jamg'ariladi. Uning miqdori bug'doyda 75%, guruchda 80%, kartoshka to'ganaklarida 12-24%, o'simlik barglarida 4% atrofida bo'ladi. Kraxmal suvda erimaudi, lekin  $60-80^{\circ}$  gacha isitilgan suvda bo'kadi va kraxmal kleustri deb ataladigan kolloid eritmaga aylanadi. Kraxmal molekulasi kimyoviy sof modda emas, uning 96-97% ini amiloza va amilopektin kabi polisaxaridlar, qolgan qismini mineral moddalar(asosan, fosfat kislota ), yuqori yog' kislotalari(stearanat, palmitat va boshqalar) tashkil etadi. Kartoshka kraxmali tarkibida amiloz a polisaxaridi 19-22%ni, amilopektin esa 78-81%ni tashkil etadi. Bundan tashqari amilozaga nisbatan amilopektin yuqori molekulali polimerdir. Agar amilozaning molekulyar massasi  $2 \cdot 10^4 - 2 \cdot 10^5$  atrofida bo'lsa, ya'ni million u.b. atrofida bo'lsa, amilopektinning mol massasi  $1 \cdot 10^5 - 10^6$ , ya'ni uuz million u.b. atrofida bo'ladi. Agar har ikkala polisaxarid ham gidrolizlansa D - gluukoza molekulalari ajralib chiqadi. Amiloza suvda eriydi va uod ta'sirida to'q ko'k rang hosil qiladi, amilopektin esa suvda erimaudi, yod ta'sirida binafsha rang hosil qiladi. Kraxmal kleusterining yopishqoqligi amilopektin hususiyatidan kelib chiqadi.


## 6.1- rasm. Kraxmalning tuzilishi



Agar amiloza polisaxaridi amilaza fermenti ta'sirida gidrolizlansa, disaxaridlardan maltoza hosil bo'ladi:




Disaxarid maltozaning tuzilishida  $1 \rightarrow 4$  bog'i bilan birikkan D-glyukoza bo'lganidan, polisaxarid amilozaning tuzilishini ham shunday izohlash mumkin:




Amiloza molekulasi, ko'pincha, 200-300 gluukoza birligidan tuzilgan. Shoxlanmagan uzun polimer zanjirdir.

Amilopektinning molekulasi ham D-glyukopiranoza qoldiqlaridan tashkil topgan, lekin uning polimer zanjiri shoxlangan ya'ni  $1 \rightarrow 4$  (1) bog'lardan tashqari  $1 \rightarrow 6$  (2) bog'lar ham mavjud:



Shunisi tavsliflikni, agar kraxmal kislota ishtirokida asta - sekin qizdirilsa, u gidrolizga uchraydi va molekulyar massalari bir-biridan farq qiladigan polisaxaridlarni dekstrinlar hosil bo'ladi:



Reaksiyaning o'tishini yod ta'sirida aniqlash mumkin. Kraxmal yod ta'sirida ko'k rangga bo'ualadi, gidroliz davom etishi bilan, aralashmaning ranggi dastlab binafsha, qizgish binafsha, qizil va nihoyat rangsizlanib qoladi, chunki glyukoza yod bilan rangli birikma hosil qilmaydi.

Kraxmal oziq-ovqat sanoatida, spirt, kley ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

6.1-jadval

#### Turli mahsulotlar tarkibida kraxmal miqdori%

Mahsulot	kraxmal miqdori%	Mahsulot	kraxmal miqdori%
Kartoshka	15–23	Yashil no'xat	5–8
makkajo'xori	58–82	Yetuk no'xat	20–48
bug'doy	48–70	Olma	0,2 < 0,1
arpa	43–68	Pomidor	


Glikogen yoki hayvon kraxmali ham  $(S_6N_{10}O_5)_n$  tarkibli murakkab polisaxariddir. U odam va hayvonlarda eng muhim vazifa - karbonsuvlar zaxirasini tashkil etadi. Auniska, u jiga 10% gacha, mushaklarda - 45 gacha jamg'ariladi.

Tuzilishi jihatidan glikogen tarmoqlangan polimerdir, u D - glikopiranozalardan, uzun zanjirlarda 1  $\rightarrow$  4, tarmoqlangan zanjirlarda 1  $\rightarrow$  6-bog'lar bilan birikkan. Har bir 1  $\rightarrow$  6-bog'lanishlarga D - gluukopiranozanining 8-12 ta qoldig'i birikkan bo'ladi. Uning molekulyar massasi  $3 \cdot 10^5$  dan  $1 \cdot 10^8$  gacha. Kislotali gidrolizida a - glyukoza, a - maltoza va a - izomaltoza ajraladi. Jigardagi glikogen miqdori ovqatlanishga, fiziologik holatga qarab keskin o'zgarib turadi. Erkin ajratib olish va xossalalarini o'rganish uchun, uni hayvonlarning jigaridan o'uuvchi ishqor( NaOH )ning ta'sirida gidrolizlab, spirt bilan cho'ktirilib olinadi. Kletchatka o'simliklar dunuosida keng tarqalgan polisaxariddir. Uning hisobiga biosferadagi organik

birikmalarning 50% i to'g'ri keladi. O'simliklarning yog'ochchili 50%, paxta - 100% kletchatkadan iborat.

Molekulasing tuzilishi bo'yicha, huddi glikogendagiga o'xshab, 1-->4- bog'lardan D- gluukopiranozaning ketma-ket birikishidan hosil bo'lgan, bu uzun zanjirlar bir-biriga nisbatan yonma-yon(paralel) joylashgan bo'lib, ular o'rtasida vodorod bog'lari yotadi. U suvda erimaydi, biroq misning ammiakli tuzlarida yaxshi eriydi. Uning mol massasi taxminan  $2 \cdot 10^3$  -  $2 \cdot 10^6$  atrofida. Uning molekulasida vodorod bog'lari bilan hosil bo'lgan ipchalar ya'ni mikrofibrillalar lignin, gemiselluloza, pektin kabi moddalar bilan hamkorlikda o'simlik hujayrasining devorini tuzadilar, bu tuzilma ko'p qavatlidir. Shuning uchun o'simlik hujayralarining devori mustahkam bo'ladi, bu mustahkamlik o'simlik yog'ochchilining mustahkamligini ham ta'minlaydi.

Kletchatka muhim amaliu ahamiyatga ega, u paxta - qog'oz to'qimalarni, qog'oz, sun'iy ipak, himoyalovchi moddalarni ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi




Sellyuloza (frans. cellulose, lot. cellula — hujayra) - angidro-Bglyukozalarning elementar zvenolaridan tuzilgan polisaxarid: ( $C_6H_{10}O_5$ ) $n$ ; poli-1,4 p-D-glyukopiranozil- D-glyukopironozadan iborat. Sellyuloza makromolekulalarida angidroglyukoza zvenolari bilan bir qatorda boshqa monosaxarid hamda uron kislota bo'lishi mumkin. Sellyuloza, asosan, ba'zi o'simlik urug'lari tukida, mas, chigit tukida (97—98%), yog'ochda (40—50%, quruq modda hisobida), kanop poya tolasi, o'simlik qobig'ining ichki qatlami (mas, zig'ir, ramida 80—90%, jutda 75% va h.k.), bir yillik o'simlik poyalari (qamish, makkajo'xori, boshoqli o'simlik, kungaboqar)da 30—40% bo'ladi, Kartoshka tugunagida 20%. Toza holdagi Sellyuloza ta'msiz, tolasimon oq modda. Sellyuloza tabiiy materiallardan S. bo'limgan komponentlarni parchalovchi yoki erituvchi reagentlar ta'sir ettirib ajratib olinadi. Sellyulozani ajratib olish usuli o'simlik materialining tarkibi va tuzilishiga bog'liq. Paxta tolasidan Sellyulozani olishda yumshoq usul qo'llanadi. Paxta tolasi o'yuvchi natriy ( $NaOH$ )ning

1,5—3% li eritmasi bilan 3—10 atm. bosimda 3-6 soat qaynatilib, oksidlovchilar bilan oqartiriladi. Mol. m. kichik bo‘lgan polisaxaridlar (pentozanlar, geksozanlar, uron kislota), yog‘ va mum eritmaga o‘tadi. Sellyulozani yog‘ochdan ajratib olishda (yog‘ochda 40—50% S., 5—10% geksozanlar, 10—20% pentozanlar, 20—30% lignin, 2—5% smola va boshqa aralashmalar bo‘lib, ular murakkab morfologik tuzilishga ega bo‘lganligi uchun) murakkab ishlov berish usuli yog‘och tarashalarini sulfitli yoki sulfatli qaynatish usuli qo‘llanadi. Sulfitli qaynatish usuli yuqori sifatli qog‘oz va karton tayyorlashda, sulfatli qaynatish usuli esa buklamali (gofrirli) karton, qop qog‘ozi tayyorlashda qo‘llanadi.


Sellyuloza oq rangli tolali material, zichligi 1,52—1,54 g/sm<sup>3</sup> (20°da). Kimyoviy tabiatiga ko‘ra, Sellyuloza ko‘p atomli spirtdir. Makromolekula elementar zvenosida gidroksil guruhi bo‘lganligidan S. ishqoriy metallar va asoslar bilan reaksiyaga kirishadi. S.ga konsentrangan ishqor eritmasi ta’sir ettirilganda kimyoviy reaksiyalar bilan bir qatorda fizik-kimyoviy jarayonlar ham kechadi, ya’ni Sellyuloza bo‘kadi. Sellyulozaning konsentrangan NaOH eritmasi bilan reaksiyaga kirishishidan to‘qimachilik sanoatida sun’iy tolalar va oddiy Sellyuloza efirlari i.ch.da foydalaniladi. Yangi qimmatli texnik xossalarga ega bo‘lgan Sellyuloza materiallari olishda tikilgan sopolimerlar sintezining amaliy ahamiyati muhim. Mas, polielektrolitlar (poliakril kislota, polimetil vinilpiridin) bilan tikilgan Sellyuloza sopolimerlardan ion almashingan to‘qimalar, tolalar va plyonkalar sifatida foydalanish mumkin. Sellyuloza makromolekulasining oddiy zvenosida gidroksil guruh borligi uchun ulardan oddiy va murakkab efirlar olish mumkin. Bu birikmalar qimmatli xossalarga ega bo‘lganligidan, turli texnika sohalarida tolalar, plyonkalar, lok va elektr izolyatsiya, neft va to‘qimachilik sanoatida suspenziya stalibizatorlari hamda quyultirgichlari sifatida qo‘llaniladi. Xitin ham tabiatda keng tarqalgan, tuzilma hususiyatli, polisaxariddir. U hashoratlar va qisqichbakasimonlarning qattiq po’stining asosiu qismini tashkil etadi. Uning tuzilishi kletchatkaning tuzilishiga o‘xshaudi, biroq uning molekulasi tarkibida kletchatkadagi gluukoza qoldig‘i o‘rniga N - asetil -b - gluukozamin keladi. Xitin erkin holda uchramaydi, faqat u oqsillar, anorganik tuzlar bilan birikkan holda uchraydi. Anorganik tuzlardan uning tarkibida karbonat(  $\text{CaSO}_3$  va boshqalar)lar lipidlar, pigmentlar bilan birikkan holda uchraydi.

Molekulasi 1 → 4 glikozid bog'lari bilan birikkan N - asetilgluukozaminlardan hosil bo'lgan deb qaraladi. Xitin tayanch, himoya va mexanik vazifalarni bajaradi. U chumoli kislotada yaxshi eriydi.

Xitin strukturasi



Eng muhim geterpolisaxaridlarning, vakillari bo'lib gialuronat kislotasi, xondrontinsulfat kislotasi misol bo'laoladi. Gialuronat kislotasi ko'zning shishasimon moddasida, paularda, bakteriualarning kapsulalarida ko'p uchraydi. Molekulasi tarkibida N - asetil - D - gluukozamin va D - gluukuronat kislota qoldiqlaridan tashkil topib, ular 1:1 nisbatda 1 → 3 va 1 → 4 - glikozid bog'lar orqali birikkan bo'ladi. Uning mol massasi  $1.10^5$  -  $1.10^6$  atrofida. Pektin moddalari, pektinlar (yun. pektos — birikkan, qovushgan, muzlagan) — barcha quruqlik o'simliklari va bir qator suvo'tlar tarkibidagi eriydigan (eriydigan pektin) va erimaydigan (protepektin) yuqori molekulali polisaharidlar. Pektin moddalari mevalar va rezavor-mevalar, kanop poyasi, qand lavlagi tarkibida ayniqsa ko'p bo'ladi. Kimyoviy tabiatiga ko'ra tarmoqlanmagan poligalakturanidlar — galakturan kislota polimerlaridan iborat. Pektin moddalarining tarkibiga neytral monosaharidlar — galaktoza, ramnoza, arabino-za, ksiloza ham kiradi. Pektin moddalari 4 guruhga: pektokislotalar, pektin kislotalar, pektinlar va propektinlarga bo'linadi. Shulardan pektinlarning ahamiyati muhim. Pektinlar sitrus mevalari, olma va tarvuzdan olinadi. Pektin moddalari oziq-ovqat sanoatida jem, jele, meva konservantlari va boshqa tayyorlashda ishlataladi.



**6.2-jadval**

**Pektinning oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi miqdori.**

Mahsulot	Pektin miqdori	Mahsulot	Pektin miqdori
<b>Olma</b>	<b>7,6</b>	<b>Karam</b>	<b>5,2–7,5</b>
<b>Nok</b>	<b>4,2</b>	<b>Kartoshka</b>	<b>0,58</b>
<b>Olxo'ri</b>	<b>2,4–9,0</b>	<b>Pomidor</b>	<b>2,0–2,5</b>
<b>Shaftoli</b>	<b>0,12–1,8</b>	<b>Sabzi</b>	<b>8,0</b>
<b>Apelsin</b>	<b>12</b>	<b>Bodring</b>	<b>7,8</b>
<b>Qulupnay</b>	<b>6,7–7,7</b>	<b>Tarvuz</b>	<b>0,85–4,16</b>
<b>Qora smorodina</b>	<b>5,9–10,6</b>	<b>Qovun</b>	<b>1,7–5,0</b>
<b>Qizil smorodina</b>	<b>5,5–12,6</b>	<b>Qovoq</b>	<b>7,0–17,0</b>

### O'Z BILIMINI TEKSHIRISH UCHUN SAVOLLAR:

1. Qanday moddalar karbonsuvlardir, ularning tabiiymanba'larini birma - bir sanab ko'rsating.
2. Monosaxaridlarning eng muhim vakillari Biokimiyoviy jihatdan qanday tavsiflanadi?
3. Glikozid bog'i qanday hosil bo'ladi?
4. Trisaxaridlarda nechta glikozid bog' mayjud?
5. Amiloza, amilopektin polisaxaridlari kauerda uchraydi?
6. Kraxmal, glikogen kabi murakkab karbonsuvlar hazmlanganida qanday moddalargacha parchalanadi?
7. Geteropolisaxaridlар, gomopolisaxaridlardan farq qiladimi?

## V BOB. LIPIDLAR

### 5.1. Osimlik tarkbidagi lipidlar

**O'simlik moylari** — moyli xom -ashyolardan ajratib olinadigan mahsulot, o'simlik yog'larini "moylar" deb ataladi. Moylar, asosan, yuqori molekulali yog' kislotalarining uch atomli spirtlar (glitserin) bilan hosil qilgan murakkab efirlari — triglitseridlardan (95—97%) tashkil topgan. Triglitseridlар — rangsiz, hidsiz va ta'msiz moddalar. O'simlik moylari tarkibiga oz miqdorda fosfolipidlar, karotinoidlar, mumlar, vitaminlar, erkin yog' kislotalari ham kiradi. O'simlik moylarining hidi, ta'mi, rangti ana shu moddalarga bog'liq. O'simlik moylariga bodom, yer yong'oq, zig'ir, zaytun, indov (raps), kanakunjut, kakao, kashnich, kanop, kedr, kokos, kunjut, ko'knor, kungaboqar, lavr, makkajo'xori, masxar, nasha, olcha, olxo'ri, palma, pomidor, g'o'za, pista, soya, to'ng, tarvuz, tamaki, uzum, o'rik, sholi, shaftoli, xantal (gorchitsa), qovun, qoraqayin, qovoq va boshqalar o'simliklar moylari kiradi. Moylar o'simliklarning hamma qismida uchraydi, lekin vegetativ organlarda meva va urug'larga nisbatan birmuncha kam bo'ladi.

### 5.1-jadval

O'simliklar urug'i tarkbidagi moy miqdori .

O'simliklar	Moy miqdori, %
Yer yong'oq	40,260
Kanakunjut	45,158
Kunjut	46,261
Zig'ir	36,849
Yong'oq	60,074
Indov	38,049
Chigit	17,228
Kungaboqar	23,545
Soya	14,025
Masxar	25,037

O'simlik moylarining xossasi, asosan, glitserin bilan efir bog'larini hosil qiluvchi yog' kislotalar tabiatiga ko'ra aniqlanadi. Moylar tarkibida uchraydigan yog' kislotalar to'yingan va to'yinmagan bo'ladi. Odatda, to'yinmagan yog' kislotalar bir, ikki va uch qo'shbog'li, bir asosli, shoxlanmagan va juft sonli karbon atomlariga

(ko‘pincha C|6va C|8) ega bo‘lgan yog‘ kislotalardan iborat. Bundan tashqari, O‘simlik moylarida oz miqdorda toq sonli karbon atomga ega (C]5dan C23gacha) bo‘lgan yog‘ kislotalar ham uchraydi. O‘simlik moylarining quyuqligi va qotish darajasi ulardagi to‘yinmagan yog‘ kislotalar miqdoriga bog‘liq. To‘yinmagan yog‘ kislotalar ko‘p bo‘lmagan O‘simlik moylari suyuq, qotish temperaturasi 0° dan past. Palma moyi qattiq O‘simlik moylariga misol bo‘ladi. O‘simlik moylarining fizik va kimyoviy xossalari ularning yod, kislota va sovunlanish sonlari bilan ifodalanadi. Yod soni moy tarkibidagi yog‘ kislotalarining to‘yinmaslik darajasini belgilaydi. Yod soni qancha katta bo‘lsa, moy shuncha suyuq bo‘ladi. Odatda, suyuq moylarni oziq sifatida iste’mol qilib bo‘lmaydi; ulardan turli bo‘yoqlar, lok, alifmoy tayyorlashda va boshqalar texnik maqsadlarda foydalaniladi. Ko‘pgina O‘simlik moylari havoda oksidlanib, yupqa parda hosil qiladi (“quriydi”). Yod soni 85 dan kichik bo‘lgan moylar qurimaydigan, 130 dan yuqori bo‘lgan moylar yaxshi quriydigan moylar hisoblanadi. Kislota soni moylar tarkibidagi erkin yog‘ kislotalari miqdorini ifodalaydi. Bu son yog‘ning sifatini belgilaydi. Odatda, O‘simlik moylari tarkibida juda oz erkin yog‘ kislotalar uchraydi, binobarin ularning kislota soni ham kichik bo‘ladi. Uzoq muddat saqlangan yoki xom urug‘lardan tayyorlangan moylarda erkin yog‘ kislotalar miqdori yuqori, ularning kislota soni ham katta bo‘ladi. O‘simlik moylari uzoq muddat saqlanganida namlik, havo, yorug‘lik va boshqalar ta’sirida hosil bo‘ladigan aldegidlar, ketonlar va ba’zi bir yog‘ kislotalari ularga qo‘lansa hid va taxir ta’m beradi. To‘yinmagan yog‘ kislotalardagi qo‘sbg‘larga vodorod atomini biriktirish yo‘li bilan suyuq O‘simlik moylari qattiq moylarga aylantiriladi .Bunday reaksiyalardan margarin tayyorlashda foydalaniladi.

O‘simlik moylarining biologik qiymati ular tarkibida ko‘p miqdora uchraydigan to‘yinmagan yog‘ kislotalari, fosfolipidlar va tokoferollar bilan aniqlanadi. Fosfolipidlar soya (3000 mg%), paxta (2500 mg%), kungaboqar (1400 mg%) moylarida, tokoferollar makkajo‘xori moyida (100 mg%) ko‘p bo‘ladi. Tokoferollarning vitaminlik qiymati ular miqdoriga emas, balki xiliga (mas, makkajo‘xori moyi vitaminlik qiymatining yuqori bo‘lishi uning tarkibidagi alfa tokoferolga) bog‘liq.

O‘simlik moylari, asosan, siqish (ezish) va ekstratsiya usulida ajratib olinadi. Har ikkala usulning dastlabki bosqichlari urug‘larni (chigit va pistani) tozalash va mag‘izni qobig‘idan ajratish (parchalash)dan iborat. So‘ngra mag‘iz maydalanyadi (yanchiladi).

Yanchilgan mag‘iz maxsus qozonlarda aralashtirilib, namlangan holda 100—110° da qizdiriladi. Hosil bo‘lgan yanchmani maxsus presslarda siqish (ezish) orqali moy ajratib olinadi. Ular tozalik darajasiga qarab, filtrlangan, rafinatsiya qilinmagan va rafinatsiya qilingan navlarga ajratiladi.

O‘zbekistonda foydalaniadigan O‘simlik moylarining 80% paxta moyiga, qolganlari esa soya, kungaboqar, masxar, kunjut va boshqalar o‘simliklar moyiga to‘g‘ri keladi. O‘simlik moylari muhim oziq-ovqat mahsuloti, ulardan konservalar, konditer mahsulotlari, margarin tayyorlashda foydalaniadigan. Texnikada O‘simlik moylarii sovun, alifmoy, lok, glitserin, yog‘ kislotalari va boshqalar mahsulotlar olishda ishlatiladi. Tibbiyot va farmakologiyada suyuq O‘simlik moylari (bodom, kanakunjut moyi) dan moy emulsiyalari tayyorlanadi. Ayrim O‘simlik moylari (zaytun, zig‘ir, bodom moyi) har xil surtmalar va linimentlar asosini tashkil etadi. Ko‘pchilik O‘simlik moylari kosmetik vositalar tarkibiga ham qo‘shiladi.

## 5.2. Lipidlar klassifikasiyasi

Lipidlar deb, kimuoviy jihatdan turli tarkibga ega bo‘lgan, umumiyhossalari bo‘uicha efir, aseton, xloroform, benzol kabi organik erituvchilarda eriudigan, murakkab moddalarga aytildi.

Lipid atamasi grekcha «Lipos - yog» so‘zidan olingan. Aksariyat holda lipidlar yuqori yog‘ kislotalarining gliserin bilan hosil qilgan murakkab efiri deb qaraladi. Aurim lipidlarning tarkibida, bu moddalardan tashqari, azotli asoslar, fosfat kislotasi, karbonsuvlar ham uchraydi. Hayvon yoki o‘simlik lipidlarini ekstraksiya qilganda, yuqori yog‘ kislotalari bilan, xalqali spirtlar, yog‘da eriudigan vitamin qoldiqlari ham ajraladi, demak ular ham lipidlarning tarkibi qismini tashkil etadi.

Asil lipidlarni kimyoviy tuzilishiga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi uchta katta guruhga bo‘lish mumkin: 1) oddiy lipidlar; 2) murakkab lipidlar; 3) oksilipinlar (.1-rasm). Birinchi guruhga, yog‘ kislotalari bilan bir qatorda, karboksil guruhidan hosil bo‘lgan funktional guruhga ega bo‘lgan bitta uzun uglevodorod zanjiri bo‘lgan yoki karboksilni yo‘qotgan birikmalar kiradi.

Ikkinci guruh lipidlari gidroliz paytida , ko‘pincha murakkab efirlar yoki amid bog‘lari bilan o‘zaro bog‘langan bir nechta bloklardan tashkil topgan bo‘ishi mumkin . Bundan tashqari lipidlar tarkibida

oddiy efir bog'lari ham bo'lishi mumkin. Murakkab lipidlar ikkita kichik guruhga bo'linadi - neytral va qutbli lipidlar. Bunday guruhga ajratilishiga sabab, turli xil erituvchilarda eriydi. Neytral lipidlar efir va benzol kabi qutbsiz uglevodorod erituvchilarda oson eriydi, qutbli lipidlar esa etanol kabi qutbli erituvchilarda oson eriydi. Neytral lipidlar, o'z navbatida, triatsilgiserollar (triglitseridlar), mumlar, sterol efirlari, N-atsiletanolamidlar, keramidlarga bo'linadi. Polar lipidlar fosfolipidlar, glikolipidlar va 3-sinf qutbli lipidlarga bo'linadi.

### 5.2-jadval

Lipidlar				
Oddiy lipidlar	Murakkab lipidlar			Oksilipinlar
Yog 'kislotalari va ularning hosilalari (spirtlar aldegidlar)	Neytral lipidlar	Polyar lipidlar		Eykoza lipidlar
	Triglitserid lar, mumlar, sterol efirlari, N-etanol amidlar, seramidlar	Fosfolipidlar	Glikolipidlar	Polyar-lipidlar
		Glitserofosfolipidlar, sfingo-lipidlar, fosfatid kislotalar	Galaktosildigitseridlar, serebrozidlar, sulfolipidlar	

Uchinchi guruhning asil lipidlari - oksilipinlar birinchi va ikkinchi guruh lipidlari kabi hech qanday yog 'kislotalaridan hosil bo'lmaydi, faqat ba'zi polienlardan, birinchi navbatda, 20 uglerod atomini o'z

ichiga oladi. "Oksilipinlar" atamasi 1991 yilda shved va amerikalik olimlar tomonidan taklif qilingan..

Lipidlar muhim hayotiu jarayonlarning idora etilishida qatnashadi. Ular oqsillar bilan majmuiu birikmalar hosil qilib hujayra qobig'ini, organoidlarining tuzilmalarini hosil qilishlari bilan bioga moddalarni tashish, ajratish kabi vazifalarni boshqaradi.

Lipidlar o'simlik organizmining hayotida katta rol o'ynaydi. Yog 'kislotalari va triglitseridlar o'simliklarning zaxira moddalari hisoblanadi. Ko'pgina yog' kislotalari hosilalari bakteritsid va fungitsid xususiyatlarga ega va shuning uchun himoya funktsiyasiga ega. Ulardan ba'zilari o'simliklarning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mumlar, fosfolipidlar va glikolipidlar strukturaviy vazifani bajaradi. Mumlar epidermis hujayralarini, fosfo- va glikolipidlarni, membranalarning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Fotosintez jarayonida glikolipidlar katta rol o'ynaydi.

Lipidlar energiya(bioquvvat) manbai bo'lib ham hisoblanadilar. Aniqlanishicha, lipidlardan bo'lgan yog'larning oksidlanishidan 1 g dan 9,3 kkal yoki 39 kDj, karbonsuvlarga nisbatan 2 barobar ko'p miqdorda, bioquvvat hosil bo'lishi hisoblangan. Lipidlar zaxira modda vazifasini ham bajaradilar, dumba yog'i shular jumlasidandir. Hatto, ular issiqlikni saqlovchi va shu bilan himoyalovchi vazifalarini ham bajaradi. Ayniqsa, lipidlar glikolipidlar holida asab tizimi to'qimalarining muhim tarkibiu qismi bo'lib, asab tizimi faoliyatini uuzaga chiqarishda faol qatnashadi.

Barcha lipidlarni tarkibi va biokimyoiyi tavsiiflariga ko'ra oddiy va murakkab lipidlarga bo'lib o'rjanadilar.

**O d d i u l i p i d l a r** yuqori yog' kislotalarining spirtlar bilan hosil qilgan murakkab efirlaridir. O'z navbatida ular yog'larga, mumlarga va steridlarga bo'linadi.

**M u r a k k a b l i p i d l a r** ko'p tarkibli birikmalar bo'lib, yog' kislotalari va spirtlardan tashqari, azotli asoslar, fosfat kislota kabi moddalar molekulasiini hosil qilishda qatnashadi. Tarkibiga ko'ra, fosfolipidlar, glikolipidlar, sfingolipidlar, diolipidlar holida uchraydi.



Lipid tarkibining asosiu qismini yog' kislotalari tashkil etadi. Ularning gidrolizatidan uglerod atomi C<sub>4</sub> dan C<sub>26</sub> gacha bo'lgan to'yingan, to'yinmagan, ochiq va tarmoqlangan zanjirli hamda xalqali organik kislotalarning borligi aniqlangan, ularning muhim vakillari:

**T o' y i n g a n   y o g'   k i s l o t a l a r i d a :**

Mo kislota	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>2</sub> - COOH	(C <sub>4</sub> H <sub>8</sub> O <sub>2</sub> )
IzovaleriaNat	- CH <sub>3</sub> - CH(CH <sub>3</sub> ) - CH <sub>2</sub> - SOOH	(C <sub>5</sub> H <sub>10</sub> O <sub>2</sub> )
Kapronat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>4</sub> - COOH	(C <sub>6</sub> H <sub>12</sub> O <sub>2</sub> )
Kaprilit	- CH <sub>33</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>6</sub> - COOH	(C <sub>8</sub> H <sub>16</sub> O <sub>2</sub> )
Kaprinat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>8</sub> - COOH	(C <sub>10</sub> H <sub>20</sub> O <sub>2</sub> )
Laurinat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>10</sub> - COOH	(C <sub>12</sub> H <sub>24</sub> O <sub>2</sub> )
Miristinat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>12</sub> - COOH	(C <sub>14</sub> H <sub>28</sub> O <sub>2</sub> )
Palmitat	- CH <sub>33</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>14</sub> - COOH	(C <sub>16</sub> H <sub>32</sub> O <sub>2</sub> )
Stearinat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>16</sub> - COOH	(C <sub>18</sub> H <sub>36</sub> O <sub>2</sub> )
Araxinat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>18</sub> - COOH	(C <sub>20</sub> H <sub>40</sub> O <sub>2</sub> )
Beginat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>20</sub> - COOH	(C <sub>22</sub> H <sub>44</sub> O <sub>2</sub> )
Lignoserat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>22</sub> - COOH	(C <sub>24</sub> H <sub>48</sub> O <sub>2</sub> )

**T o' y i n m a g a n   y o g'   k i s l o t a l a r i   d a n:**

Palmiotoleinat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>5</sub> - CH <sub>4</sub> CH - (CH <sub>2</sub> ) <sub>7</sub> - COOH
Oleinat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>7</sub> - CH <sub>4</sub> CH - (CH <sub>2</sub> ) <sub>7</sub> - COOH
Linolat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> - CH <sub>4</sub> CH) <sub>2</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>7</sub> - COOH
Linolenat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> - CH <sub>4</sub> CH) <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>7</sub> - COOH
Araxidonat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>4</sub> - (CH <sub>4</sub> CH - CH <sub>2</sub> ) <sub>4</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>3</sub> - COOH
Nervonat	- CH <sub>3</sub> - (CH <sub>2</sub> ) <sub>7</sub> - CH <sub>4</sub> CH - (CH <sub>2</sub> ) <sub>13</sub> - COOH

**Halqa li   y o g'   k i S s l o t a l a r i   ga:****O k s i k i s l o t a l a r d a n:**

Ko'rsatilgan yog' kislotalaridan, tabiiy yog'lar tarkibida, eng ko'p tarqalgalari oleinat, palmitat va stearat yog' kislotalaridir. Ulardan oleinat 30% gacha, palmitat 15% dan 50% gacha, stearat esa 25% gacha uchraydi. Hayvon yog'larida ko'proq to'yingan yog' kislotalari

uchraydi, ular qattiq yog'lardir. O'simlik yog'larida esa to'yinmagan yog' kislotalari ko'proq uchraydi, ular suyuq yog'lar yoki moylardir. Misollar bilan izohlasak, dumba va charvi yog'lari tarkibida 25% gacha stearat kislotosi uchrasa, o'simlik moylarida 90% gacha to'yinmagan yog' kislotalari, ayniqsa, oleinat ko'proq miqdorlarda uchraydi.


To'yinmagan yog' kislotalardan linolat, linolenat va lipoat kislotalari odam va hayvon organizmida sintezlanmaudi, faqat oziq moddalar bilan tushib turishi kerak. Shuning uchun ularni almashinmaudigan yog' kislotalari deb ataydilar.

### Yog'lar.

Tabiatda yog'lar keng tarqalgan bo'lib odam, hayvon, o'simlik va mikroorganizmlarning hatto viruslar tanasida ham uchraydi. Ularning miqdori ayrim jonzotlarda, to'qima va ichki a'zolarda 90% gacha uetadi. Fanda 600 dan ortiq yog' xillarining o'r ganilganligi ma'lum, ulardan 420 xili o'simliklarda, 80 xili quruqlikda yashovchilarda va 100 dan oshig'i - suvda yashovchilarda uchraydi.

Kimuoviy tarkibi jihatidan yog'larni yog' kislotalari bilan uch atomli spirt - gliserinning murakkab efiri deb karaladi, uni triglyceridlar ham deb atashadi.

Yog'larning kimuoviy formulasi quyidagicha ifodalanadi:






R-COOH - ёғ кислотаси,

R<sub>1</sub>, R<sub>2</sub>, R<sub>3</sub> - ёғ кислота-  
ла ри нинг углеводород радикали




Yog'lar(triglycerid)lar, tarkibiga ko'ra, oddiy gliseridlarga va aralash triglyceridlarga bo'linadi. Agar oddiy gliseridlar bir xil yog' kislotalaridan tarkib topgan bo'lsa, aralash triglyceridlar tarkibida har xil yog' kislotalarining qoldiqlari uchrashi mumkin, masalan:

Oddiy triglyceridlar:




Aralash trigliseridlar:




Yog'larning tarkibi har xil bo'lgani uchun rangi, mazasi ham har xil bo'ladi. Qo'y yog'inining rangi oq, mol yog'iniki sarg'ish yoki oqish bo'ladi, u ovqatlanish sifatiga ham bog'liqdir.

Yog'larning eng muhim kimuoviy xossalari bo'lib, ularning sovunlanish reausiuasi hisoblanadi, masalan:



Agar reaksiya uchun NaOH o'mniga KOH olinsa, kattik sovun emas, balki suyuq sovun hosil bo'ladi.

Kimuoviy hossalari jihatidan molekulasi tarkibida to'yinmagan yog' kislotalari bo'lgan yog'lar, osonlik bilan to'yinish reaksiyalariga kira oladilar. Bunday reaksiyalarning eng muhimi gidrogenlanish va yodlanish reaksiyalaridir:



Gidrogenlanish reaksiyasidan foydalanib suyuq yog'larni qattiq yog'larga aylantirish mumkin, masalan, margarin ana shu usul bilan tayyorланади. Uod bilan birikish reaksiyasidan foydalanib, yod soni ko'rsatgichi bilan, ya'ni 100 g yog'ni biriktirib oladigan yodning hisobidagi miqdori bilan, tekshirilayotgan yog'li aralashmalardagi to'yinmagan yog' kislotasining miqdorini aniqlash mumkin. Huddi shunday yog'larni biokimyoiy tavsiflashda sovunlanish soni, kislotali soni, Reuxert-Meussel soni kabi ko'rsatkichlari (konstantanalari) ham muhim ahamiuatga ega. Sovunlanish soni 1 g yog' tarkibidagi kislotalarni neutrallash uchun sarflangan KOH miqdori bilan aniqlansa,

kislota soni - 5 g trigliseridlar aralashmasidagi erkin yog' kislotalarni neutrallash uchun sarf bo'ladigan 0,1 n KOH ning ml soni bilan aniqlanadi. Reuxert-Meussil soni - 5 g trigliseridlar aralashmasidan olingan uchuvchan yog' kislotalarining neytrallanishi uchun sarflanauotgan 0,1 n KOH ning ml miqdori bilan aniqlanadi. Uzoq saqlangan yog'larning taxirlanish holatlari kuzatiladi. Bunda, yog' kislotalarining oksidlanishi xisobidan aldegidlar, spirtlar kabi oraliq moddalarning hosil bo'lishi hisobidan ko'lanka hid paudo bo'ladi. Uni oldini olish uchun askorbin kislotasi, gidroxinon, pirogallol, gluutation, tokoferrol kabi antioksidant moddalarni qo'shish tavsiya etiladi.

### **5.3.O'simlik lipidlari .**

Yog 'kislotalari o'simliklar olamida 200 dan ortiq turli yog' kislotalari aniqlangan. Ularning ko'pchiligi "noyob" deb ataladi, chunki ular faqat ma'lum o'simlik turlarida uchraydi. O'simlik tarkibida uchraydigan moylarning aksariyati atsil lipidlari hisoblanadi .Boshqa yog 'kislotalari ancha kam miqdorda uchraydi. Asosiy yog 'kislotalari to'yinganlik darajasiga ko'ra odatda uch guruhga bo'linadi:

- to'yingan: palmitik (16; 0), stearik (18; 0), araxid (20; 0); begenik (22; 0)
- monen (bitta qo'sh aloqaga ega): oleyk (18; 1/9);
- polien (bir nechta qo'sh aloqaga ega): linoleik (18; 2/9,12), linolenik (18; 3/9, 12, 15).

Qavslar ichidagi birinchi raqam yog 'kislotasi molekulasidegi uglerod atomlarining sonini, ikkinchisi - qo'sh bog'lar sonini, kasr orqali qo'sh bog'lanishga ega bo'lgan uglerod atomining (karboksildan boshlab) seriya raqamini ko'rsatadi. Muhim yog 'kislotalari odatda o'simliklarning barcha qismlarining lipidlarida mavjud. Ko'pgina o'simlik moylarning (kungaboqar, soya, makkajo'xori, paxta) asosiy yog' kislotasi linolelen kislotalaridir ,uning miqdori ularning umumiy miqdorining 50-70% ni tashkil qiladi.Zig'ir moyi tarkibida eng ko'p linolen kislota mavjud. Xloroplast lipidlari ayniqsa a-linolen kislotaga boy. Oleyen kislota eng ko'p zaytun moyida uchraydi. Boshqa yog'larda u 5 dan 40% gacha bo'lishi mumkin . Palma yog'i tarkibida palmin kislotaga eng boy (deyarli 50%). Yog'lardagi stearin kislotaning miqdori odatda 10% dan oshmaydi. Qo'y yog'i bundan mustasno bo'lib, unda 30% dan ortiq. O'simlik moylari odatda to'yinmaganlarga

qaraganda kamroq to'yingan yog' kislotalarini o'z ichiga oladi, shuning uchun ular ko'p hollarda xona haroratida suyuq bo'ladi.

### 5.3- jadval

O'simlik moylaridagi muhim yog' kislotalarining miqdori (%) hisobida

**Alfa-ketoglutar kislotasi** HOOC-CO-C<sub>2</sub>H<sub>4</sub>-COOH di-karboksilik a-keto kislotadir. Ko'pgina o'simliklar tarkibida a-ketoglutar kislotasi va uning bir qator hosilalari, masalan, metilen-, gidroksi-a-ketoglutar kislotasi mavjud. Suksin kislotasi singari, u Krebs siklida muhim oraliq mahsulot bo'lib, u izotsitrik kislotaning oksidlovchi dekarboksillanishi natijasida hosil bo'ladi. Glutamin kislotaning transaminatsiya va dezaminlanish reaksiyalari ham uning sinteziga olib keladi. A-ketoglutar kislotaning tuzlari - keto-lutaratlar - azot almashinuvini yog'lar va uglevodlarning o'zgarishi bilan bog'laydigan oraliq mahsulotlar. Tugunak bakteriyalarida ammiak glutamin kislota hosil bo'lishi bilan a-ketoglutar kislotaga aylanishi mumkin.

Olma kislota HOOC-CH<sub>2</sub>-CH(OH)-COOH dikarboksilik kislota bo'lib, o'simliklarda juda keng tarqalgan. Unga olma daraxtlarining mevalari (ayniqsa, pishmagan), olcha, olxo'ri, zirk ko'p bo'ladi. Pomidorlarning mevalari, don va dukkaklilarning urug'lari va barglarida oz miqdorda mavjud. Tamaki va nikotino'simliklarida u 6,5% gacha, agava va o'smirlarda - quruq moddalarda 8% gacha to'planadi. Olma kislota yoqimli ta'mga ega va inson tanasi uchun zararsizdir. U mevali suvlar va ba'zi qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Vino kislotasi HOOC-CH(OH)-CH(OH)-COOH asosan janubiy kenglikdagi o'simliklarda uchraydi. Muhim miqdor uzumda uchraydi. Uzum vinolarini ishlab chiqarish va qarish jarayonida vino kislotaning kislotali kaliy tuzi bo'lgan vino shaklida katta miqdordagi chiqindilar olinadi. Vino kislotaning asosiy manbai hisoblanadi. Vino va vino mevali suvlar ishlab chiqarishda, xamir uchun kimyoviy xamirturush tayyorlashda, to'qimachilik sanoatida bo'yoq ishlab chiqarishda va tibbiyotda keng qo'llaniladi.

**Limon kislotasi** HOOC-CH<sub>2</sub>-(COOH)C(OH)-CH<sub>2</sub>-COOH o'simliklarda keng tarqalgan trikarboksilik kislotadir. U maxorka barglariga (3-14%), sitrus mevalariga (9% gacha) boy. Shu bilan birga, janubiy kenglikdagi o'simliklarda limon kislotasining miqdori shimoliy kengliklarga qaraganda yuqori. Mevalarda - smorodina, qulupnay, malinada ko'p. Limon kislotasi olma kislotasidan ustun turadi. U trikarboksilik kislota va glikoksilat siklida atsetil koenzim A va oksaloatsetatning kondensatsiyasi natijasida hosil bo'lgan tuzlar - sitratlar shaklida metabolizmda ishtirok etadi. Limon kislotasini sanoat miqyosida ma'lum mog'orlarni - Aspergillus va Penicilliumni saxaroza eritmalarida yetishtirish orqali olish mumkin. Shu tarzda olingan limon kislotasi oziq-ovqat sanoatida va qon quyishda konservant sifatida ishlatiladi.

## NAZORAR UCHUN SAVOLLAR.

1. Oksalat kislotasining o'ziga xos xususiyati.
2. Organik kislotalarning biologik roli
3. Uchkarbon kislota sikli

## VIII BOB. VITAMINLAR

### 8.1. Vitaminlar

Vitaminlar haqidagi ta'limot-vitaminologiya-hozirgi vaqtida mustaqil fan tarmog'idir. Vaholanki, bundan 100 yil oldin organizmning normal hayot kechirishi uchun oqsil, uglevod, yog'lar, mineral moddalar va suvning qabul qilinishini yetarli deb hisoblaganlar. Lekin amaliyot va tajribalarning ko'rsatishicha organizmning normal rivojlanishi va o'sishi uchun bu moddalarning o'zi yetarli emas ekan. Ovqat tarkibida qandaydir moddalarning yetishmasligi bilan sodir bo'ladigan kasalliklar epidemik xarakterga ega bo'lgan. XIX asrda singa kasalligidan letal holatlar 70-80%ga uetgan. Ayni shu vaqtida «Beri-beri» kasalligi Janubi Sharqiy Osiyo va Yaponiya davlatlarida keng tarqaldi. Yaponianing 30%ga yaqin aholisi shu kasallikka chalingan. Yapon shifokori K.Takaki go'sht, sut va yangi sabzavotlarda «Beri-beri» kasalligining oldini oladigan modda bor, degan xulosaga kelgan. Keyinchalik golland shifokori K.Eukman Yava orolida ishlab, u yerning aholisi asosan tozalangan guruch bilan ovqatlangani, tovuqlarga ham tozalangan guruch berilganda odamlardagi kabi «Beri-beri» kasaliga o'xshagan turining rivojlanishini ko'rsatib bergen. K.Eukman tovuqlarni tozalanmagan guruch bilan boqishganda ularning sog'ayishini kuzatgan. Bu ma'lumotlar asosida guruch po'stlog'ida davolash xususiuatiga ega bo'lgan noma'lum modda bor degan xulosaga kelgan. Haqiqatdan ham, guruch po'stlog'idan tayyorlangan ekstrakt «Beri-beri» bilan og'rigan odamlarga shifo bergen. Bu kuzatuvlar, guruch po'stlog'ida odam organizmidagi normal hayotni ta'minlaudigan moddalar borligini isbotlab berdi.

Vitaminlar haqidagi ta'limotning rivojlanishi N.Lunin nomi bilan ham bog'liqdir. U ovqat iste'mol qilish fanida yangi uo'nalishni ochdi. Olim ovqat tarkibida oqsil, uglevod, yog', tuz va suvdan tashqari hayot uchun zarur bo'lган almashtirib bo'lmaydigan qandaydir noma'lum moddalarning ham bo'lishi kerak, degan xulosaga kelgan. K.Funk birinchi bo'lib kristall holda ajratib olingan «Beri-beri» kasalligi rivojlanishining oldini olgan organik moddani topgan va o'z tarkibida aminoguruhlarni saqlagani uchun bu noma'lum moddalarni «Vitaminlar» deb atashni taklif etgan (lat.vita – hayot deganidir).

Darhaqiqat, vitaminlar ovqat iste'mol qilish fanida qo'shimcha shart bo'lgan omillaridan, ularning ko'pchiligi o'zining tarkibida aminoguruhini saqlamasa ham «vitaminlar» deb nomlanib biologiya va tibbiuotda mustahkam saqlanib qolgan.

Vitaminlar – iste'mol omillari bo'lib, juda oz miqdorda uchraydi va organizmdagi biokimyoviy, fiziologik jarayonlarning normal kechishida, butun modda almashinishing boshqarilishida qatnashadilar. Modda almashinuvining buzilishi ko'pincha organizmga vitaminlarning kam qabul qilinishi, ovqat tarkibida bo'lmasligi yoki ularning organizmda hazm bo'lishi buzilishi bilan bog'liqidir. Natijada avitaminoz holati rivojlanadi – ovqatda vitamining umuman bo'lmasligi yoki organizmga o'zlashtirilishining buzilishi sababli kasallik vujudga keladi. Osiuo, Afrika va Janubiu Amerika davlatlarining ayrim hududlarida aholi bir xil o'simlik tabiatiga ega bo'lgan ovqat mahsulotlarini iste'mol qilganda avitaminoz holatlari uchraydi.

Tibbiy adabiylarda organizmga vitaminlarning juda ko'p qabul qilinganida rivojlanadigan holatlar ham keltirilgan (gipervitaminozlar). Bu kasalliklar gipovitaminozlarga nisbatan kam uchraydi, lekin A, D, K va boshqa gipervitaminozlar bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtida aniqlanishicha, avitaminozda modda almashinuvining buzilishi va ferment sistemalarining faolligini buzilishi bilan bog'liqidir. Chunki ko'pchilik fermentlar joriy prostetik guruhlari tarkibiga kiradilar. Vitaminlarning fermentlar bilan bog'liqligini birinchi marotaba 1922-uilda akademik N.D.Zelinskiu ko'rsatib bergan. Uning fikricha vitaminlar modda almashinuvini bevosita boshqarmasdan, bilvosita tarkibiga kiradigan fermentlar orqali boshqaradilar. Bu holat hozirgi kunda o'z isbotinin topgan. Vitaminlar. O'simlik to'qimalarida hosil bo'lib, ular o'simlikning o'zi uchun alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki, ba'zi vitaminlarsiz o'simliklarning ildizlari, urug'larning unib chiqishi normal kechmaydi. O'simliklarda ham vitaminlar katalitik funktsiyani bajaradi. Ulardan ba'zilari o'simlik organizmining muhim biologik jarayonlarining ishlashida faol ishtirok etadilar. Fotosintez jarayoni filoxinon (K1 vitamini), karotinoidlar ishtirokisiz amalga oshmaydi. Askorbin kislotasi, karotenoidlar va tokoferollar kabi o'simlik hujayralarini antioksidant himoya qilish vazifasini bajaradi

## 8.2. Vitaminlar tasnifi

Vitaminlar bosh harflar bilan, ovqat tarkibida vitamining yetishmasligi natijasida vujudga keladigan kasallikning nomi yoki kimuoviy belgilar bilan nomlanadilar. Vitaminlarning zamonaviy tasnifi tugallanmagan: u fizik-kimuoviy xususiuatlari (xususan eruvchanligi), kimuoviy tabiatini va harf bilan belgilanishiga asoslangan. Eruvchanligiga qarab yog'da va suvda eruvchan vitaminlar tafovut etiladi.

Yog'da eruvchan vitaminlar:

1. Vitamin A, yantikseroftalmik retinol.
2. Vitamin D, antiraxitik kalsiferol.
3. Vitamin E, antisteril, ko'paish vitaminini, tokoferollar.
4. Vitamin K, antigemorragik, naftaxinon.


Suvda eruvchan vitaminlar:

## 8.3. Yog'da eriydigan vitaminlar


### 8.3.1. A guruhini vitaminlari

A vitaminini o'rganish 1909-yilda boshlangan. Uning sintezi birinchi marta 1933-yilda amalga oshirilgan va hosil bo'lgan birikma retinol deb nomlangan. A vitaminini bir nechta vitaminlar shaklida mavjud. Ulardan A1 eng keng tarqalgan.


A vitaminini 3 shaklda mavjud: retinol, retinal, retinoil kislota



**Retinol**



**Retinal**



**Retinoil kislota**

Karotinlar o'simliklarda keng tarqalgan, karotinoidlar bilan bog'liq bo'lган izoprenoid tabiatli birikmalardir. Ulardan faqat ba'zilari A-vitamin faolligini ko'rsatishi mumkin. Hayvonlar organizmida karotinaza fermenti ta'sirida karotinlardan A vitamini hosil bo'ladi. O'simliklarning a-, b- va g-karotinlaridan hayvonlar va odamlar uchun eng qimmatlisi b-karotindir. Uning bir molekulasidan A1 vitaminining ikkita molekulasi hosil bo'lishi mumkin. Hozirgi vaqtida o'simlik organizmida karotin molekulalarini bo'lmasligi ma'lum miqdorda A vitamini hosil bo'lishiga olib keladi ,deb taxmin qilinadi.

A guruhi vitaminlari, karotinoidlar kabi, lipofil erituvchilarda oson eriydi. Hayvonlarda A vitamini jigarda saqlanadi. 7.1-jadvalda A vitamini bo'lган ba'zi oziq-ovqatlar ko'rsatilgan (o'simlik oziq-ovqatlari uchun vitamin tarkibi karotinlar konsentratsiyasiga qarab qayta hisoblashda berilgan).

### 10.1-jadval

#### Ba'zi oziq-ovqatlardagi A vitamini tarkibi

Mahsulot	Mg/g
Sariyog'	12
O'rik, pomidor	20
Salat va ismaloq	25-50
Sabzi	90
Baliq ikrasi	300/60 000

O'simlikdagi karotinning miqdori barglarda eng yuqori. Xlorofill bilan birgalikda sintezlanadi va hujayralar ichida yog'da eriydigan holatda yoki xromoplastlar va xloroplastlarning lipid-oqsil komplekslarida bo'ladi.Hayvonlar va odamlarda A vitamini teri, og'iz shilliq pardalari, ichaklar, nafas olish yo'llari va normal epiteliy to'qimalarni faoliyatida muhim ahamiatga ega.A vitamini sperma va tuxumlarning voyaga etishi uchun ham zarur. Bu funksiya o'simliklarning ham gulchanglarning normal o'sishi va urug'lantirishni amalga oshiriladi.Karotinlarning o'simlik organizmi uchun asosiy roli, birinchi navbatda, fotosintez bilan chambarchas bog'liq. Fotosintetik jaraonlarning bir qismi sifatida karotenoidlar ikkita muhim funksiyani bajaradi.Ulardan biri yorug'lik energiyasining qo'shimcha yutilishini,bu esa fotosintez samaradorligini oshiradi. Ikkinchisi himoya funksiyasi bo'lib, xlorofilidan ortiqcha energiya olib, karotinoidlar fotooksidlanishdan himoya qiladi. Shuningdek, fotosintez jarayonida

hosil bo'lgan hujayra uchun xavfli bo'lgan erkin kislorodni faolsizlantiradi. Bundan tashqari, karotenoidlar bir hujayrali organizmlarda fototaksik harakatlarida va yuksak o'simliklarning bo'yiga o'sishiga ordam beradi.

### 8.3.2. D vitaminlari(kaltsiferol)

Ushbu vitaminni o'rganish 1916- yilda boshlangan, u 1931 -yilda sintetik yo'l bilan olingan. D vitaminini bir nechta vitaminlar shaklida mavjud. Ulardan D2 va D3 shakllari eng keng tarqalgan. D vitaminlari faqat hayvonlarda mavjud. O'simliklarda sterollar - ergosterol va xolesterin mavjud bo'lib, ulardan ultrabinafsha nurlanish ta'sirida D2 va D3 vitaminlari (kaltsiferol) hosil bo'ladi. Ushbu sterollarning eng muhimi ergosterol bo'lib, u ko'p miqdorda achitqi va mog'orlardan D vitaminini sanoatda ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Hayvonlarda D vitaminining ta'siri fosfor-kaltsiy almashinuvi bilan bog'liq. Ushbu vitamin etishmasligi bilan suyaklarda kalsiy fosfatning normal cho'kishi buziladi. D vitaminini yetishmovchiligining asosiy belgisi raxitdir. Oshqozon-ichak traktida kaltsiyning so'riliishi, uning tashilishi va suyakning kalsifikatsiyasi to'g'ridan-to'g'ri D vitaminini bilan emas, balki uning faol metaboliti tomonidan 1 va 25-pozitsiyalardagi gidroksi guruhlari (1, 25-dioksixodekalsiferol) tomonidan amalga oshiriladi. D guruhi vitaminlarining eng boy manbalari baliq yog'i, sutemizuvchilar va qushlarning jigarida, yozda sut va undan olingan mahsulotlar qishga qaraganda ancha ko'p D vitaminini o'z ichiga oladi (8.2-jadval). Bu yozda quyosh nuri ta'sirida faolroq shakllanishi bilan izohlanadi.

(8.2-jadval).


#### Ba'zi mahsulotlarda D guruhi vitaminlari tarkibi

Mahsulot	Mkg/100g
Baliq yog'i	125
Hayvonlarning jigari	0,2-1,2
Yozda / qishda sariyog	'1-2 / 0,3-0,5
Tuxum sarig'i yozda/qishda	12,5/3,5
Pivo xamirturushi (UV nurlanishidan keyin)	25 000

### 8.3.3. E vitamini ( $\alpha$ -tokoferol, antisteril vitaminlar)

E vitamini 1922 -yilda kashf etilgan va uning sintezi 1922 -yilda amalga oshirilgan 1938. Homilador urg'ochi kalamushlar ratsionida ushbu vitamining yetishmasligi homilaning o'limiga olib keldi, E vitamini yetishmovchiligi bo'lgan erkak kalamushlarda moyak atrofiyasi kuzatildi. Ushbu vitamining antisteril ta'siri uning tokoferol nomiga asos bo'ldi (yunoncha nasldan tokos, fero - men olib yuraman, ol - spirt,). O'simliklarda E vitamini unib chiqishga yordam beradi Gulchanglarida E vitamini kamida sakkiz xil konfiguratsiyalar mavjud. Eng keng tarqalgan shakli  $\alpha$ -alfa tokoferoldir. Xuddi shu vitamin E vitamini guruhining boshqa birikmalariga nisbatan eng yuqori biologik faollikka ega.

Tokoferollar  $100^{\circ} \text{C}$  gacha qizdirishga bardosh bera oladi, ular ultrabinafsha nurlar ta'sirida yo'qoladi.






#### *$\alpha$ -Takseferol*

E vitaminining qiymati uning antisterilligidadir .Shuningdek, ko'plab to'qimalarning normal ishlashi uchun E vitamin zarurligini ko'rsatdi. Uglevodorod radikalining lipofilligi va gidroxinon fragmentini oksidlash xususiyati E vitaminga bog'liq.Nafas olish zanjirida tokoferollar vodorodni sitoxrom b dan sitoxrom c ga o'tkazadi. Tokoferollar oksidlanish va qaytarilish jaraonlarida ishtirok etadi..E vitaminini yog'lar, karam, don mahsulotlari, bodom, yeryong'oq osimliklarida ko'p bo'ladi.

### 8.3.4. K vitamini (filloxiunon) - 2-metil, 1,4- hosilalari naftoxinon

K<sub>1</sub> vitamini (filloxiunon) o'simlik mahsulotlarida, K<sub>2</sub> vitamini (naftoxinon) ichak mikroflorasi tomonidan sintezlanadi.Barcha tirik organizmlarda ushbu guruhning vitaminlari keng tarqalgan. Hayvonlarda ularning vitamin funktsiyasi qon ivishini tartibga solishda ishtirok etishi bilan bog'liq.



K vitamini - jigar hujayralarida II, VII, IX va X qon ivish omillarini sintez qilish uchun javob beradigan fermentning protez guruhi; koenzim sifatida elektron tashish va oksidlovchi fosforlanishda ishtirok etadi. O'simliklardagi K vitaminining asosiy vazifasi - fotosintez jarayonida elektronlarni uzatishdir. Odam va hayvonlarda K vitaminining yetishmasligi juda kam uchraydi. Kunlik ehtiyoj 50-70 mikrogram


K vitamini - pomidor, karam, qovoq, o'simliklarning yashil qismlari. Yashil bargli sabzavotlar 100 g mahsulotga 50 dan 800 mikrogramgacha, sut va sut mahsulotlari, tuxum va donlarda kamroq miqdorda vitamin mavjud.

## 8.4. Suvda eriydigan vitaminlar

### 8.4.1. Vitamin B1

Vitamin B1 (tiamin, anevrin, anevrin) birinchi ajratilgan vitamindir. 1912 yilda polshalik olim K.Funk uni guruch kepagidan kristall shaklda oldi. Polinevrit bilan og'rigan bemorlar uchun oziq-ovqatga tiamin qo'shilishi ularning tiklanishiga olib keldi. Tiaminning kimyoviy

tuzilishi bir-biriga bog'langan ikkita geterosikl - pirimidin va tiazol bilan ifodalanadi.



### Vitamin B1

Tiaminning barcha tirik organizmlarning metabolizmida ishtirok etadi. Tiamin tirik organizmlarda energiya ishlab chiqarish uchun oqsillar, uglevodlar va yog'lar almashinuvida muhim koenzim sifatida uchraydi.. U uch karboksilik kislota siklining ikkita fermentlar guruhi - karboksilaza va degidrogenaz sifatida,pentoza fosfat yo'lining transketolaza fermentining bir qismi sifatida u faol aldegid guruhlarini o'tkazishda, glyukozani oksidlashda ishtirok etadi.

Faqat shu biokimyoviy reaksiyalarda hosil bo'lgan pentozalar DNK va RNK sinteziga boradi. Hayvonlarda tiamin elektr nerv signallarining normal uzatilishi uchun zarurdir, bundan tashqari, uning antioksidant va immunostimulyator xususiyatlari haqida dalillar mavjud.

Tiamin faqat o'simliklar va mikroblar tomonidan sintezlanadi

O'simliklarda u erkin va bog'langan tiamin pirofosfat shaklda bo'lishi mumkin . B1 vitaminining manbai asosan don mahsulotlari, ayniqsa murtak va urug' po'stlog'ida yuqori miqdorda mavjud.

### 10.3-jadval


#### Oziq-ovqat tarkibidagi B1 vitamini

Mahsulot	Mkg/g
Bug'doy urug'i	15,6-62
Bug'doy	4,5-6
Jigar va buyraklar	5,0-6,3
Mol go'shti va qoy go'shti	1,7-2
Yangi meva va sabzavotlar	1-2
Quruq novvoy xamirturushi	30
Pivo xamirturushi	50

### 8.4.2. B2 vitamini (riboflavin)

Vitamin B2 flavin mononukleotid (FMN) va flavin adenin dinukleotid (FAD) hosil qiladi, ular flavinga bog'liq

degidrogenazalarning katta guruhining koenzimlari hisoblanadi. Riboflavinning biologik xususiyati oksidlanish va qaytarilisda ishtirok etadi.




Riboflavin fermentlarni tartibga solidi.Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari, yog' kislotalari, aminokislotalar, aldegidlar, uglevodlarning purin asoslari, shuningdek, boshqa substratlarning oksidlanishida ishtirok etadi.

Riboflavinga eng boy xamirturushlar, hayvonlarning ichki organlari. B2 ni sanoatda ishlab chiqarish uchun *Eremothecium ashbyii* zambug'idan foydalaniadi.

#### 8.4.3. Vitamin B3 (pantonat kislota)

Birinchi marta 1933- yilda kashf etilgan bu vitamin 1939 -yilda kristall shaklda olingan. Pantonat kislota barcha hayvon, o'simlik va mikroorganizmlarida uchraydi (yunoncha Pantoten — hamma joyda). Ammo B3 vitamini faqat o'simliklar va mikroorganizmlar, shu jumladan sutemizuvchilarning ichak mikroflorasi tomonidan sintezlanadi.




#### Vitamin B3 (pantonat kislota)

Kimyoviy nuqtayi nazardan, pantonat kislota unchalik barqaror emas - kislotalar va asoslar ta'sirida u beta-alanin va pantolakton bilan peptid bog'lanish joyida oson gidrolizlanadi.Pantonat kislota ko'p biosintetik moddalarning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan A koenzimining bir qismi hisoblanadi.


#### 8.4.4. Vitamin B5 yoki PP (nikotinik kislota, nikotinamid)

Nikotinamid ikikita kofermenti mavjud: nikotinamid adenin dinukleotid ( $\text{NAD}^+$ ) va nikotinamid adenin dinukleotid fosfat ( $\text{NADF}^+$ )



**Nikotin kislata**

**Nikotinamid**



**NAD**



Nikotin kislotasi 1866- yilda nikotindan sintez qilingan. Biroq, faqat 1937- yilda nikotinik kislota va eamidning vitaminlar ekanligi isbotlangan. Pellagraning oldini olish qobiliyati uchun nikotinik kislota va uning amidi vitamin PP deb nomlandi (bosh harflar bilan: profilaktik pellagra (italyancha) - pellagrani oldini olish) o'zlaridan olingan.

Nikotinik kislotaning biologik roli shundaki, u oksidlangan organik moddalardan vodorodni olib, tashlashni katalizlovchi piridin degidrogenazalarning oksidlanish-qaytarilishi fermentlari tarkibiga kiruvchi nikotinamid kofermentlarining faol markazini tashkil qiladi.

Nikotin kislotasi va uning amidi hayvonlar va o'simliklarda keng tarqalgan. Achitqi, kepak, bug'doy urug'i va hayvonlarning ichki organlari nikotin kislotaga eng boydir.

#### 8.4.5. Vitamin B6 (piridoksin, adermin)

Vitamin B6 (piridoksin) piridin hosilalari guruhi: piridoksol, piridoksal va piridoksamin. Piridoksin mikroorganizmlar va o'simliklar tomonidan ishlab chiqariladi.




B6 vitaminining faol shakli piridoksal bo'lib, uning fosforlangan shakli bir qator oqsil almashinuvida ishtirok etadigan fermentlarining bir qismidir. Piridoksol va piridoksamín piridoksalning prekursorlari sifatida ishlaydi. Piridoksal fosfat bir qator aminokislotalarning dekarboksillanish reaksiyalarida, shuningdek, aminokislotalarning keto kislotalar bilan transaminatsiyasi reaksiyalarida koferment bo'lib, kateholaminlar, gistamin, dofamin sintezida ishtirok etadi.

B6 vitaminiga eng boyları yashil qalampir, achitqi, hayvon jigari, guruch kepagi va bug'doy urug'idir.

#### 8.4.6. S vitaminini (askorbin kislotasi)

Askorbin kislotasi (S vitaminini) eng mashhur vitamindir.

Turli xil biokimyoviy jarayonlarda ishtirok etadi, ularning aksariyati uning antioksidant xususiyatlari bilan belgilanadi. Askorbin kislota qaytar va oson oksidlanadi, degidroaskorbin kislotaga aylanadi.



L-askarbin kislatasi  
kislotasi

L- degidroaskorbin

U turli fermentlar bilan birgalikda ishlaydi, gidroksillanish reaktsiyalarida ishtirok etadi, turli substratlarni kamaytirishda, erkin radikal lipid oksidlanishini tartibga solishda ishtirok etadi. O'simliklarda askorbin kislota erkin va bog'langan askorbigen shaklida uchraydi. Askorobigen kamroq fiziologik faollikka ega, ammo fizik va kimyoviy ta'sirlarga nisbatan ancha chidamli. O'simliklarda askorbin kislota glyukoza va galaktozadan sintezlanadi. S vitaminini manbai o'simlik mahsulotlaridir. Ayniqsa, askorbin kislotaga boy mahsulotlar: na'matak qora smorodina, limon, karam, qizil qalampir.

### Nazorat savollari

- 1 Biologik faol moddalarga nimalar kiradi?
- 2 Vitaminlarning inson hayotidagi roli ?
- 3.Yog'da eriydigan vitaminlarga nimalar kiradi
- 4.Suvda eriydigan vitaminlar?
- 5 Avitaminoz bu ?

## IX BOB. O'SIMLIKNING IKKILAMCHI METABOLITLARI.

### 9.1. O'simlikning ikkilamchi metabolitlari.

O`simlik hujayralarida birlamchi moddalar almashinuvidan tashqari ikkilamchi metabolitlar almashinuvi mexanizmi ham mavjud. Ikkilamchi metabolitlar ko`pchilik hollarda o`simliklarning noqulay muhitga, fitofaglarga va boshqa salbiy omillarga nisbatan javob reaksiyasi hisoblanadi.

Ikkilamchi metabolitlar o`simliklardagi birlamchi metabolizmda, yani fotosintez, nafas olish, nuklein kislotalar, lipidlar, oqsillar sintezi va shunga o`xshash asosiy fiziologik-biokimyoviy jarayonlarda qatnashmaydi. Ikkilamchi birikmalar barcha o`simliklarga yoki ularning ko`pchilik turlariga xos emas. Ikkilamchi metabolitlar ko`pchilik hollarda o`simliklarning alohida bitta oilasiga, hattoki bitta turiga xos bo`ladi. Hujayrada ikkilamchi metabolitlar, asosiy metabolizm moddalariga nisbatan juda kam miqdorda sintezlanadi hamda ular sintezlangan hujayraga nisbatan butun organizm uchun ko`proq zarurdir.

O`simliklarda boradigan jarayonlarni ikkilamchi metabolizmga taalluqligi ko`rsatkichlari juda ham aniq emas. Ko`pchilik kelib chiqishi ikkilamchi bo`lgan moddalar masalan, fitol, karotinoidlar, aromatik aminokislotalar, fitogormonlar, steroidlar va boshqalar o`simlik organizmdagi asosiy moddalar almashinuvida bevosita qatnashadi. Mamlakatimizda fenol birikmalarini o`rganilishini yo`lga qo`ygan olim akademik S.Yu.Yunusovdir (1909-1997). Akademik S.Yu.Yunusov tashabbusi bilan mamlakatimizda va MHDda yagona O`simlik moddalarini kimyosi ilmiy-tadqiqot instituti tashkil qilingan. Ushbu institut hozirgi vaqtida nafaqat mamlakatimizning balki, dunyo miqyosida o`z sohasi bo`yicha yetakchi institatlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, akademik S.Yu. Yunusov tomonidan 1967 -yilda dunyo miqyosida eng nufuzli jurnallardan biri hisoblangan hamda bir vaqtning o`zida rus va ingliz tillarida nashr etiladigan “Tabiiy birikmalar kimyosi” (Ximiya prirodnex soedineniy) jurnalida mamlakatimiz va chet el olimlarining boshqa tabiiy moddalar kimyosiga oid malumotlar bilan birgalikda fenol birikmalariga oid maqolalar ham doimiy ravishda chop etilib turibdi.

O`simliklar bir yoki bir nechta fenol qoldiqlarini tutgan minglab birikmalarni sintezlashi mumkin. Bu birikmalarni uglerod skeletidagi uglerod ketonlari soniga qarab bir nechta guruhlarga bo`lish mumkin. Bulardan o`simliklar dunyosida keng tarqalgani fenol kislotalari va ksantinlardir.

Bulardan tashqari fenil tabiatli aldegid va spirtlar ham mavjud. Masalan, vanilin va salitsiloviy spirt. Vanilin vanulla o`simligidan, salitsil spirti esa, toldan ajratib olingan.

Fenol birikmalarining sintezlanishi turlichadir. Masalan, benzoynol kislota trans-tsinnonol Co-A ning B- oksidlanishidan hosil bo`ladi. Kumarin esa korichnoy kislotaning orto-gidroksillanishidan boshlab sintezlanadi. Bu reaksiyaning fermentlari membrana bilan bog'langan bo`lib xloroplastlardan topilgan.

Ksantinlar asosan o`simliklarning ikki oilasi dalachoydoshlar (choyo`t, dalachoy) va gazakto`doshlar (erbaho, gazako`t) oilasi vakillarida topilgandir. Ksantinlar erkin yoki glikozidlar holida yog'ochlik va ildizlarda uchraydi. Magniferin esa paporotniklarda va boshqa o`simliklarda ko`p uchraydi.

Fenollarning boshqa bir guruhi stelbenlar, o`simliklarda ABK singari o`simliklarning o`sish ingibitori hisoblanadi. Ular ko`proq qarag`aydoshlar (qoraqarag`ay) oilasi vakillarida uchraydi.

Flavanoidlar ko`proq o`simliklarda suvda eruvchan fenolproizvodtselar shaklida uchrab qizil, qo`ng`ir-qizil va sariq ranglarda bo`lib, vakuolda yig'ilgan holatda uchraydi. Shuningdek ular xloroplastlar va xromoplastlarda ham uchraydi.

Flavanoidlar fenilpropandan sintezlanadi. Flavanoidlarga o`simliklar rangiga ta'sir qiluvchi antotsianidlar, flavonollar, xolkonlar kiradi. Hozirgi kunda 20 turdan ortiq antotsionidlar ma'lum, ammolardan faqatgina 3 xili ko`proq tarqalgan. Ular tselfinidin, tsionidin va pelorgenidinlardir. Ular bir-birlaridan aromatik halqadagi hidroksil gruppalarning soni bilan farqlanadi. Antotsianlar o`simliklar bargi rangiga ta'sir qiluvchi birdan bir flavanoiddir. Ular yetuk barglari va kuzgi barglar rangida asosiy o'rinni tutadi. Shuningdek kuzda o`simliklar bargi rangida terpenlarga (o`zlarida bir qancha C5-larni tutgan) taalluqli karotinoidlar va ksantodinlar ham muhim o`rin tutadi.

Bir qancha iste'mol qiluvchi mevalar rangi ham antotsionlarga bog'liqdir. Bunga antotsionlarning miqdori muhim o`rin tutadi.

Shuningdek mevalarning rangida antotsionlarning metallar bilan (hosil qilgan) oqsillar bilan hosil qilgan komplekslari muhim o`rin tutadi.

Antotsionidlar asosan degidroflavonollardan sintezlanadi. Lignanlar 1936- yilda fenilpropanoid dimerlarni nomlash uchun qo`llanilgan. Ular moyli o`simlik smolasida ko`p uchraydi. Lignanlar lignin moddasiga o`xshash bo`lsada, lignin kabi sintezlanmaydi.O`simliklarda ikkilamchi metabolitlar minglab sintezlanishi mumkin. Ammo uzoq vaqt mobaynida ularning o`simlik organizmi uchun ahamiyati noma'lumligicha qolgan. Hozirgi vaqtda o`simliklardan 45000 va undan ortiq ikkinchi metabolizm birikmalari ajratib olingan.O`simliklardagi 15-25% genlar undagi ikkilamchi metabolizm uchun xizmat qiladi. Umuman, ikkilamchi metabolitlar o`simliklarning muhit bilan munosabatida asosiy elementlardan biridir.

## 9.2.Terpenlar.

Terpenlar yoki terpenoidlar o`simliklardagi ikkilamchi birikmalarning nisbatan katta qismini tashkil qiladi, yani ularning soni 25000 atrofida bo`lib oddiy holda suvda erimaydigan moddalardir. Terpenlarning assosini o`zida besh uglerod saqlovchi izopren tashkil qiladi. Shuning uchun ayrim hollarda ularni izoprenoidlar deb ham atashadi.Hozirgi vaqtda terpenlar monoterpenlar (10 uglerodli), seskviterpenlar (153uglerodli), diterpenlar (20 uglerodli), triterpenlar va steroidlar (30 uglerodli), tetroterpenlar (8 molekula) izoprendan tashkil topgan va tarkibida 40 va undan ortiq uglerod saqlovchi politerpenlar farqlanadi.Terpenlarning o`simlik organizmidagi vazifasi xilma xildir. Shuning uchun ham ayrim terpenlarni ikkilamchi emas, balkim birlamchi metabolitlar qatnashuvchi moddalar sifatida qarash mumkin. Masalan, o`simliklarda o`stiruvchi gormon bo`lgan gibberellin diterpen hisoblansa, ingibitor gormon bo`lgan abtsiz kislotasi siskviterpendir. Shuningdek o`simliklar membranasining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo`lgan sitosterol triterpenlarga taalluqli bo`lsa, karotinoidlar tetraterpenlarning hosilasidir.

Yuqorida keltirilganidek, ko`pchilik terpenlar ikkilamchi metabolitlar bo`lib, o`simliklarning himoyalanishi uchun xizmat qiladi, yani ular toksik birikmalar bo`lib, ko`pchilik hashoratlar fitofag – hayvonlar uchun zaharlidir. Monoterpenlar hamda diterpenlar va

ularning hosilalari bakteriotsidlik xususiyatiga ega bo`lgan efir moylarini hosil qiladi (Gershenson, Croteau, 1991).

Evolyutsiya jarayonida o`simliklarda himoya vositasi sifatida ikkilamchi metabolitlar sintezlangani kabi fitofag – hayvonlarda ham ushbu moddalarga nisbatan moslashuv vujudga kelgan. Ayrim hayvonlar organizmida toksik-zaharli moddalarni detoksikatsiyalash yani organizmdan chiqarish mexanizmlari shakllangan. Bu o`z navbatida ushbu hayvonlarga boshqa tur hayvonlarga nisbatan oziqlanishda va yashashda ustunlik beradi. Ayrim hashoratlar masalan monarx kapalagi (*Asclepias spp.*) o`ziga xos bo`lsada tarkibida toksik moddalar mavjud o`simliklar bilan masalan sutlamadoshlar – *Euphorbiacea* oilasi vakillari bilan ovqatlanishi tufayli qushlar uchun zaharli bo`lgan steroid moddalar – kardenolidlarni to`playdi. O`simliklar hujayralarida sintezlanuvchi ikkilamchi birikmalar fitofaglar-o`simlikxo`rlarga nisbatan yaxshi himoya hisoblanadi.

Monoterpenlar va ularning dorivorlari hashorotlar uchun toksik modda hisoblanadi. Monoterpenlar o`simliklarning turli qismlarida to`planishi mumkin. Masalan ko`pchilik hashorotlar jumladan daraxtlar po`stlog'i bilan ovqatlanuvchm qo`ng'izlar uchun ham toksik-zaharli modda hisoblangan  $\alpha$  - pinen,  $\beta$ -pinen, limonen hamda mirsten birikmalari qarag`ay – *Pinus silvestris* va oq qarag`ay- *Abies* daraxtlari organlarida yig'iladi.

Ko`pchilik nina bargli o`simliklarda po`stloq kemiruvchi qo`ng'izlariga qarshi qo`shimcha monoterpenlar ham sintezlanishi kuzatiladi. Monoterpenlar efirining boshqa vakili piretroidlar juda kuchli insektistidlik samarasiga ega. Piretroidlar xrizantema-*Chrysanthemum* o`simligining gultojibarglari va barglarida topilgan bo`lib sut emizuvchilarga nisbatan toksik bo`lganligi sababli, hozirgi vaqtda sanoatda ishlab chiqarilayotgan insektistidlarning asosini tashkil qiladi.

Ayrim o`simlik turlarida mavjud bo`lgan va barglar hamda mevalarga o`ziga xos hid beruvchi efir moylarining asosini ham monoterpenlar va seskviterpenlar tashkil qiladi. Masalan Osiyo yalpizi - *Mentho piperitha* o`simligidagi efir moylarining asosini tashkil etuvchi mentol va limondagi- *Citrus limon* limonen terpenlari hashoratlarga nisbatan anchagina samarador toksik modda hisoblanadi.

Umuman ko`pchilik hollarda monoterpenlar barg yuzasi tukchalarida joylashganligi sababli o`simliklarda fitofaglarini

cho`chituvchi toksik modda borligi haqida o`ziga xos xususiyat hisoblanadi. Masalan, monoterpenlar ko`pchilik hollarda o`simgiliklar barglari yuzasida tukli bezchalar holida joylashganligi sababli ushbu o`simgiliklarga fitofaglarni hujumi kamroq bo`lishiga sabab bo`ladi. Monoterpenlarning yana bir xususiyati o`simgiliklarga fitofaglar hujum qilganda shu fitofaglar bilan oziqlanuvchi yirtqich hashoratlarni jalb qilishdir. Masalan, g'o`za va makkajo`xoriga fitofaglar hujum qilganda ularning to`qimalarida yirtqich hashoratlarni jalb qiluvchi monoterpenlar va seskviterpenlarning uchuvchan formalari sintezlanadi. Binobarin terpenlarning uchuvchan formalari nafaqat o`simgilik himoyasida, balkim ushbu o`simgilik himoyasi uchun boshqa organizmlarni jalb qilish uchun ham xizmat qiladi.

G'o`zaning hashoratlar, bakteriyalar va zamburug'lardan himoyalanishi ko`p jihatdan unda sintezlanadigan seskviterpenning dimeri, gossipol bilan bog'liqdir.

Sassiq tol-Aelianthus annuus o`simgilining sut emizuvchilar va hashoratlardan himoyalanishida uning bargi yuzasidagi tuk bezchalaridagi seskviterpen laktoni-kostunolid asosiy o'rinni tutadi. Chunki seskviterpen laktoni juda achchiq-badbuy tamli modda bo`lib ko`pchilik fitofaglar tomonidan deyarli istemol qilib bo`lmaydigan darajadadir. Ayrim tropik o`simgiliklar va qarag'ay daraxti smolasida diterpenlar – abiet kislotasi mavjud.

Sutlamachoydoshlar (Euphorbiaceae) oilasi vakillari diterpenlarga xos forbol efirini sintezlaydi. Agar biz ushbu oila vakillari tanasi sutini qo`limiz yoki tanamiz yuzasiga tomizsak terimizni qattiq qichishtira boshlaydi. Diterpenlarning forbol formalari tibbiyotda sut emizuvchilarda suniy ravishda rak chaqirish uchun qo`llaniladi. Chunki u organizm ichkarisiga tushsa juda zaharli tasir ko`rsatadi. Bu ham o`z navbatida o`simgiliklarning sut emizuvchi-fitofaglardan himoyalanishiga yordam beradi. O`simgiliklarda umurtqali hayvonlar uchun juda zaharli hisoblangan triterpenlar, masalan, kardenolidlar va saponinlar ham sintezlanishi mumkin. Ushbu ikkilamchi moddalar inson hamda umurtqali hayvonlarning yurak muskullariga salbiy tasir qiladi. Chunki ular yurak muskullaridagi  $Na^+/K^+$  – ATP azalarning ishiga tasir qiladi. Ammo shifokorlar tomonidan yuragi kasal bemorlarga digitalis o`simgili kardenolidlari oz miqdorda tavsiya qilinadi.

Terpenlarning boshqa bir vakili saponinlar o`z ichiga steroid va triterpen glikozidlarni oladi. Ularning toksik xususiyati shundaki

saponinlar tarkibida lipidlarda eruvchi triterpen, hamda suvda eruvchi qand elementlari mavjud va ular ditergentlik xususiyatga egaligi tufayli hujayra membranasi tuzilishini buzadi.

Hozirgi vaqtida fanga anchagina malum politerpenlarga ( $C_5H_8$ ) kauchuk moddasini misol qilishimiz mumkin. Kauchuk polimer modda bo`lib uning monomeri izopentinil qoldiqlaridir. Bir molekula kauchuk tarkibiga 1500-15000 dona izopentinil qoldiqlari kirishi mumkin. Kauchuk moddasi ko`pchilik o`simliklarda topilgan ammo, ko`proq kauchuk to`plovchi o`simliklarda, masalan braziliya geveyasi (*Hevea brasiliensis*), manixot (*Manihot*), fikus (*Ficus elastica*) shular jumlasidandir. Ushbu o`simliklar texnik maqsadlarda sof kauchuk olishda ishlatiladi.

### **D 9.3.Fenol birikmalari.**

Hozirgi vaqtida fenol birikmalarining aniq bir biokimyoviy jarayonda qatnashishi to`la malum emas. Faqatgina linular kislotasining ABK fitogormoni xususiyatiga ega ekanligini aniqlangan xolos. Shuningdek metionindan etilen gormoni sintezlanishida n-kumar kislotasi efirining kofaktor sifatida qatnashishi kuzatilgan.

Fenollarning in vitro sharoitida ayrim gormonlar va fermentlarga tasiri hamda ularning tasiriga o`zgartirish kiritilish aniqlangan. Ammo in vivo sharoitida bu hol aniqlanmagan. Kelib chiqishi ikkilamchi bo`lgan moddalarning asosiy vazifalaridan biri o`simliklarni fitopatogenlar va o`txo`r hayvonlardan himoya qilishdir. Binobarin, o`simliklardagi ikkilamchi metabolitlar evolyustiya davomida ularning o`z-o`zini himoya qilishi uchun hujayralarda sintezlangan birikmalardir.

Ayrim o`simliklarda o`txo`r hayvonlar, kasallik qo`zg`atuvchi bakteriyalar, zamburug`lar va hashoratlarga qarshi ishlab chiqarilgan ikkilamchi metabolitlarning odamlar organizmi uchun zaharliligi tufayli bu o`simliklarni inson tomonidan istemol qilinishini ham yo`q qilinishiga olib kelgan. Hozirda insonlar tomonidan oziq-ovqat sifatida istemol qilinadigan madaniylashtirilgan o`simliklar va ularning mevalari tarkibidagi ayrim zararli ikkilamchi metabolitlar seleksiya tufayli bartaraf etilgan. Umuman o`simliklarning ikkilamchi metabolizmi qatnashuvchi metabolitlarni shartli ravishda uch guruhga bo`linishi mumkin. Bular terpenlar, fenollar va azot saqlovchi kabi

ikkilamchi metabolit birikmalarning sintezlanishidir. Terpenlar izoprenning hosilasi bo`lib, astetil-SoA va mevalon kislotasi yoki glikoliz jarayonining asosiy birikmalaridan bo`lgan 3-R- glisterin kislotasi va piruvatdan hosil bo`lishi mumkin. Fenol birikmalari aromatik moddalar bo`lib eritroza-4-fosfat va shikim kislotasidan hosil bo`ladi (Croteau et.al., 2000). Bunda fenilalanin, tirozin va triptofan ham hosil bo`ladi.

Fenol birikmalari ham boshqa birikmalar singari o`simlik organizmida minglab sintezlanishi mumkin. Azot saqlovchi ikkilamchi birikmalar asosan ayrim aminokislotalardan sintezlanadi. Ularning asosiy vakillari alkaloidlar. Xinonlar sinfiga mansub bo`lgan gidroxinonlar, plastoxinonlar va ubixinonlar o`simliklar olamida ko`p uchraydi. Bular fotosintez jarayonida va elektronlarning mitoxondriol tashiluvida muhim o`rin tutadi. Xinonlarning vakillari xilma xildir. Masalan gulli o`simliklardan 200 donadan ortiq introxinonlar ajratilgan. Ammo benzoxinonlar yuksak o`simliklarda kam uchraydi. Ular ko`proq tuban zamburug'larda topilgan bo`lib, fenilolonin yoki astetil-SoA birikmasidan sintezlanadi. Ekologik vazifasi. Hozirgi vaqtida o`simlik gullarining changlanishida flovonoidlarni roli muhimligi to`la aniqlangan. Chunki ular tufayli hosil bo`lgan ranglar hashorotlar va qushlarni chaqiradi. Rangsiz flovan va flovonoidlar ham gullarning changlanishida muhim ahamiyatga ega. Ular yaqin ultrabinafsha nurlarni yutganligi sababli hashorotlar tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Masalan Nashagullar turkumining ayrim vakillarida flovonoidlar faqatgina gultojibarglarning asosida joylashgan. Ammo ularga xos bo`lgan 240-380nm nurlarning yutilishi hashorotlar, xususan asalarilarning urug'chi va nektar joylashgan gul markazini topishga yordam qiladi. Kumarinlar O`simliklarning zamburug'lar va hashoratlardan himoyasida terpenlar, fenol birikmalaridan tashqari furan kumarinlari ham alohida o`rin tutadi. Fur'an kumarinlar o`z tarkibida kumarindan (C<sub>6</sub>- C<sub>1</sub>) tashqari furan halqasini ham tutadi.

Furan kumarinlarning toksik tasiri shundaki ular quyosh yorug'lining 320-400 nm to`lqin uzunligi tasirida, pirimidan asoslari bo`lgan stitozin va timin bilan birikib DNK zanjiriga kirish va transkripstiya jarayonini to`xtatish xususiyatiga ega. Bu esa o`z navbatida hujayraning halokatiga olib keladi.

Furan kumarinlar ayniqsa ziradoshlar (Apiaceae) oilasining petrushka (*Petroselium satium*), selder (*Apium graveolens*), pasternak

(Postinace sativa) turlari vakillarida ko`plab uchraydi. Furan kumarinlar o`simliklarda stress holatlarida muqobil holatdagiga nisbatan 100 va undan ortiq marotaba ko`payishi mumkin. Ushbu hol o`simliklarga patogenlarning tasiri ostida ham bo`lishi mumkin. Patogen bilan zararlangan o`simlikni ushlaganda selderey yig'uvchilar va sotuvchilarda qo`l terilarida toshmalar paydo bo`lishi mumkin.

#### **9.4. Flavonoidlar.**

Flovonoidlar allelopatik agent yani o`simlik birikmalariga tasir qiluvchi ekskretor moddalar sifatida ham tasir qilishi mumkin. Masalan, eman daraxti tarkibidagi salistil kislotasi. Shuningdek flovonoidlar (tonin) oziq ditergenti sifatida antimikrob agenti vazifasida qatnashishi mumkin.

Flavonoidlar fenol birikmalarining eng katta sinfini tashkil qiladi. Ularning asosiy skeleti 15 atom ugleroddan iborat bo`lib ikkita aromatik halqa ( $C_6$ ), 3 dona ( $C_6 - C_3 - C_6$ ) uglerod atomi bilan birikkandir. Flavanoidlar uch uglerodli uchastkasining oksidlanish darajasiga qarab bir necha guruhlarga jumladan flavononlar, antostianlar, flovonlar, flovonollar va izoflavonollarga bo`linadi. Flovonoidlardan taninlar ham sintezlanishi mumkin. Flavononlar stitrus o`simliklari mevalarida ko`plab uchraydi. Masalan greyfrut po`chog'ida naringenin uchrasha, apelsin va mandarin po`chog'ida gesperidin mavjud. Ushbu flavononlar tami jihatidan bir-biridan farq qiladi. Masalan, naringenin achchiq tamga ega bo`lsa, gesperidinda bunday xususiyat yo`q. Flavonoidlar bu ikkinchi darajali o`simlik metabolitlarining bir klassi bo`lib, ular Vitamin P yoki deb ham tanilgan tsitrin. Ushbu metabolitlar asosan o`simliklarda rang berishda katta rol o`ynaydigan sariq va boshqa pigmentlarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, Flavonoidlar odamlar tomonidan osonlikcha qabul qilinadi va ular yallig'lanishga qarshi, allergiyaga qarshi va saratonga qarshi muhim tadbirlarni namoyish etadigan ko'rindi. Flavonoidlar kuchli antioksidantlar ekanligi aniqlandi va tadqiqotchilar saraton va yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish qobiliyatini o'rganmoqdalar. Flavonoidlar saraton hujayralarini yo'q qilishga yordam beradigan ba'zi mexanizmlarni ishga solish orqali saratonni oldini olishga yordam beradi va tadqiqotlarda organizm qo'shimcha flavonoid birikmalarini qayta ishlaganda kanserogenlarga

qarshi kurashadigan o'ziga xos fermentlarni ishga soladi. Flavonoidlarning yaxshi parhez manbalari tarkibiga tsessrus mevalar kiradi, ular tarkibiga o'ziga xos flavanoidlar hesperidinlar kiradi, quercitrin va rutin, rezavorlar, choy, qora shokolad va qizil sharob va ushbu oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli ko'plab foydali moddalar tarkibidagi Flavonoidlardan kelib chiqadi. Flavonoidlar sintezlanadi fenilpropanoid aminokislota bo'lgan metabolik yo'l fenilalanin 4-kumaryol-CoA ishlab chiqarish uchun ishlataladi va keyinchalik malonil-CoA bilan biriktirib hosil bo'ladi xalkonlar Flavonoidlarning orqa miya suyaklari Xalkonlar ko'plab biologik birikmalarda muhim bo'lgan ikkita fenil halqali aromatik ketonlardir. Xalkonlarning yopilishi flavonoid strukturining shakllanishiga sabab bo'ladi. Flavonoidlar flavonoidlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular aslida flavonoidlarning pastki sinfiga kiradi va o'simliklardagi sariq pigmentlardir. Flavonlardan tashqari, Flavonoidlarning yana 11 subclassi, shu jumladan izoflavonlar, flavanlar, flavanonlar, flavanollar, flavanolollar, antosiyanidinlar, katexinlar (proantotsianidinlarni o'z ichiga olgan), leykoantotsianidinlar, dihidrokalkonlar va auronlar.

## 9.5.Antostianlar.

O'simliklarga asosiy rang beruvchi modda hisoblanadi hamda gullarning changlanishi va mevalarning tarqalishida asosiy o'rinni tutadi. Umuman olganda antostianlar gullar, barglar va mevalarga turlituman rang beruvchi moddadir. Antostianlar karotinoidlardan farqli o'laroq to`qimalarga kengroq spektrda yani qizg'ish rangdan qora binafsha ranggacha berishi mumkin.

Antostianlar 1961 yilda nemis biokimyogari R.Vilshtetter tomonidan ochilgan. Antostionlarning fotosintetik pigmentlardan asosiy farqlaridan biri shuki, ular odatda glikozidlar shaklida vakuolada joylashgan. Antostionlarning anglikonlari antostianidinlar deyiladi.

O'simliklarda bir vaqtning o'zida bir nechta antostian uchrashi mumkin. Masalan, kartoshkaning guli va mevasida antostianlarning 10 formasi uchraydi.

Antostionidlar	R- guruhlri	Rangi
Pelargonidin	R2 – OH	Zangori

Stianidin	R1 - OH, R2- OH	Siyoh
Delfnidin	R1 - OH , R2- OH, R3-OH	Och siyoh
Peonidin	R1 – OCH3, R2-OH	Binafsha
Petunidin	R1 – OCH3,R2- OH,R3-OCH3	To`q pushti

M.N.Zaprometovning (1996) malumotlariga qaraganda fenol birikmalari nisbatan ko`proq choy o`simgilining yosh nihollari barglarida bo`ladi. Choy o`simgili fenol birikmalari asosini katexin va proantostianidlardan tashkil topgan flavonoidlar tutadi.

Flavonoid birikmalarning keng tarqalgan birikmalaridan biri katexin moddasidir. KATEXINLARGA XOS XUSUSIYATLARDAN ASOSIYSI ULARNING GALL KISLOTASI BILAN BIRIKISHI VA TANNINLARNING GIDROLIZLANISHIDAN HOSIL BO`LADIGAN MONOMER-EFIR MODDALARINI HOSIL QILISHIDIR. KATEXINLAR KO`PCHILIK MEVALARDA MASALAN, OLMA, NOK, Gilos, BEHI VA SHAFTOLIDA ANCHAGINA MIQDORDA UCHRAYDI. KATEXINLAR CHOY O`SIMGILI YOSH BARGLARIDA QURUQ OG`IRLIKKA NISBATAN 30% ATROFIDA BO`LISHI MUMKIN. FLAVONLAR VA FLAVONOLLAR ODATDA SARIQ RANGLI BO`LIB, GLIKOZIDLAR HOLIDA BO`LADI. NISBATAN KENG TARQALGAN FLAVONLARGA PETRUSHKA VA XRIZANTEMA GULLARIDA MAVJUD BO`LGAN APIGENIN BUG`DOY, SHOLI VA BEQA O`SIMGILIDAGI TRISTIN BIRIKMASINI MISOL QILISH MUMKIN. FLAVONOLLARGAESA O`SIMGILKLARDAGI KEMPFEROL, KVERSTETIN VA MIRISTETIN BIRIKMALARINI MISOL QILISHIMIZ MUMKIN.

Flavon va flavonollarning eng muhim vazifalaridan biri bu o`simgilik to`qimalarini xususan, epidermal to`qimalarini quyosh nurlarining ultrabinafsha spektrlaridan himoya qilishdir. Chunki flavon va flavonollar yorug'likning nisbatan qisqa to`lqinli (280-320 nm) nurlarini yutadi. Shu sababli barglarning epidermis hujayralari quyosh nurlarining 360-720 nm to`lqin uzunlikdagi nurlarini 70-80% o`tkazgani holda, 95% atrofida ultrabinafsha nurlarni tutib qoladi. Fitoaleksinlar. O`simliklar immunitetida alohida o`rin tutuvchi ikkilamchi birikmalarning yorqin vakili bu o`simliklar to`qimalarida stress yoki boshqa bir salbiy holatlarda sintezlanuvchi va patogenlar uchun toksik bo`lgan moddalar – fitoaleksinlardir. Fitoaleksinlar sog`lom to`qimalarda umuman bo`lmasligi yoki oz miqdorda bo`lishi

mumkin. Fitoaleksinlarning asosini 80% atrofida izoflavonoidlar va 20% atrofida terpenoidlar tashkil etadi.

## 9.6.Tanninlar.

Tanninlar o`simliklarda 1796- yilda aniqlangan. Tanninlarning molekulyar massasi 500-3000 Da atrofida bo`lib teri oshlashga juda qulaydir. Ularda fenol birikmalarining gidroksil gruppalari bo`lganligi tufayli oqsillar bilan ko`plab bog'lar hosil qilish xususiyatiga ega. O`simliklarda taninlar miqdori nisbatan kam, ammo ayrim o`simliklarda ularning hissasi 45% bo`lishi mumkin. Masalan stezolpinin o`simligida taninlarning miqdori 40% va undan ortiq bo`lishi mumkin. Shuni aytib utish lozimki, fenol tabiatli moddalarning polimer formalari ham mavjud. Xuddi shunday dubil moddalariga bo`lgan tanin va lignin birikmasini ham misol qilishi mumkin. Tanninlarning o`zi ham ikki tipda, yani gidrolizlanadigan va kondensirlangan holda bo`lishi mumkin. Kondensirlangan tonninlar katexin yoki antostianidinsimonlarning polimeri bo`lib faqatgina flavon tipdagи fenollardan hosil bo`lishi mumkin. Gidrolizlanadigan tanninlar geterogen polimerlar bo`lib, asosan fenol kislotalari xususan, gall kislotasi va monosaxaridlardan tashkil topgan. Ular suyultirilgan kislotalarda hamyengil gidrolizlanishi mumkin.

Tanninlar hali pishmagan mevalarning yuzida ko`plab uchraydi. Taninlar ham evolyustiya jarayonida o`simliklarda himoya vositasi sifatida shakllangan. Ular o`txo`r hayvonlar oshqozonida oqsillar bilan vodorod va kovalent bog'lar hosil qilib hazm qilish jarayonini buzadi. Bundan tashqari fenol birikmalari ayrim o`simlik fermentlari tasirida oksidlanishi va oqsillarning SH - va NH<sub>2</sub> guruhlariga faol tasir qiluvchi toksik xinonlarni ham hosil qilishi mumkin

### Ligninlar

Fenol birikmalarining keng tarqalgan vakillaridan biri bu ligninlardir. Ular kuchli "shoxlangan" polimerlardir va asosan uchta fenilpropanoid spirtlar: kaniferil, para-kumar va sinondan tashkil topgan.

Ligninlarning boshqa fenol birikmalaridan farqi shundaki, ularning tarkibi nafaqat turlar orasida balki, bitta turga taalluqli o`simliklarda ham har xil bo`lishi mumkin. Shuningdek ligninlarning tarkibi hujayra

devori qavatlarida va organlar darajasida ham farqlanishi mumkin (Lewisea., 1999).

Lignin asosan hujayraning ikkilamchi hujayra devorida yig'iladi. Ligninlarning miqdori ayniqsa, suv va unda erigan mineral tuzlar harakatlanuvchi ksilema to`qimalarining naylari va traxeidlarida ko`pdir. Lignin hujayra devori, hujayra va to`qimalarga qattiqlik beradi. Ushbu holni biz “stementlash” bilan taqqoslashimiz mumkin. Ligninning o`simliklardagi miqdori uning yog'ochlanishiga qarab har xil bo`lishi mumkin. Masalan, yog'ochli daraxtlarda uning miqdori quruq og'irlikka nisbatan 25-35% atrofida bo`lishi mumkin. Metabolizmning boshqa ikkilamchi moddalariga o`xshab, lignin ham o`simliklarda himoya vazifasini o`taydi. Masalan, to`qimalarning ligninlanishi bir tomonidan ularni zararkunandalar tomonidan iste'mol qilinishini bartaraf etsa, ikkinchi tomonidan patogenlarning yana-da tarqalishini to`xtatadi.

Ikkilamchi metabolizm o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga yordam bermaydigan, ammo o'simlik o'z muhitida omon qolishi uchun zarur bo'lган juda ko'p ixtisoslashgan birikmalarni ishlab chiqaradi (taxminan 200000). Ikkilamchi metabolizm asosiy metabolizmdan olingan qurilish bloklari va biosintez fermentlari yordamida birlamchi metabolizmga bog'langan. Birlamchi metabolizm, o'simlikning o'sishi va urug'ini o'stirishga imkon beradigan barcha asosiy fiziologik jarayonlarni genetik kodni oqsillarga, uglevodlarga va aminokislotalarga aylantirish orqali boshqaradi. Ikkilamchi metabolizmning ixtisoslashgan birikmalari mutotsional (masalan, changlatuvchi kabi foydali organizmlarni jalb qilish) yoki antagonistik o'zaro ta'sirda (masalan, o'txo'rlar va patogenlarga qarshi to'xtatuvchi) boshqa organizmlar bilan aloqa qilish uchun juda muhimdir. Ular ultrabinafsha nurlanishining ko'payishi kabi abiotik stressni engishga yordam beradi. Ixtisoslashgan metabolizmning keng funksional spektri hali ham to'liq o'rganilmagan. Qanday bo'lmasin, birlamchi va ikkilamchi metabolizm mahsulotlari o'rtasidagi yaxshi muvozanat o'simlikning optimal o'sishi va rivojlanishi uchun, shuningdek tez-tez o'zgarib turadigan atrof-muhit sharoitlari bilan samarali kurashish uchun eng yaxshisidir. Taniqli ixtisoslashgan birikmalar tarkibiga alkaloidlar, polifenollar, shu jumladan flavonoidlar va terpenoidlar kiradi. Odamlar ushbu birikmalardan yoki ular kelib chiqqan

o'simliklardan oshxona, dorivor va nutrasevtik maqsadlarda juda ko'p foydalanadilar.

Ikkilamchi o'simlik metabolizmini tadqiq qilish, bиринчи navbatda, 19-asrning ikkinchi yarmida boshlandi, ammo bu birikmalarning aniq funksiyasi va foydaliligi to'g'risida hali ham ko'p chalkashliklar mavjud edi. Faqatgina o'sha ikkilamchi zavodgina ma'lum bo'lgan metabolitlar birlamchi metabolizmning "yon mahsuloti" bo'lgan va o'simlikning omon qolishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lмаган. Dastlabki tadqiqotlar faqat ikkilamchi o'simlik metabolitlarini toifalarga ajratish bo'yicha muvaffaqiyatga erishdi, ammo ikkilamchi o'simlik metabolitlarining haqiqiy faoliyati to'g'risida aniq ma'lumot bermadi. O'simliklar metabolitlarini o'rganish 1800-yillarning boshlarida Fridrix Villxelm Serturner morfinni ko'knori ko'knoriidan ajratib olgandan keyin boshlangan deb o'ylashadi va shundan so'ng yangi kashfiyotlar tezkor ravishda amalga oshiriladi. 1900-yillarning boshlarida ikkilamchi o'simlik metabolizmi atrofidagi asosiy tadqiqotlar shakllanishiga bag'ishlangan edi ikkilamchi metabolitlar o'simliklarda va ushbu tadqiqot iz qoldirish usullaridan foydalanib, xulosani chiqarishga yordam berdi metabolik yo'llar juda oson. Biroq, 1980-yillarga qadar ikkilamchi o'simlik metabolitlari funktsiyalari bo'yicha hali ko'p tadqiqotlar olib borilmadi. O'sha vaqtga qadar ikkilamchi o'simlik metabolitlari shunchaki chiqindi moddalar deb hisoblanardi. Ammo 70-yillarda yangi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ikkilamchi o'simlik metabolitlari o'simlikning o'z muhitida omon qolishida ajralmas rol o'ynaydi. Bu davrning eng yangi g'oyalaridan biri o'simliklarning ikkilamchi metabolitlari atrof-muhit sharoitlariga qarab rivojlanib bordi va bu ikkilamchi metabolitlarning yuqori gen plastisitivligini ko'rsatdi, ammo bu nazariya qabul qilinishidan taxminan yarim asr oldin e'tiborsiz qoldirildi. So'nggi paytlarda, ikkilamchi o'simlik metabolitlari atrofidagi tadqiqotlar genlar darajasi va o'simlik metabolitlarining genetik xilma-xilligi atrofida. Hozir biologlar genlarni kelib chiqishini aniqlashga va evolyutsion yo'llarni qayta qurishga harakat qilmoqdalar

## **9.7.Birlamchi va ikkilamchi o'simlik metabolizmi.**

O'simlik tarkibidagi birlamchi metabolizm o'simlikning yashashi uchun zarur bo'lgan barcha metabolizm yo'llarini o'z ichiga oladi. Birlamchi

metabolitlar - bu o'simlikning o'sishi va rivojlanishida bevosita ishtirok etadigan birikmalar, ikkilamchi metabolitlar - bu boshqa metabolik yo'llarda ishlab chiqarilgan, garchi bu muhim bo'lsa-da, o'simlikning ishlashi uchun muhim emas. Shu bilan birga, ikkinchi darajali o'simlik metabolitlari uzoq vaqt davomida, ko'pincha uchun foydalidir mudofaa maqsadlari va o'simliklarga rang kabi xususiyatlarni bering. Ikkilamchi o'simlik metabolitlari signalizatsiya va asosiy metabolik yo'llarni boshqarishda ham qo'llaniladi. Ikkilamchi metabolitlar bo'lgan o'simlik gormonlari ko'pincha hujayralar ichidagi metabolik faollikni tartibga solish va o'simlikning umumiy rivojlanishini nazorat qilish uchun ishlatiladi. Yuqorida "Tarix" yorlig'ida aytib o'tilganidek, ikkilamchi o'simlik metabolitlari o'simlikka atrof-muhit bilan murakkab muvozanatni saqlashga yordam beradi, ko'pincha atrof-muhit ehtiyojlariga moslashadi. Bunga o'simlikni rang beradigan o'simlik metabolitlari yaxshi misoldir, chunki o'simlik ranglanishi changlatuvchilarni jalb qilishi va shuningdek, hayvonlar hujumidan himoya qilishi mumkin.

### 9.7.1. Atropin.

Atropin tropan alkaloid deb ataladigan ikkilamchi metabolitning bir turi. Alkaloidlar nitrogenlarni o'z ichiga oladi, ular tez-tez halqa tuzilishida va ulardan olinadi aminokislotalar. Tropan azotni o'z ichiga olgan organik birikma bo'lib, u tropandan atropin olinadi. Atropin orasidagi reaktsiya bilan sintezlanadi tropin va tropin, atropinaza bilan katalizlanadi. Ushbu reaktsiyaga aloqador ikkala substrat ham aminokislotalardan, tropin piridindan (bir necha bosqich orqali) va tropadan to'g'ridan-to'g'ri olinadi fenilalanin. Ichida Atropa belladonna atropin sintezi asosan o'simlikning ildizida sodir bo'lishi aniqlandi. O'simlik ichidagi sintetik joylarning kontsentratsiyasi ikkilamchi metabolitlarning xususiyatidan dalolat beradi. Odatda, ikkilamchi metabolitlar organizm ichidagi hujayralarning normal ishlashi uchun zarur emas, ya'ni butun organizmda sintetik joylar kerak emas. Atropin emas a birlamchi metabolit, u organizmning biron bir qismi bilan o'zaro ta'sir qilmaydi, bu o'simlik bo'ylab sayohat qilishiga imkon beradi.

### 9.7.2.Siyanogen glikozid.

Ko'pgina o'simliklar o'zlarining metabolizmidan yodni chiqarib, yod etishmaydigan quruqlik muhitiga moslashdilar, aslida yod faqat hayvon hujayralari uchun zarurdir. Parazitlarga qarshi muhim choralar hayvon hujayralarining yodid transportini blokirovkalashidan kelib chiqadi natriy-yodidni qo'llab-quvvatlovchi (NIS). Ko'p o'simlik pestitsidlari ajralib chiqadigan siyanogen glikoziddir siyanid, bu blokirovka sitoxrom s oksidaza va NIS, faqat parazitlar va o'txo'rlearning katta qismi uchun zaharli bo'lib, unda foydali bo'lgan o'simlik hujayralari uchun emas. Ikkilamchi metabolitlarning o'simliklarni himoya qilish mexanizmlarida qanday rol o'ynashi haqida yaxshiroq bilish uchun biz taniqli himoya bilan bog'liq bo'lgan ikkilamchi metabolitlarga, siyanogen glikozidlarga e'tibor qaratishimiz mumkin. Ushbu ikkilamchi metabolitlarning birikmalari 2000 dan ortiq o'simlik turlarida uchraydi. Uning tuzilishi ozod qilishga imkon beradi. Siyanid, ko'plab o'simliklarda uchraydigan ba'zi bakteriyalar, zamburug'lar va suv o'tlari tomonidan ishlab chiqarilgan zahar. Hayvonlar va odamlar o'z tizimlaridan siyanidni tabiiy ravishda zararszlantirish qobiliyatiga ega. Shuning uchun siyanogen glikozidlardan har doim hayvon tizimlarida ijobjiy foyda olish uchun foydalanish mumkin. Masalan, janubiy armiya qurtlari lichinkalari tarkibida boshqa metabolit bo'lgan o'simliklardan farqli o'laroq, ushbu metabolitni o'z ichiga olgan va parhezida ushbu metabolit bilan yaxshi o'sish ko'rsatkichini ko'rsatgan o'simliklarni iste'mol qiladi. Ushbu misolda siyanogen glikozidlarning lichinkalar uchun foydali ekanligini ko'rsatsa-da, ko'pchilik bu metabolitning zarar etkazishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Siyanogen glikozidlarning zararli yoki yo'qligini aniqlashda yordam berish uchun tadqiqotchilar uning biosintezi yo'lini yaqindan ko'rib chiqadilar O'tmishdagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'simlik urug'ida saqlanadigan siyanogen glyukozidlar nihol paytida metabolizmga uchraydi va ko'chat o'sishi uchun azot ajratadi. Bu bilan siyanogen glikozidlar o'simlik metabolizmasida turli xil rol o'ynaydi degan xulosaga kelish mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar bilan o'zgarishi mumkin bo'lsa-da, siyanogen glikozidlar o'simliklarning infektsiyalari uchun javobgar ekanligini ko'rsatadigan hech qanday dalil yo'q.

#### Fitik kislota

Fitik kislota o'simlik urug'larida fosforni saqlashning asosiy usuli hisoblanadi, ammo ko'plab hayvonlar tomonidan osonlikcha singib ketmaydi (faqat so'rildi) kavsh qaytaruvchi hayvon hayvonlar). Fitik kislota nafaqat fosforni saqlash birligi, balki u energiya manbai va kationlar, tabiiy antioksidant o'simliklar uchun va manbai bo'lisi mumkin mioinositol bu hujayra devorlari uchun dastlabki qismlardan biridir.

Fitik kislota, shuningdek, turli xil minerallar bilan bog'lanib turishi ma'lum va shu bilan bu mineralarning singishini oldini oladi; fitik kislotasini ozuqa moddalariga qarshi qilish.Yong'oq va urug'lardagi fitik kislotalari ozuqa moddalariga qarshi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda juda ko'p tashvishlanmoqda. Fitik kislota konsentratsiyasi yuqori bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlashda ularni sirtini ko'paytirish uchun maydalanganidan keyin ho'llash tavsiya etiladi.Emdirish urug 'o'tishiga imkon beradi nihol vitaminlar va ozuqa moddalarining mavjudligini oshiradi, shu bilan birga fitik kislota va proteaz inhibitörleri, natijada ozuqaviy qiymatni oshirish. Ovqat pishirish, shuningdek, oziq-ovqat tarkibidagi fitik kislota miqdorini kamaytirishi mumkin, ammo ho'llash ancha samaralidir.

Fitik kislota an antioksidant saqlanish maqsadiga xizmat qiladigan o'simlik hujayralarida uchraydi. Ushbu konservatsiya namlanganda olib tashlanadi, fitik kislotani kamaytiradi va urug'ning unib chiqishi va o'sishiga imkon beradi. Oziq-ovqat mahsulotlariga qo'shilsa, lipid peroksidatsiyasini inhibe qilish orqali rang o'zgarishini oldini olishga yordam beradi.Fitik kislota xelatlanmasi saraton kasalligini davolashda potentsial foydalanish imkoniyatiga ega bo'lisi mumkin degan ba'zi fikrlar mavjud.

### **Gossipol**

Gossipol sariq pigmentga ega va paxta o'simliklarida uchraydi. Bu asosan paxta o'simliklarining har xil turlarining ildizida va yoki urug'larida uchraydi.Gossipol turli xil kimyoviy tuzilishlarga ega bo'lisi mumkin. U uchta shaklda mavjud bo'lisi mumkin: gossipol, gossipol sirka kislotasi va gossipol formik kislota. Ushbu shakllarning barchasi juda o'xshash biologik xususiyatlarga ega. Gossipol aldegidning bir turi, ya'ni uning formil guruhi bor. Gossipol hosil bo'lisi izoprenoid yo'l orqali sodir bo'ladi. Izoprenoid yo'llar ikkilamchi metabolitlar orasida keng tarqalgan.Gossipolning paxta

zavodidagi asosiy vazifasi fermentlar inhibitori vazifasini bajarishdan iborat.

Bir muncha vaqt gossipol shunchaki paxta mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan chiqindi moddadir, deb ishonishgan. Keng qamrovli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, gossipol boshqa funktsiyalarga ega. Gossipol bo'yicha ko'plab mashhur tadqiqotlarda uning erkak sifatida qanday harakat qilishi mumkinligi muhokama qilinadi kontratseptiv. Gossipol shuningdek, hipokalemik falajni keltirib chiqarishi bilan bog'liq. Gipokalemik falaj - bu mushaklarning kuchsizlanishi yoki qonda kaliy darajasining mos tushishi bilan falaj bilan tavsiflangan kasallik. Gossipolni qabul qilish bilan bog'liq bo'lган gipokalemik falaj odatda mart oyida, sabzavot etishmasligi paytida va sentyabrda, odamlar ko'p terlaganda sodir bo'ladi. Gossipolni qabul qilishning bu yon ta'siri juda kam uchraydi. Gossipolni keltirib chiqaradigan gipokalemik falaj, kaliyning ko'payishi bilan osonlikcha davolanadi.

### Fitoestrogenlar

O'simliklar tabiiy ravishda odamlar tomonidan ishlab chiqarilmaydigan, ammo inson salomatligini muhofaza qilish yoki yo'q qilishda muhim rol o'ynashi mumkin bo'lган ikkinchi darajali metabolitlar deb ataladigan ba'zi birikmalarni sintez qiladi. Bunday metabolitlar guruhidan biri fitoestrogenlar, yong'oq, moyli urug'lar, so'ya va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarida uchraydi. Fitoestrogenlar estrogen gormoni singari ta'sir qiluvchi kimyoiy moddalardir. Estrogen ayollarning suyagi va yuragi salomatligi uchun muhimdir, ammo uning yuqori miqdori ko'krak saratoni bilan bog'liq. Zavodda fitoestrogenlar qo'ziqorinlardan himoya qilish tizimida ishtirok etadi. Fitoestrogenlar inson tanasida ikki xil ish qilishi mumkin. Kam dozalarda u estrogenga taqlid qiladi, ammo yuqori dozalarda u aslida organizmning tabiiy estrogenini bloklaydi. Tanadagi estrogen tomonidan stimulyatsiya qilingan estrogen retseptorlari fitoestrogenni tan oladi, shuning uchun organizm o'z gormonini ishlab chiqarishni kamaytirishi mumkin. Bu salbiy natija beradi, chunki estrogen bajarmaydigan fitoestrogenning turli xil qobiliyatları mavjud. Uning ta'siri hujayralar orasidagi aloqa yo'llariga ta'sir qiladi va organizmning boshqa qismlariga ta'sir qiladi, bu erda estrogen odatda rol o'ynamaydi.

### 9.7.3.Karotenoidlar.

Karotenoidlar tarkibidagi organik pigmentlardir xloroplastlar va xromoplastlar o'simliklar. Ular, shuningdek, suv o'tlari, zamburug'lar, ba'zi bakteriyalar va shira ba'zi turlari kabi ba'zi organizmlarda uchraydi. 600 dan ortiq karotenoidlar mavjud. Ular ikkita sinfga bo'lingan, ksantofillalar va karotinlar. Ksantofillalar - bu kislorod o'z ichiga olgan molekulalari bo'lgan karotenoidlar lutein va zeaxanthin. Karotenlar - bu kislorodsiz bo'lgan molekulalari bo'lgan karotenoidlar a-karotin, b-karotin va likopen O'simliklarda karotenoidlar ildizlarda, poyalarda, barglarda, gullarda va mevalarda paydo bo'lishi mumkin. Karotenoidlar o'simliklarda ikkita muhim funksiyaga ega. Birinchidan, ular fotosintezga hissa qo'shishi mumkin. Ular buni yutadigan yorug'lik energiyasining bir qismini o'tkazish orqali amalga oshiradilar xlorofillalar, keyinchalik bu energiyani fotosintez uchun ishlatadi. Ikkinchidan, ular quyosh nurlari ta'sirida bo'lgan o'simliklarni himoya qilishlari mumkin. Ular buni issiqlik sifatida singdiradigan ortiqcha yorug'lik energiyasini zararsiz ravishda tarqatish orqali amalga oshiradilar. Karotenoidlar bo'lmasagan taqdirda, bu ortiqcha yorug'lik energiyasi oqsillarni, membranalarni va boshqa molekulalarni yo'q qilishi mumkin. Ba'zi o'simlik fiziologlari karotenoidlar o'simliklarda ma'lum rivojlanish reaktsiyalarining regulatoryori sifatida qo'shimcha funksiyaga ega bo'lishi mumkin deb hisoblashadi Tetraterpenlar o'simliklar va ba'zi bakteriyalardagi DOXP prekursorlaridan sintez qilinadi. Fotosintez bilan shug'ullanadigan karotenoidlar xloroplastlarda hosil bo'ladi; Boshqalari plastidlarda hosil bo'ladi. Qo'ziqorinlarda hosil bo'lgan karotenoidlar, ehtimol, mevalon kislotasining kashshoflaridan hosil bo'ladi. Karotenoidlar geranilgeranil pirofosfat yoki difosfat (GGPP) ning boshdan-kondensatsiyalanishi natijasida hosil bo'ladi va NADPHga ehtiyoj yo'q

Ikkilamchi metabolitlar: xususiyatlar va qo'llanma. Birlamchi va ikkilamchi metabolizm va mahsulotlar hujayradagi biologik funksiyalarining ikkilamchi metabolitlarining ikkilamchi metabolitlarini almashtirish

"Ikkilamchi metabolitlar" va "Ikkilamchi metabolizm" atamalari XIX asr oxirida Kossel professori tomonidan engil qo'l bilan. 1891 yilda, Berlinda u "hujayralarning kimyoviy tarkibi to'g'risida" deb nomlangan fiziologik jamiyat ma'ruzasi yig'ilishini o'qidi. Bu yil archki

fiziologiyasida chop etilgan ushbu ma'ruzada u moddaning hujayra tarkibiy qismlarini boshlang'ich va ikkilamchi bo'lish taklif qildi. "Har bir o'simlik hujayrasida birlamchi metabolitlar mavjud bo'lsa, bozorlarda ikkilamchi metabolitlar faqat" beixtiyor "va o'simlik hayoti uchun zarur emas.

Ushbu birikmalarning tasodifiy tarqalishi, ularning o'simliklarning yaqin turidagi tartibsizliklari har bir hujayra uchun bo'lмаган bo'lмаган jarayonlar bilan bog'liqligini anglatadi, ammo har bir hujayralar uchun muhim bo'lgan qo'ng'iroq birikmalarini taklif qilaman ... Birlamchi va biron bir o'simlik hujayrasida bo'lмаган birikmalar ikkilamchi. " Bu yerdan "Ikkilamchi metabolitlar" nomining kelib chiqishi - keyin ikkinchi darajali, "tasodifiy".

Birlamchi metabolizmning aralashmalari aniq - bu birinchi navbatda oqsillar, yog', uglevodlar va nuklein kislotalar. To'g'ri, quyon birlamchi metabolitlarni har bir ishlab chiqaradigan o'simlik hujayrasi uchun zarur bo'lgan bir necha yuz kam molekulyar og'irliklar deb hisobladi. Yaqin vaqtgacha ikkilamchi Matabolitlar ham maxsus nizolar mavzusi bo'lib xizmat qilishmadi. Ko'plab tadqiqotchilar Kossel bilan kelishib, bu ba'zi bir tadqiqotchilar bu "eksantriks" metabolizm, ruxsat etilgan ortiqcha narsalarga ishonishdi. Adabiyotdagi bunday birikmalar ba'zan "hashamatli hashamatli moddalar" deb nomlanadi.

Faol agentlarning aksariyati o'simliklardan olindi. Birinchi bunday aralash - alkaloid morfi, bu 1803 yilda afyundan ajratilgan (quritilgan poppy quti sharbati) German farmatsevt kemasi. Aslida, ushbu tadbir oliy zavodlarning ikkilamchi metabolitlarini o'rganishning boshlanishi deb hisoblash mumkin.

Keyin boshqa alkaloidlar bor edi. 1816- yilda Xarkov universiteti professori Kinhonin Xinniy daraxtidan olingan, ammo deyarli 1820 yilda seken va finalinning sof shaklida ajratilgan Ginna yog'ochining alkaloidining alkalina alkaloidining kashfiyoti. .

1818 -yilda komisor va pelette quşish (Chilibuxi urug'lari Stribux noks-Vomika L.) strichnindan ajratildi; 1920 yilda yugurish kofeinni qahvada topilgan; 1826 -yilda Gizekke Boligolda Koninni ochdi (konium macuatum l); 1828 yilda, ega va Rayman tamakidan nikotinni ajratib olishdi; 1831- yilda, Meynelening Belladonna (Atropa Beadonna L.) dan Atropinni oldi.

Terapevtik maqsadlar uchun tabiiy boyitish vositasidan foydalanish antibiotiklar ishlab chiqaradigan qo'ziqorin va aktinomiket

bilan cheklanmaydi. Xususan, o'simliklar sintetik jarayonlarning ajoyib variantlari bilan ajralib turadi, ularning asosiy mahsulotlari eng ko'pgina kimyoviy tuzilish aralashmalari bilan ifodalanadi. Zamonaviy tibbiyotda o'simlik egalarining yog 'kislotalari, moylari, polizakaridlar, shuningdek, turli xil ikkilamchi metabolitlardan foydalaniladi. Ikkilamchi metabolizm, barcha organizmlar uchun umumiylashtirilgan farqli o'laroq, taksonomik o'ziga xoslik bilan ajralib turadi. O'simliklarning ikkilamchi metabolizmi - bu differentsim hujayralari va to'qimalarining o'ziga xos xususiyati bo'lib, u faqat ixtisoslashgan organlarga xosdir, bu hayotiy tsiklning ayrim bosqichlariga belgilangan. Ikkilamchi metabolitlarning asosiy sinflari tarkibiga alkaloidlar, isopenoidlar va phenolik birikmalar kiradi. O'simliklar, sianogenik glikozidlar, pikikik usullar, vitaminlar ham sintez qilinadi. 30 ta taniqli vitaminlar, taxminan 20 ga yaqin inson tanasini sabzavotli ovqat bilan to'ldiradi. Ro'yxatdan o'tgan aralash klasslar, shuningdek, ular ajralib turadigan o'simliklar stolda taqdim etiladi.

o'tli o'tlar (*Leonurus koria*), o'lmaselle gullari (*Hindichyzum arenariar*) ning ildizlarida to'planadi. Flavonoidlar keng miqyosli farmakologik harakati bilan ajralib turadi. Ularda xoleretik, bakteritsid, antispazmodik, kordopodik ta'sir ko'rsatadi, tomirlarning mo'rtlik va tamzilini kamaytiradi (rozetka) tanadan radionuklidni olib tashlaydi, shuningdek saratonga qarshi ta'sir ko'rsatadi.

### **NAZORAT SAVOLLARI.**

- 1.Birlamchi metabolit nima?
- 2.Ikkilamchi metabolitning oziga xos xususiyati.
- 3.Birlamchi metabolitlarga nimalar kiradi?
- 4.Ikkilamchi metabolitlarga nimalar kradi?

## X BOB. FENOLLI BIRIKMALAR.

### 10.1. Fenolli birikmalar.

Fenollar o'simliklar olamida keng tarqalgan xilma-xil moddalarni uz ichiga oladigan katta gruppasi tashkil qiladi. Tarkibida bitta yoki bir nechta gidroksil gruppasi tutuvchi aromatik yoki benzol halqa bulishi fenollarga xos umumiylidir. Barcha fenol birikmalari fenol ( $S_6N_5ON$ )ning hisoblanadi. Benzol halqada ikkita va undan ortiq gidroksil gruppasi tutuvchi birikmalar *polifenollar* deb ataladi.

Yaqin vaqtgacha fenol birikmalari moddalar almashinuvining oxirgi mahsuloti, Ya'ni uziga xos chiqindi sifatida ma'lum 'di. Birok keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida ular (lignindan tashqari) xujayrada sodir buladigan moddalar almashinuviniig aktiv metabolitlari 'kanligi tula isbotlangan. Fenol birikmalarini, ayniqsa, choy va tok o'simliklari tarkibida uchraydigan katexinlarni har tomonlama uraganishda akademik A. L. Kursanov, M. N. Zapromyotov va S. V. Durmishidzelarning xizmati katta.

Fenol birikmalari nafas olish (koferment Q) va fotosintez (plastixinon) prosesslarida vodorod atomining kuchirilishida ishtirok 'tadi. O'simliklar uz tanasida tuplanadigan fenollardan zapas modda sifatida foydalanishi aniqlangan.

Polifenol birikmalari fitonsidlik xususiyatiga ega bo'lib, o'simliklarning zamburug' va bakteriyalar quzgatadigan kasalliklarga chidamlilagini (immunitetini) oshiradi. Bular o'simliklarning o'sish prosessi boshqarilishida ham aktiv ishtirok 'tadi. Gul, meva, barg va poyalarning tabiiy rangi polimer fenollar hisoblangan flavonoidli pigmentlarga bogliq.


O'simliklarning turli organ va to'qimalarida uchraydigan fenol birikmalari faqat miqdor jihatdan 'mas, balki sifat jihatdan ham bir-biridan far qiladi. Chunki ularning har xil bioximiya viy prosesslarda ishtirok 'tishi tuzilishi va polimerlanish darajasi bilan aniqlanadi. Ko'pchilik oddiy fenol birikmalari osonlik bilan oksidlanadi va moddalar almashinuvida aktiv ishtirok 'tadi. SHuning uchun ham ular aksariyat bioximiya viy prosesslar 'ng aktiv boradagan barg, gullardagi va o'sish nuqtasidagi tuqimalarda mujassamlashgan buladi. Fenol

birikmalarining polimerlari ‘sa bioximiyyaviy jihatdan birmuncha inert bo’lib, asosan, qoplovchi va o’sishdan tuxtagan tuqimalarda uchraydi.

Barcha fenol birikmalari tarkibidagi aromatik (benzol) halqaning soniga qarab uchta asosiy gruppaga: bir halqali fenollar, ikki halqali fenollar va polimer fenol birikmalariga bulinadi. 190-betda fenol birikmalari klassifikasiyasi berilgan.

Bir halqali fenollar (monofenollar)

Monofenollarning hosilalari hisoblangan oddiy aromatik birikmalar uz navbatida bir necha gruppaga bulinadi. Bu gruppalarda  $S_6$  — struktura tuzilishiga ega bulgan bnrikmalarga gidroxinon, gvayakol, florglyusin, pirogallol kiradi:




Bu birikmalar o’simliklar tarkibida ‘rkin holda uchramaydi.  $C_6$ — $C_1$ —strukturali birikmalarga ( $C_6$ —oltita uglerodli benzol halqa.  $C_1$ —bitta uglerod atomidan iborat bulgan yonbosh zanjir) fenilkarbon kislotalar va ularning hosilalari — protokatexat, vanilat, gallat, oksibenzoat, salisilat kislotalar kiradi:

$C_6$ — $C_2$  — strukturali birikmalar dolchin kislota va ularning hosilalaridan iborat bulgan gruppaga va kumarinlarga bulinadi. Dolchin kislotalarning ‘ng kup tarqalgan hosilalariga n-kumar va kofein kislotalar va ularning metillashgan hosilalari — ferul hamda sinap kislota kiradi.

Yuqoridagi kislotalar tarkibida fenolli hidroksil va karboksil gruppalar bulganligi uchun ular bir-biri bilan uzaro reaksiyaga kirishib, depsidlar deb ataladigan murakkab ‘fir tipidagi birikmalarni hosil qiladi. O’simliklar tarkibidagi barcha dolchin kislotalardepsidlar sifatida uchraydi. Bunday birikmalarga xlorogen kislotani misol qilib kursatish mumkin. Bu birikma kofein va xinna kislotalardan tashkil topganumarinlar dolchin kislotalarning laktonlari hisoblanadi.

Masalan, kumarin o-oksidolchin kislotaning, skopoletin ‘sa o-oksiferul kislotaning laktoni hisoblanadi:




O-ferul kislota skopoletin

Kumarinlar ko'pgina o'simliklar tarkibidan topilgan. Ular ayniqsa qashqarbeda va qizil tomir (Asperula humifusa) da ko'p uchraydi. Kumarindan pichan yoki poxol hidi keladi.


Bu gruppaga mansub birikmalar tarkibida ikkita aromatik halqa bo'lib, ) har xil moddalarni uz ichiga oladi. Ikki halqali fenollarning barchasi S<sub>6</sub>—S<sub>3</sub>—S<sub>6</sub>— struktura tuzilishga ega va flavonoidlar, izoflavonoidlar hamda rotenoidlarga bulinadi. Ikki halqali fenollarning aksariyati flavonoidlarga mansub bo'lib, ular tabiatda 'ng ko'p tarqalgan polifenollar hisoblanadi. Flavonoidlar tarkibidagi uch uglerodli bog'lovchi fragmentning strukturasi va molekulaning oksidlanish darajasiga qarab ular quyidagi gruppalarga: katexinlar, flavonlar, flavononlar, flavonollar, flavononollar, antosianlarga bulinadi.

Katexinlar oshlovchi moddalarning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bu birikmalar flavonoidlar ichida uta qaytarilgan birikmalar hisoblanadi. Katexin osonlik bilan oksidlanib, turli rangga kiradi. Masalan, choy qora, qizil va sariq rangda bulishi ular bargidagi katexinlarning oksidlanish darajasiga bog'liq. Katexinlar bir necha shaklda uchraydi:




Flavonlar va flavonollar o'simliklarda ko'p tarqalgan bo'lib, asosan ikki xil flavon — apigenin va luteolin ko'proq uchraydi. Flavon ayniqsa navruzguldoshlar oilasiga mansub bulgan o'simliklar bargida unsimon oq yupqa qatlam hosil qiladi. Flavonlar fil suyagi rangi va och

sariq rangda bo'lib, boshqa pigmentlarga nisbatan rang berish xususiyati kam:



Deyarli to'liq gidroksillangan digisetrin ham flavonlarga mansub bo'lib, asosan, angishvonagulda uchraydi.


Tabiatda flavonollarning metillashgan xilma-xil



hosilalari uchraydi. Lekin ular o'simliklar tarkibida ko'p bulmaydi:

Flavonollar ko'pincha antosianidlar bilan birga uchraydi. Bularga kemferol, kvarsetin va mirisetin kiradi. Flavonollarga 6- va 8-uglerod atomlarida qo'shimcha ravishda hidroksil gruppalar tutuvchi va kemferol, kvarsetinga xos bulgan sariq rangga nisbatan yanada tuqroq rangli birikmalar ham kiradi. O'simliklar gulining rangi ko'p jihatdan ana  $\text{L}-\text{on}$  shu birikmalarga bog'liq buladi:

Izoflavonlar o'simliklarda kamdan-kam uchraydi. Ular faqat dukkakdoshlar oilasiga mansub bulgan ba'zi o'simliklardan topilgan. Masalan, genista (Genista) o'simligi barglaridan olingan genistin izoflavonlarga mansub. O'simliklar immunitetida muhim ahamiyatga ega bo'lgan moddalarning ko'pchiligi izoflavonli tuzilishga ega. Masalan, fitoaleksin hisoblangan pizatin shunday birikmalarga




misol buladi

Antosianlar gul va mevalar tarkibida uchraydigan muhim pigment hisoblanadi. Antosianlar glikozidlar bo'lib, ularning aglikonlari *antosianidinlar* deb ataladi. Antosianlar suvda yaxshi 'riydi, lekin aglikonlar erimaydi.

Antosianlar binafsha rangda buladi, K<sup>+</sup>, Na<sup>+</sup>, Fe<sup>2+</sup> ionlari bilan birikib, zangori yoki kuk rang, kislotalar, masalan, fosfat kislota bilan birikib qizil rang hosil qiladi. Demak o'simliklar tukimasi yoki hujayraning pH o'garsa, antosianlar ham o'z rangini o'zgartiradi. Antosianlar barcha yuksak o'simliklar tarkibida uchraydi, ular asosan rang berish xususiyatiga ega.

Antosianlarning tuzilishidagi uziga xos xususiyat shundan iboratki, ularning piran halqasidagi kislorod erkin valent- likka ega. Biroq kislorod yoki uglerod atomining qaysi biri 'rkin musbat zaryadga ega 'kanligi aniqlanmagan, shu sababli ko'pincha antosianlarning molekulasi neytral shaklda tasvirlanadi:



Antosianlar uz molekulasidagi e'rkin musbat zaryad tufayli kislotali eritmada kation sifatida namoyon buladi va kislotalar bilan tuz hosil qiladi. Ishqoriy sharoitda esa ular anion sifatida asoslar bilan tuz hosil qiladi. Muhit rN ning o'zgarishiga qarab, antosianlarning rangi ham o'zgaradi. Antosianlar kislotali muhitda och, to'q qizil, sarg'ish, binafsharang, ko'kintir buladi. Ma'lumki, g'o'za guli vaqt utishi bilan rangini sariq tusdan qizil-gunafsha rangga o'zgartiradi. Bu gultojibarglar hujayrasi shirasiiring pH kislotali tomonga o'zgarganligini ifodalaydi.

Muhim antosianlarga qizil rangli pelargonidin, malina rangli sianidin, qizrish rangli delfinidin va ularning metilli 'firlari — pionidin, petunidin va malvidinlar kiradi

### **NAZORAT SAVOLLARI.**

- 1.Ikki halqali fenollar.
- 2.Ikki halqali fenolli birikmalar klassifikasiyasi.
- 3.Ikki halqali fenollarning ahamiyati
- 4.Bir halqali fenol va ularning o'simlikda uchrashi

## XI BOB. ALKALOIDLI O'SIMLIKLER.

### 11.1. Alkaloidli o'simliklar.

O'simliklar (qisman hayvonlar) to'qimalarida tayyor holda bo'ladijan asosli (ishqorli) xossaga va kuchli fiziologik ta'sirga ega bo'lgan azotli murakkab organik birikmalar alkaloidlar deb ataladi. Alkaloid arabcha — "*alkali*" — ishqor va yunoncha "*eydos*" — o'xhash (simon) so'zlaridan iborat bo'lib, ishqorsimon birikma degan ma'noni bildiradi. Bu alkaloidlarning asosli xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. 1819-yilda Meysner sabadilla o'simligidan asos xossalni birikma ajratib oldi va uni birinchi bo'lib alkaloid deb atadi. Tarkibida alkaloid bo'lgan o'simliklar qadimdan ishlatib kelinsa-da, bundan taxminan 200 yil muqaddam alkaloidlarni o'rganish va tekshirish sohasida ilmiy ishlar boshlandi. 1792-yilda fransuz olimi Furkrua vin daraxti po'stlog'i tarkibidagi alkaloidlarni tekshirdi va ularni smola holida ajratib oldi. 1797-yilda Borne, 1804- yilda Derozn hamda fransuz farmatsevti Segeñ opiy alkaloidlaridan narkotin bilan morfin ajratib oldi va uni «*opiy tuzi*» deb atadi. Shunday bo'lsada, alkaloidlarni tekshirgan birinchi kishi nemis dorixonachasi Sertyurner hisoblanadi. U 1806-yilda opiydan kristall holda alkaloid ajratib oldi va 1811-yilda bu birikmaga morfin deb nom berdi 1918-yiliarda rus olimi akademik A.P. Orexov tomonidan Rossiyada ilmiy-tadqiqot instituti qoshida birinchi marta alkaloidlar bo'imi tashkil etildi va Rossiyada alkaloid bo'lgan o'simliklarni o'rganishga asos solindi. 1930—1937-yillarda laboratoriya xizmatchilari A.P. Orexov rahbarligida 80 ta alkaloidli yangi o'simliklarni topdilar hamda ulardan ta yangi alkaloid ajratib oldilar. Bu vaqtda butun dunyoda hammasi bo'lib 113 ta, jumladan, Hindistonda 20, Yaponiyada 18. Angliyada !2, Xitoyda 10 ta yangi alkaloid topilgan edi. Shunday qilib, Rossiya alkaloidli o'simliklarni o'rganish bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqib oldi. Bu davrda MDH shaharlari orasida Moskva, Sankt-Peterburg, Kiyev, Xarkov, Baku, Toshkent, Tomsk va boshqa shaharlarda alkaloidlarni o'rganish bo'yicha ilniiy tadqiqot ishlari avj olib ketgan edi. 1936-yildan boshlab Toshkent davlat universitetining (G'zMU) kimyo fakultetida G.V. Lazarevskiy va O.S. Sodiqov, O'zbekistorida yovvoyi holda o'sadigan alkaloidli o'simliklarni tekshira boshladilar. 1946-yilga kelib, shu fakultet qoshida o'simliklar kirnyosini oiganish kafedrasи tashkil qilindi. Hozir ham bu kafedra xodimlari O'zbekistonda o'sadigan

alkaloidli o'simliklarni tekshirishni davom ettirmoqdalar. 1943-yilda akademik S.Yunusov boshchiligidagi G'zbekiston Fanlar akademiyasi kimyo instituti qoshida alkaloidlar laboratoriyasi tashkil etildi. Ko'p o'tmay bu laboratoriya mamlakatimizdagi alkaloidlarni o'rganuvchi eng yirik markazga aylandi. Bu yerda ko'pgina malakali mutaxassislar yetishib chiqdi. 1943-1976-yillarda laboratoriya xodimlari tomonidan 160 tur o'simlik to'liq o'i-ganildi va ulardan 590 ta alkaloid ajratib olindi. Shulardan 295 tasi o'simliklardan birinchi marta ajratib olingan yangi alkaloiddir. 1976-yilgaeha MDH hududi bo'yicha 430 ta alkaloidning kimyoviy tuzilishi aniqlangan bo'lsa, shundan 245 tasining tuzilishi S.Yu. Yunusov rahbarligidagi laboratoriya xodimlari tomonidan tasdiqlangan. Hozir ham bu laboratoriyada ilmiy tadqiqot ishlari qizg'in davom etmoqda.

## **11.2.Alkaloidlar o'simliklar dunyosida tarqalganligi.**

Alkaloidlar o'simliklar dunyosida keng tarqalgan. 1974-yil ma'lumoti bo'yieha yer yuzida tarqalgan yuqori o'simliklarning 327 oilasidan 140 tasida (40% ini tashkil qiladi) alkaloidlar borligi aniqlangan. Tarkibida alkaloidlar bo'lgan turkumlar Yer sharida o'sadigan o'simliklar turkumlarning 8,7% ni (10615 turkumdan 926 tasini), turlar ichida esa taxminan 2% ini tashkil qiladi. Quyidagi oilalar vakillari alkaloidlarga boy: bir pallalilar ichida lolaguldoshlar (Liliaceae) va chuchmomadoshlar (Amaryllidaceae); ikki pallalilar ichida kendirdoshlar (Arosunaseae), ayiqtovondoshlar anunculaceae), menispermadoshlar (Menispermaceae), ko'knordoshlar (Papaveraceae), dukkakdoshlar (Fabaceae) shamshoddoshlar (Buxaceae), loganiyadoshlar (Loganiaseae), ituzunidoshlar (Solanaceae), sho'radoshlar (Chenopodiaceae), astradoshlar (Asteraceae) inurakkabguldoshlar (Compositae), zirkdoshlar (Berberidaceae) va ro'yandoshlar (Rubiaceae). Hozircha Pandales, Salicales va Fagales tartibining vakillari tarkibida alkaloidlar topilganicha yo'q. Shu davr ichida butun yer yuzida ajratib olingan va tasvirlangan 4959 ta alkaloididan faqat birgina kendirdoshlar (Arosunaseae) oilasiga 897 ta alkaloid xillari to'g'ri keladi. O'simliklar tarkibida juda oz miqdordan tortib, to 10-15, ba'zan 25% gacha alkaloidlar bo'lishi mumkin. Traxilantus o'simligida 18% miqdorida alkaloidlar summasi topilgan. O'simliklarda bir-biriga yaqin ko'pgina alkaloid bo'ladi. Alkaloidlar soni ba'zi o'simliklar tarkibida 50 tadan

ortadi. Masalan, *Vinca erecta* o'simligining alkaloidlar summasidan 55 ta alkaloid xillari ajratib olingan. O'zaro (botanik jihatdan) yaqin bo'lgan o'simliklar tarkibida ko'pincha bir xil alkaloid bo'ladi. Masalan, ituzumdoshlar oilasiga kiradigan bir qancha o'simliklar (*Atropa L.*, *Hyoscyamus L.*, *Datura L.*, *Scopolia Jacq.* turlari) tarkibida tropan guruhiga xos alkaloidlar (atropin, giostsiamin, skopolamin) uchraydi. Ayni vaqtda bitta alkaloid botanik jihatdan bir-biriga bog'lanmagan, bir qancha oilalarda ham bo'lishi mumkin. Masalan, efedrin alkaloidi Ephedraceae, Celastraceae, Malvaceae, Papaveraceae va Taxaceae (ya'ni 5 ta), kofein alkaloidi Sapindaceae, Theaceae, Sterculiaceae, Rubiaceae, Aquifoliaceae, Liliaceae va boshqalar (ya'ni 16 ta) oilalariga kiradigan o'simliklar tarkibida uchraydi.

### **11.3. Alkaloidlarning o'simliklar hayotidagi ahamiyati.**

Alkaloidlarning o'simliklar hayotidagi roli haqida bir qancha fikrlar bo'lib, ular quyidagicha:

1. Bir guruh olimlar, alkaloidlar — o'simliklar hayotida hosil bo'lgan chiqindi modda;
2. Alkaloidlar o'simliklar uchun zaxira ozuqa o'rnila xizmat qiladi, degan nazariya ham bor. Ma'lum sharoitda o'simliklar alkaloiddan zaxira ozuqa sifatida foydalanishi mumkin.
3. Alkaloidlar o'simliklarni hasharotlardan va hayvonlardan himoya qiluvchi birikma. Alkaloidli o'simliklar zaharli bo'ladi, shuning uchun ular kam kasallanadi hamda hayvonlar bunday o'simliklarni deyarli iste'mol qilmaydi.
4. Alkaloidlar o'simliklar uchun kerakli biokimyoviy jarayonlarda faol ishtirok etadigan zarur birikma hamda hujayra va to'qimalarning ayrim spektr nurlariga sezgirligini, ularning reaktivlik sezgirligini kuchaytiradigan (scnsibilizer) birikmalar hisoblanadi. O'simliklar uchun turli alkaloidlar turlicha ahamiyatga ega. O'simlikning o'sish davrida gordenin alkaloidi asta sekin kamayib, ligninga aylanib ketadi. Nikotin oksidlanishidan hosil bo'lgan nikotin kislotaning amid formasi o'simliklarni ba'zi oksidlanish va qaytarilish jarayonida ishtirok etuvchi fermentlarning asosiy qismi hisoblanadi. Nikotin va konvolamin alkaloidlari o'z metil guruhini boshqa birikmalar sintezi uchun berishi mumkin. Piridin va piperidin alkaloidlari piridinnukleid fermentlar sintezida ishtirok etadi. O'simliklar to'qimasida alkaloidlarning oksidlangan N-oksid formasi o'zidan kislorod ajratib beradi va kerak

bo'lganda ortiqcha kislorodni o'ziga biriktirib, to'qimalardagi oksidlanish va qaytarilish jarayonlarida faol ishtirok etadi. Alkaloidlar o'simlik to'qimalarida bufer rolini ham bajarishi mumkin. O'simliklarning ko'karib turgan yer ustki qismida alkaloidlar odatda o'simlikning yaxshi o'sgan vaqtida maksimal miqdorda to'planadi. Bu davrda yer ostki organlarida alkaloidlar minimal miqdorda bo'lib, ularning maksimal miqdorda to'planishi yer ustki qismining qurib qolishi va o'simlikning uyquga kirish davriga to'g'ri keladi. Demak, alkaloidlar o'simliklarning ayni davrida kerak bo'lgan va nasi qoldirish uchun asosiy rol o'ynaydigan organlarida maksimal to'planar ekan. Bu hoi alkaloidlarning o'simliklar hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadigan dalillardan biridir. Haqiqatan ham alkaloidlarning kimyoviy tuzilishi turli variantlarda bo'lishini ko'z oldimizga keltirsak, yuqorida aytilgan, fikrlaming to'g'ri ekanligini isbotlash qiyin cmas. Shu bilan birga hamtna alkaloidlar o'simliklar to'qimasida bir xil biologic funksiyani bajaradi, deyish katta xatodir. Agar o'simlikka bir butun organizm deb qaralsa, alkaloidlar o'z tuzilishiga, o'simlik xususiyatiga qarab turli vazifalarni bajara oladi. Ular ma lum vaqtida zaxira ozuqa va himoya qiluvchi moddalar hamda o'simlik to'qimasida ro'y beradigan biokimyoviy jarayonlarda faol ishtirok etadigan zarur birikmalar sifatida xizmat qilishi mumkin.

#### **11.4. Alkaloidlarning fizik va kimyoviy xossalari.**

Ko'pchilik alkaloidlar rangsiz, optik faol (qutblangan nur tekisligini og'diruvchi), hidsiz, achchiq mazali, uchmaydigan, qattiq kristall yoki amorf tnodda. Shu bilan birga rangli (berberin to'q sariq rangga bo'yagan), suyuq, hidli va uchuvchan (anabazin, nikotin, koniin va boshqalar) alkaloidlar ham bo'ladi.

Alkaloidlar o'simliklar tarkibida 3 xil koiinishda uchraydi:

1. Sof (asos) holida.
2. Kislotalar bilan birikkan birikmalar - tuzlar holida.
3. Azot atomi bo'yicha oksidlangan N-oksid formasida.

O'simlik to'qimasida alkaloidlar ko'pincha organik (oksalat, olma, limon, vino va boshqa), mineral (sulfat, fosfat va boshqa) va ba'zan o'simliklarning o'ziga xos (mekon, xin, xelidon va boshqalar) kislotalar bilan birikkan tuzlar holida uchraydi. Sof (asos) holdagi alkaloidlar organik erituvchilarda yaxshi eriydi, suvda erimaydi. Ularning kislotalar bilan hosil qilgan birikmalar - alkaloidlarning tuzlari esa

suvda yaxshi eriydi, ammo organik erituvchilarda erimaydi. Asos hamda tuz holidagi alkaloidlar spirtda bir xilda yaxshi eriydi. Shu bilan birga suvda va organik erituvchilarda bir xilda yaxshi eriydigan sof alkaloidlar (sitizin, metilsitizin, kofein va boshqalar) hamda suvda yomon eriydigan alkaloid tuzlari (xinin sulfat) ham uchraydi.

Alkaloidlar kislotalar bilan birikib, kristall holdagi tuzlar hosil qiladi. Bu reaksiyada alkaloid molekulasiga kislotaning butun molekulasi qo'shiladi. Odadta alkaloid tuzini olish uchun yaxshi kristallananadigan tuz hosil qiluvchi kislotadan foydalaniladi.

Alkaloidlarning dissotsiatsiya konstantalari juda katta chegarada ( $1'10^1$  dan to  $1\ 10^{12}$  va undan yuqori) bo'madi. Shuning uchun ular kislotalar bilan turli darajada turg'un bo'lgan birikmali tuzlar hosil qiladi. Kichik dissotsiatsiya konstantasiga ega bo'lgan alkaloidlar (kofein, kolxitsin va boshqalar) kislotalar ta'sirida turg'un bo'l'magan tuzlar beradi. Natijada bu birikmalar suvji eritmalarida tezda parchalanib ketadi. Alkaloidlar juda kuchsiz asos xususiyatiga ega, shu sababli ular o'z tuzlaridan boshqa asoslar (hatto natriy karbonat yoki kaliy karbonat eritmalarini ham) ta'sirida osonlik bilan siqib chiqariladi. Alkaloidlar molekulasida uglerod, vodorod va azot atomlari bo'lishi kerak, kislorod bo'lishi shart emas. Odadta molekulasi kislorodsiz alkaloidlar ko'pincha suyuq, hidli va uchuvchan, kislorodlilari esa hidsiz, uchmaydigan, kristall modda bo'ladi. O'simliklar tarkibida murakkab efirdan tashkil topgan alkaloidlar ham uchraydi. Ular molekulasi kuchli ishqor va kislotalar ta'sirida parchalanishi mumkin (atropin, kokain, skopolamin va boshqa alkaloidlar). Agar alkaloid molekulasi tarkibida fenol guruhi bo'lsa, u holda ishqorlar ta'sirida suvda eriydigan fenolyat tipidagi birikma hosil bo'ladi. Alkaloidlarning bu xususiyatlari ularni analiz qilinayotganda hisobga olinishi lozim. Ko'pincha alkaloid molekulasi tarkibidagi azot atomi molekulasi tashkil etuvchi halqa tarkibiga kirib, geterosiklik birikma hosil qiladi. Shuning uchun ko'pchilik alkaloidlar (ochiq zanjirli alkaloidlardan tashqari) geterosiklik birikmalar unumi hisoblanadi.

## **11.5. Alkaloidlar va tarkibida alkaloid saqlovchi mahsulotlar tasnifi.**

O'simliklardagi protoalkaloid molekulalari yopiq zanjir ko'rinishida (siklik) bo'lib, tarkibida albatta azot atomini tutadi. Ular geterosikiik birikmaning xususiyatiga bog'liq tarzda tasniflanadi.

Pscvdoalkaoidlar esa izoprenoidlar tuzilishi qonuniyatiga ko'ra tasniflanadi. Tarkibida alkaloidlar bo'lgan o'simliklarni sinflarga bo'lishda ular tarkibidagi alkaloidlarning uglcrod-azotli skcletining tuzilishi asos qilib oiingan. Shunga ko'ra dorivor vosita sifatida ishlatiladigan alkaloidlar va ularni o'z tarkibida saqlovchi dorivor mahsulotiy quyidagi sinflarga bolinadi:

1. Ochiq zanjirli (atsiklik) va azot yon zanjirda bo'lgan alkaloid. Atsiklik alkaloidlarga sferofizin, azot yon zanjirda bo'lgan alkaloidlarga efedrin, kapsairsin, kolxitsin va boshqa alkaloidlar kiradi.

2. Pirrolidin unumlari bo'lgan alkaloidlar. NH pirrolidin Pirroiidinning oddiy unumlariga gigrin, kuskgigrin, karpain va boshqa alkaloidlar kiradi.

3. Pirroiizidin — geliotrindan (pirollidinning ikki molekulasini azot orqasi jipsiangan birikmasi) unumlari bolgan alkaloidlar. Pirroiizidin Pirroiizidin unumlariga platifillin, sarratsin, trixodesmin, inkanin va boshqa alkaloidlar kiradi. Platifillin

4. Piridin va piperidin unumlari bo'lgan alkaloidlar. Piridin va piperidin unumlariga koniin, lobelin, nikotin, anabazin, pelterin va boshqa alkaloidlar kiradi.

- a) piridin va piperidin hosilalari. Bu guruhga lobelin (shishsimon lobeliya) va koniin (dog'li boligolov) kiradi.

- b) bitsiklik jipslashmagan tizimlar. Bu guruhga anabazin (bargsiz itsigak), nikotin (oddiy tamaki) alkaloidlari kiradi.

5. Tropan (piperidin biian pirrolidinni azot orqali jipslangan birikmasi), unumlari bo'lgan alkaloidlar. Tropan unumlariga atropin, giostsiamin, skopolamin, kokain va

boshqa alkaloidlar kiradi.

Sekurinin alkaloidi ham piperidin bilan pirrolidinni jipslangan birikmastning unumiga (lekin tropan unumi emas) kiradi.

Xinoiizidin (piperidinni ikki molekulasini yoki piperidin va piridinni azof orqali jipslangan birikmasi) unumlari bo'lgan alkaloidlar

Xinoiizidin. Xinoiizidin unumlariga paxikarpin, sitizin, termopsin, nufaridin va boshqa lupinan alkaloidlari kiradi

Termopsin

7. Xinolin unumlari bo'lgan alkaloidlar: Xinolin unumlariga xinin, sinxoxin, exinopsin va boshqa alkaloidlar kiradi.

8. Akridin unumlari bo'lgan alkaloidlar: Akridin unumlariga rutadoshlar oilasiga mansub ba'zi tropic o'simliklarning alkaloidlari kiradi. Bu guruh alkaloidlar tabiatda

kam tarqalgan.

9. Izoxinolin unumlari bo'lgan alkaloidlar; Bu guruh alkaloidlar o'simliklar dunyosida keng tarqalgan.

Ularga izoxinolinni oddiy unumlari (salsolin, salsolidin va boshqalar), benzilizoxinolin (papaverin, narkotin va boshqalar), fenantrenizoxinolin (morphin, kodein, tebain va boshqalar), fenantridinizoxinolin (galantamin va boshqalar) hamda izoxinolining ikki molekulasini birlashgan birikmasi — diizoxinolin (berberin tipidagi alkaloidlar) unumlari bo'lgan alkaloidlar kiradi. Izoxinolin

10. Indol unumlari bo'lgan alkaloidlar: Indol unumlariga strixnin, brutsin, rezerpin, aymalin, serpentin fizostigmin, garmin, brevikollin, vinkamin, vinblastin, shoxkuya o'simligining alkaloidlari (ergometrin, ergotamin) va boshqa alkaloidlar kiradi. Bu guruh alkaloidlar ham o'simliklar dunyosida ancha keng tarqalgan.

11. Imidazol unumlari bo'lgan alkaloidlar: Imidazol unumlariga pilokarpin va boshqa alkaloidlar kiradi.

12. Xinazolin unumlari bo'lgan alkaloidlar: Xinazolin unumlariga febrifugin, izofebrifugin, peganin va boshqa alkaloidlar kiradi.

13. Putin unumlari bo'lgan alkaloidlar: Puriri unumlariga kofein, teobromin, teofillin va boshqa alkaloidlar kiradi.

14. Diterpen unumlari bo'lgan alkadoidlar. Diterpen unumlariga elatin, delsemin, metildikakonitin, akonitin, zongorin va boshqa alkaloidlar kiradi.

15. Tsikpopentanopergidrofenantren unumlari bo'lgan alkaloidlar (steroid alkaloidlar).

Steroid alkaloidlarga solasonin, solanin, chakonin, psevdoiervin, veratrozin va boshqalar kiradi.

## **11.6.O'simlik tarkibidagi alkaloidlarga tashqi muhit ornillarining ta'siri.**

O'simlikdagi alkaloid miqdori va tarkibiy qismi doimo dinamik o'zgarishda bo'ladi. Bu o'zgarish o'simliklarning o'sadigan yeri va sharoitiga bog'liq. Odatda alkaloidlar o'simliklar gullashi oldida yoki gullah davrida ularning yer ustki qismida ko'p to'planadi. O'simliklar gullab bo'lgandan so'ng alkaloidlar ularning (agar ko'p yillik o't o'simlik bo'lsa) yer ostki organlarida (ayniqsa piyozboshida) va qisman mevasida. bir yillik o't o'simliklarning esa mevasida yig'iladi. Ba'zan alkaloidlar o'simlik endi ko'karib chiqayotganida ularning yer ustki

qismida ko'p to'planishi mumkin. O'simlikning turli qismlari tarkibida alkaloidlar nafaqat miqdor bilan, balki sifat jihatdan ham farq qiladi. Masalan lansetsimon bargli termopsis o'tida termopsin, urug'ida esa sitizin alkaloidi bo'ladi.

Alkaloidlarni shakllanishi va miqdoriga ularning o'sish fazasi ham ta'sir etadi. O'simlikning yer ustki qismida alkaloidlarning eng ko'p miqdori gullash-mevalash fazasida, yer ostki organlarida esa - yer usti massasini qurish fazasida kuzatiladi.

Alkaloidlarning to'planishiga tashqi muhit omillari — harorat, namlik, tuproq, yorug'lik, dengiz sathidan balandlik, kun uzunligi ta'sir etadi.

*Harorat:* o'simliklardagi alkaloidlar miqdori o'simlik o'sayotgan joy harorati ko'tarilishi bilan ortib boradi. Haroratni 0°dan tushib ketishi, masalan bangidevona tarkibidagi alkaloidlarni ham miqdori ham sifatiga salbiy ta'sir etadi.

*Namlik:* yomg'irli, namgarchilik ko'p yillari alkaloidlar miqdori quruq ob-havo yillardagi sharoitdan ko'ra kamroq bo'ladi.

*Tuproq:* tuproq ishqoriyligining ortishi bilan o'simliklar tarkibidagi alkaloidlarning miqdori ortadi. Tuproqqa azotli o'g'itlarning kiritilishi ham alkaloidlar miqdoriga ijobiy ta'sir etadi.

*Kun uzunligi:* qisqa kun sharoitida o'simlikdagagi alkaloidlar miqdori uzun kundagiga nisbatan doimo ko'p bojadi.

*Dengiz sathidan balandligi:* dengiz sathidan ko'tarilgan sari, masalan skopoliya o'simligi tarkibidagi alkaloidlar miqdori ortib boradi.

## 11.7. Alkaloidlarning tibbiyotda ishlatilishi.

Alkaloidlar tibbiyotda ishlatiladigan dorivor moddalar ichida eng qimmatlisi hisoblanadi. Ular ko'pincha spetsifik (ma lum kasallikka nisbatan) va boshqa dorilar bilan almashtirib bo'lmaydigan ta'sirga ega bo'lganligi uchun turli kasalliklarni davolashda keng miqyosda ishlatiladi. Dorixona va zavodlarda alkaloidli mahsulotlardan har hil dori turlari (damlama, qaynatma, nastoyka, ekstraktlar. yangi galei preparatlari) tayyorlanadi hamda sof holdagi alkaloidlar va ularning tuzlari ajratib olinadi.

**Tarkibida turli guruhga kiruvchi alkaloidlar saqlaydigan va davlat farmokopeyasiga kiritilgan o'simliklar:**

1. *Qalampir mevasi* (Bir yillik qalampir - *Capsicum armuum L.*) -

Ishtaha ochuvchi, ovqat hazm jarayonini yaxshilovchi, shamollash (radikulit, miozit, nevralgiya). revmatizmda ishlatiladi.

2. *Sh o'rbo yan yer ustki qismi* (Sho'r bo'yan (shildirbosh) - *Sphaerophysa salsula* (Pall.) D.C.) - gipertoniya, tug'ish zaiflashgan hollarda, tuqqandan keyin qon ketishni to'xtatish uchun).

3. *Qizilcha yer ustki qismi* (Tog1 qizilchasi – *Ephedra equisetina* Bge.; Cho' 1 qizilchasi — *Ephedra intermedia* Schrenk.) — efedrin kishi organizmiga adrenalinga o'xhash ta'sir qiladi (simpatik nervlarni qo'zgbatadi, qorin bo'shlig'i va yurak qon tomirdarni nihoyatda toraytiradi). U adrenalindan asosan kam zaharliligi, sekin, lekin uzoq ta'sir qilishi bilan farq qiladi.

Efedrin og'ir operatsiya yoki travmadan so'ng ko'p qon yo'qotilishi natijasida yuz bergan kollaps holatida, qon bosimi pasayganda (gipotoniya), miasteniya, allergik-bronxial astma, pichan isitmasida (pichan astmasi). eshakem loshganda va tumov va boshqa kasallikkarda ishlatiladi. Bundan tashqari, efedrin alkaloidi morfin, skopolamin va gangliolitiklar bilan zaharlanganda ham qo'llaniladi. Efedrin gidroxlorid poroshok, tabletka va ampuladagi eritma holida chiqariladi. Efedrin gidroxlorid turli kompleks preparatlar tarkibiga kiradi.

4. *Savrjinjonning quritilmagan tugunak piyozi* (Chiroyli savrjinjon — *Colchicum speciosum* Stev.) — kolxamin preparati teri raki va leykoz kasalligini davolashda, kolxitsin esa bod, podagrani, nevralgiyani davolashda ishlatiladi.

5. *Yassi bargli senetsio ildizpoyasi, ildizi va yer ustki qismi* (*Senecio platyphylloides* Somn.) — tarkibidagi platifillin alkaloidi atropinga o'xhash, ammo unga o'xhash ta'sir etadi. Qorin va ichaklar spazmida, jigar sanchig'i, xoletsistit, bosh miya tomirlari spazmi, bronxial astmada ishlatiladi. Ko'z qorachig'ini kengaytiruvchi. Sarratsin alkaloidi esa spastik ko!it, me'da yara kasalligi, siydik yo'li spazmi, migrenni davolashda ishlatiladi.

6. *Itsigag yer ustki qismi* (Bargsiz itsigak - *Anabasis aphyua* L.) anabazin alkaloidi o'bzining farmakologik ta'siriga ko'ra nikotin, sitizin, lobelinga yaqin. Uning gidroxlorid tuzi kichik miqdorda tamaki chekishni tashlasli uchun qo'llaniladi. Anabazin unumi — metilanabazin nafas olish markazini qo'zg'atuvchi stimulyator vosita sifatida tavsiya etiladi. Anabazindan nikotin kislotasi (vitamin PP) olinadi. Anabazin sulfat qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunadlariga qarshi purkaladi.

7. *Uyatchan mimioza bargi* (Uyatchan mimioza — *Mimosa pudica*

E.) quritilmagan bargidan anginol nastoykasi — tomirlarni kengaytiruvchi vosita olinadi.

### **Tarkibida xinoiizidin unumiga kiruvchi alkaloidlar bo‘lgan dorivor o‘simliklar:**

**8. Afsonak (termopsis) y e r ustki qismi va urug‘i** (Nashtarsimoi (lantsetsimon) afsonak (termopsis) - *Thermopsis lanceolata* R.; Ketma-ket gulli afsonak (termopsis) – *Thermopsis tuskestanica* Gand; dukkakdoshlar Fabaceae oilasiga kiradi) — Afsonak turlarining preparatlari balg‘am ko’chiruvchi, sitizin alkaloidi esa nafas markazini qo’zg’atuvchi va qon bosimini ko’taruvchi dori sifatida ishlatiladi. Afsonak chet eldan keltiriladigan, balg‘am ko’chiruvchi ta’sirga ega bo‘lgan ipekakuana o‘simligining ildizi o’rnida ishlatishga tavsiya etilgan va shu maqsadda ishlatiladi. Afsonak o‘simligi me’da shirasining ajralishini kuchaytiradi. Shuning uchun uning dorivor preparatlarini me’da va ichak kasalligi bo‘lgan bemorlarga berish to’gri kelmaydi. Damlama, quruq ekstrakt. O’simlikning yer ustki qismi poroshok va tabletka holida ham ishlatiladi. Sitizin alkaloidining ampuladagi 0,15% eritmasi — sititon.

**9. Achchiqmiyaningyer ustki qismi** (Qalin mevali achchiqmiya — *Vexibia pachvsagra* [Schrenk. ex S.A.Meu] Jakovl. [*Sophora pachvcarra* S.A.Meu.]; dukkakdoshlar — Fabaceae oilasiga kiradi) — tibbiyotda bu o‘simlik alkaloidlaridan faqat paxikarpin qo’llaniladi. Paxikarpin alkaloidi periferii qon tomirlari spazmi, surunkali ekzema va gipertoniya kasalliklarida, muskul distrofiyalarida (miopatiyada) hamda asosan tug’ruqni tezlashtirish uchun ishlatiladi.

Alkaloid tuzi - paxikarpin gidroyodid (paxikarpin yodgidrat) poroshok va tabletka holida hamda 3% li eritmasi 2 ml dan ampulada chiqariladi. Sekurineganing novdalari (Yarim butasimon sekurinega —

### **Tarkibida tropan unumiga kiruvchi alkaloidlar bo‘lgan o‘simliklar**

. *Belladonna bargi*, ye r ustki qismi va ildizi (Oddiy (dorivor) belladonna — *Atropa belladonna* L., Kavkaz belladonnasi — *Atropa caucasica* Kgeueg; ituzumdoshlar - Solariaceae oilasiga kiradi) - belladonna preparatlari turli spazmatik hollarda (ichak va siydir yo’llari spazmida) antispazmatik hamda me’da va o ‘n ikki barmoq ichakning yara kasalligida, xoletsistit, o’t pufagining tosh kasalligida, buyrak sanchig‘ida og‘riq qoldiruvchi dori sifatida, shuningdek, bronxial astma kasalligini davolashda hamda so‘lak va shilliq bezlari ajratadigan suyuqlikni kamaytirishda ishlatiladi. Bulardan tashqari, kokz

kasalliklarida ko‘z qorachig‘ini kengaytirish uchun ham qo’llaniladi. Ildiz preparati Parkinson kasalligini davolash uchun beriladi. Belladonna, o’simligining alkaloidlaridan tibbiyotda atropin va skopolamin ishlatiladi, giostsiamin ko’proq zaharli bo‘lgani uchun ishlatilmaydi. Atropin alkaloidining tuzi atropin sulfat, bargidan va yer ustki qismidan quyuq hamda quruq ekstrakt, nastoyka tayyorlanadi. Ildizning vinoda tayyor(angan) qaynatmasi. Bargi “Astromol” poroshogi - sigaretasi tarkibiga kiradi.

Bulardan tashqari. belladonna bargi va ildizidan tayyorlangan ekstraktlar”korabella” tabletkasi, solutan, bekarbon, besalol bellagin, bellastezin, bepasal. me’da kasalligida ishlatiladigan

**Mingdevona bargi** (Qora mingdevona - *Hyoscyamus niger* L.ituzumdoshlari - Solanaceae oilasiga kiradi) - Mingdevona preparatlari belladonna preparatlari kabi og‘riq qoldirishda va turli spazmatik holatlarda ishlatiladi. Mingdevona moyini xloroform bilan aralashtirib (suyuk surtma holatida), revmatizm va nevralgiya kasalliklarida muskullar og“riganda teriga surtiladi. Quruq ekstrakt mingdevona moyi, mingdevona bargi bronxial astma kasalligida chekiladigan poroshok: “Astromol” mingdevona moyi esa saliniment preparati tarkibiga kiradi.

**Bangidevona bargi** (Oddiy bangidevona – *Datura stramonium* L., ituzumdoshlari — Solanaceae oilasiga kiradi) - Bangidevona bargi bronxial astma kasalligida ishlatiladigan (chekiladigan) “Astromol” va “Astromatin” poroshoklari-sigaretalari tarkibiga kiradi.

**Tarkibida xinolin unumiga kiruvchi alkaloidlar bo‘lgandorivor o ‘simliklar:**

**Tsinxona (xin daraxli) p o ‘stlog‘i** (Qizil shirali sinxona (xin daraxti) — *Cinchona succirubra* Pave. ro ‘yandoshlar oilasiga kiradi) - mahsulot preparatlari ishtaha ochadigan achchiq modda sifatida, xinin alkaloidining tuzlari esa bezgak kasalligida (yoki kasallikning oldini olish uchun) ishlatiladi. Xinidin uch-to‘rt kunlik hamda tropic bezgakni davolashda juda yaxshi natija beradi. Xinidin sulfat yurak q o ‘z g ‘aluvchanligini kamaytiradi va aritmiyaga qarshi vosita sifatida taxikardiya hamda tebranuvchi aritmiya kabi yurak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Xinidin alkaloidining tuzlari: xinin gidroxlorid, xinin digidroxlorid va xinin sulfat poroshok, tabletka va ampuladagi 50% li (xinin digidroxloridning) eritmasi holida chiqariladi, xinin sulfat tabletka holida chiqariladi.

## Tarkibida izoxinolin unumiga kiruvchi alkaloidlar bo'lgan dorivor o'simliklar:

*Sho'rak (cherkez) mevasi* (Rixter sho'ragi (cherkezi) - *Sal,sola richteri* Karelin; sho'radoshlar - Chenopodiaceae oilasiga kiradi) — mahsulot alkaloidlari gipotenziv ta'sirga ega. Shuning uchun cherkez, preparatlari gipertoniya va bosh og'rig'iM kasalliklarida ishlatiladi. Bu alkaloidlar tinchlantiruvchi ta 'sirga ham ega. Salsolidin salsolinga nisbatan kuchsizroq ta 'sir etadi.

*Qonclo'p ye rustki qismi* (Katta koncho'p — *Chelidonium majus* L., ko'knordoshlar - Papaveraceae oilasiga kiradi) — qoncho'pning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama jigar va o't pufagi kasalligida, pastasi esa teri silini davolashda ishlatiladi. Ho'l o'simlikdan olingan shira so'gal va qadoqni ketkazishda hamda kekirdak papillomasi va teri kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Koncho'i o'simligi va uning alkaloidlari bakteritsid xususiyatiga ega. Damlama, pasta, ho'l o'simlik shirasi. Mahsulot o't haydovchi choylar-yig'malar tarkibiga kiradi.

### NAZORAT SAVOLLARI.

- 1.Tarkibida izoxinolin unumiga kiruvchi alkaloidlar bo'lgan dorivor o'simliklarni sanag.
- 2.Tarkibida tropan unumiga kiruvchi alkaloidlar bo'lgan o'simliklar qatorini ayting.
- 3.Tarkibida turli guruhga kiruvchi alkaloidlar saqlaydigan va davlat farmokopeyasiga kiritilgan o'simliklar.
- 4.O'simlik tarkibidagi alkaloidlarga tashqi muhit ornillarining ta'siri.

## XII BOB.TERPENOIDLAR (IZOPRENOIDLAR).

### 12.1. Terpenoidlar (izoprenoidlar).

Terpenoidning kimyoviy tuzilishi taksol, saratonga qarshi dori. Terpenoidlar, ba'zan chaqiriladi izoprenoidlar, tabiiy ravishda uchraydigan katta va xilma-xil sinf organik kimyoviy moddalar 5-uglerodli birikmadan olingan izopren va izopren polimerlari deyiladi terpenlar. Ularning aksariyati kislorod o'z ichiga olgan funktsional guruhlarga ega multitsiklik tuzilmalardir. Taxminan 60% ma'lum tabiiy mahsulotlar terpenoidlardir. Ba'zida "terpenlar" bilan almashtirib ishlatsa ham, terpenoidlar tarkibida qo'shimcha mavjud funktsional guruhlar, odatda O o'z ichiga oladi. Terpenlar uglevodorodlar.

O'simlik terpenoidlari xushbo'y fazilatlari uchun ishlataladi va an'anaviy o'simlik vositalarida muhim rol o'yndaydi. Terpenoidlar hidga hissa qo'shadi evkalipt, lazzatlari doljin, chinnigullar va zanjabil, sariq rang kungaboqar va qizil rang pomidor. Taniqli terpenoidlarga kiradi sitral, mentol, kofur, salvinorin A o'simlikda Salvia divinorum, kanabinoidlar ichida topilgan nasha, ginkgolid va bilobalid ichida topilgan Ginkgo biloba, va kurkuminoidlar ichida topilgan zerdeçal va xantal urug'i. Provitamin beta karotin a deb nomlangan terpen lotinidir karotenoid.

steroidlar va sterollar hayvonlarda biologik ravishda terpenoid kashshoflaridan hosil bo'ladi..

#### Tuzilishi va tasnifi

Terpenoidlar o'zgartirilgan terpenlardir, bunda metil guruhlari ko'chirilgan yoki olib tashlangan yoki kislorod atomlar qo'shilgan. (Ba'zi mualliflar terpenoidlarni kiritish uchun "terpen" atamasini kengroq ishlatischadi.) Xuddi terpenlar singari, terpenoidlarni ham ularning soniga qarab tasniflash mumkin. izoprenota-terpenni o'z ichiga olgan birliklar:

- Gemiterpenoidlar, 1 izopren birligi
- Monoterpenoidlar, 2 izoprenik birlik
- Sesquiterpenoidlar, 3 izoprenik birlik
- Diterpenoidlar, 4 izoprenik birlik.
- Sesterterpenoidlar, 5 izoprenik birlik
- Triterpenoidlar, 6 izoprenik birlik
- Tetaterpenoidlar, 8 izoprenik birlik

Polyterpenoid ko'proq izopren birliklari bilan

Terpenoidlarni tarkibidagi siklik tuzilmalar soniga qarab ham tasniflash mumkin. Salkovskiy testi yordamida terpenoidlar mavjudligini aniqlash mumkin.

### Biosintez

Terpenoidlar, hech bo'lmasganda alkogolning funksional guruhini o'z ichiga olganlar, ko'pincha hosil bo'lgan karbokatsion oraliq mahsulotlarning gidrolizidan kelib chiqadi. geranil pirofosfat. O'rtacha mahsulotlarning o'xshash gidrolizlanishi farnesil pirofosfat beradi sesquiterpenoidlar, va oraliq mahsulotlarning gidrolizingeranilgeranil pirofosfat beradi diterpenoidlar, va boshqalar.

Terpen sinfidir tabiiy mahsulotlar formulasi bilan birikmalardan iborat ( $C_5H_8$ ) $n$ . 30000 dan ortiq birikmalardan iborat bo'lib, ular to'yinmagan uglevodorodlar asosan ishlab chiqaradi o'simliklar, ayniqsa ignabargli daraxtlar. Terpenlar yana uglerodlar soni bo'yicha tasniflanadi: monoterpenlar ( $C_{10}$ ), sesquiterpenlar ( $C_{15}$ ), diterpenlar ( $C_{20}$ ) va boshqalar. Taniqli monoterpen alfa-pinol, turpentinning asosiy tarkibiy qismi.

Terpenlarga qaraganda hali ham ko'p sonli birikmalar "terpenoidlar" sinfidir. Terpenoidlar - o'zgartirilgan (odatda kislородли) terpenlar. funksional guruhrilar. Terpenlar va terpenoidlar atamalari bir-birining o'rnida ishlatiladi. Ikkalasida ham kuchli va tez-tez yoqimli hidlar bor, ular uy egalarini himoya qilishi yoki changlatuvchilarni jalg qilishi mumkin. Terpenlar va terpenoidlarning inventarizatsiyasi 55000 kimyoviy sub'ektlarga to'g'ri keladi.

### Biologik funktsiya

Terpenlar, shuningdek, asosiy biosintetik qurilish bloklari hisoblanadi.

Masalan, triterpen hosilalari skvalen. Terpenlar va terpenoidlarning asosiy tarkibiy qismidir efir moylari o'simliklar va gullarning ko'plab turlari da uchraydi.

O'simliklarda terpenlar va terpenoidlar ekologik muhim vositachidir o'zaro ta'sirlar. Masalan, ular rol o'ynaydi o'simliklarni o'simliklardan himoya qilish, kasalliklarga chidamlilik, jalg qilish mutualistlar kabi changlatuvchilar, shuningdek potentsial o'simlik - o'simlik aloqasida muhim ahamiyatga ega Ko'proq terpenlar iliq ob-havo sharoitida daraxtlar tomonidan ajralib chiqadi, bu erda ular tabiiy mexanizm sifatida ishlashi mumkin. Ularga . bulutlar quyosh ta'sir etib,

o'rmon haroratini tartibga solishga imkon beradi. Terpenlar hasharotlar tomonidan mudofaa shakli sifatida ham qo'llaniladi. Masalan, termitlar subfamily Nasutitermitinaega yirtqich hasharotlardan saqlanishda ahamiyati katta.

Katta ahamitga ega bo'lgan bitta terpen tabiiy kauchuk (ya'ni poliizopren). Boshqa terpenlardan sintetik ishlab chiqarish uchun mahsulot sifatida foydalanish imkoniyati polimerlar neftga asoslangan xom-ashyo zaxiralaridan foydalanishga imkon beradi., Turpentin, terpenlarning aralashmasi (masalan, pinene), qarag'ay daraxtini distillashidan olingan qatron, organikkada ishlatiladi. U hal qiluvchi va kimyoviy xom-ashyo sifatida (asosan boshqa terpenoidlarni ishlab chiqarish uchunmuhim rol o'ynaydi. Rozin, ignabargli daraxtlar qatronining yana bir yon mahsuloti, masalan, turli xil sanoat mahsulotlarining tarkibiy qismi sifatida keng qo'llaniladi. siyoh, laklar va yopishtiruvchi moddalar olishda. Terpenler kabi iste'mol mahsulotlarida xushbo'y hid va lazzat sifatida keng qo'llaniladi atirlar, kosmetika va tozalovchi mahsulotlar, shuningdek, oziq-ovqat va ichimliklar mahsulotlari. Masalan, xushbo'yligi va ta'mi otquloqni ta'mi keladi, pivo sifat.[ Ular, shuningdek, ba'zilarining tarkibiy qismlari an'anaviy dorilar, kabi aromaterapiya. Ba'zilari polimerlarni ishlab chiqarishda katalizator sifatida baholanadigan gidroperoksidlarni hosil qiladi.

O'zlarining mudofaa rollarini aks ettirgan holda, terpenlar tabiiy faol moddalar sifatida ishlatiladi pestitsidlar qishloq xo'jaligida ham ishlatiladi.

### Fizikaviy va kimyoviy xossalari

Terpenlar rangsiz, ammo **noposhok** namunalari ko'pincha sariq rangga ega. Qaynatish nuqtalari molekulyar kattalikka ega: terpenlar, sesquiterpenlar va diterpenlar navbat bilan 110, 160 va 220 ° S da. Qutbsiz bo'lib, ular suvda erimaydigan uglevodorodlar bo'lib, ular juda tez yonuvchan va solishtirma og'irligi past (suvda suzadi).

Terpenoidlar (mono-, sesqui-, di- va boshqalar) o'xshash fizik xususiyatlarga ega, Suvda ozroq eriydi va ularning terpen analoglaridan biroz kamroq uchuvchan bo'ladi. Terpenoidlarning yuqori qutbli hosilasi glikozidlar bo'lib, ular shakar bilan bog'langan. Ular suvda eriydigan qattiq moddalardir. Ular yengil yog'larday yopishqoq xususiyatga ega. Misr yog'i kabi taniqli o'simlik moylariga qaraganda yopishqoqligi ancha yaxshi. Boshqa uglevodorodlar singari ular ham

tez yonuvchan. Terpenlar mahalliy tirdash xususiyati beruvchi moddadir va agar ichilsa, oshqozon-ichak traktining buzilishi mumkin.

"Terpene" atamasi 1866- yilda nemis kimyogari tomonidan kiritilgan Avgust Kekule Ba'zida "terpenlar" bilan almashtirib ishlatilsa ham, terpenoidlar (yoki izoprenoidlar) qo'shimcha tarkibiga kiradigan o'zgartirilgan terpenlardir funktsional guruhlar, odatda kislorod o'z ichiga oladi "Terpene" nomi "terpentin" ning qisqartirilgan shakli, "turpentin" "Kontseptual ravishda olingan izoprenlar, terpenlarning tuzilishi va formulalari quyidagilarga amal qiladi biogenetik izopren qoidasi yoki C<sub>5</sub> qoida, tomonidan 1953 yilda tasvirlangan Leopold Rujichka va hamkasblari Izopren birliklari ta'minlangan izoprenil pirofosfat (aka dimetilalil pirofosfat) va izopentenil pirofosfat muvozanatda mavjud. Ushbu juft qurilish bloklari ikkita alohida tomonidan ishlab chiqarilgan metabolik yo'llar: mevalon kislotasi yo'li o'simlik turlarining genomlari tarkibida terpenlarni beradigan terpenoid sintaz fermentlarini asosiy tuzilishi bilan kodlaydigan va sitoxrom P450s ushbu asosiy tuzilmani o'zgartiradigan genlar mavjud.

### Formula

To'liq aytganda, barcha monoterpenlar bir xil kimyoviy formulaga ega C<sub>10</sub>H<sub>16</sub>. Xuddi shunday barcha sekriterpenlar va diterpenlar navbat bilan C<sub>15</sub>H<sub>24</sub> va C<sub>20</sub>H<sub>32</sub>. Mono-, sesqui- va diterpenlarning tarkibiy xilma-xilligi izomerizmni hosil qiladi. Terpenlar va terpenoidlar odatda chiral. Chiral birikmalari o'ziga xos xususiyatlarni (hid, toksiklik va boshqalarini) aks ettiradigan, birlashtirilmaydigan oynali tasvirlar sifatida mavjud bo'lishi mumkin.

### To'yinmaslik

Terpen va terpenoidlarning ko'pchiligidagi C=C guruhlari mavjud, ya'ni ular to'yinmagan. Ularning to'yinmaganligidan tashqari, ular funktsional guruhlarga ega bo'limganligi sababli, terpenlar tarkibiy jihatdan ajralib turadi. To'yinmaslik di- va uch almashtirilgan alkenlar bilan bog'liq. Di- va uch marta almashtirilgan alkenlar polimerizatsiyaga qarshilik ko'rsatadi (past ship harorati), ammo kislota ta'sirida sezgir karbokatsiya shakllanish. Terpenlar molekuladagi izopren birliklari soni bo'yicha tasniflanishi mumkin; nomidagi prefiks molekulani yig'ish uchun zarur bo'lgan izopren juftlarining sonini bildiradi. Odatda terpenlarda 2, 3, 4 yoki 6 izopren birliklari mavjud; tetraterpenlar (8 izopren birligi) karotenoidlar deb ataladigan birikmalarning alohida sinfini hosil qiladi; boshqalar

kamdan-kam uchraydi. Tasnif faqat formalistikdir; ularning xususiyatlari, ishlatilishi yoki paydo bo'lishi haqida hech narsa taxmin qilinmasligi mumkin. Hemiterpenlar dan iborat bitta izopren birlik. Izoprenning o'zi yagona gemiterpen hisoblanadi, ammo tarkibida kislorod bor prenol va izovaler kislotasi gemiterpenoidlardir.

Monoterpenlar dan iborat ikki izopren birliklari va C molekulyar formulasiga ega $10H16$ . Monoterpen va monoterpenoidlarga misollar kiradi geraniol, terpineol (lilikda mavjud), limonen (tsitrus mevalarida mavjud), mirsen (xopda mavjud), linalool (lavanda mavjud) yoki pinene (qarag'ay daraxtlarida mavjud).[20] Iridoidlar monoterpenlardan kelib chiqadi. Sesquiterpenes dan iborat uchta izopren birliklari va C molekulyar formulasiga ega $15H24$ . Sesquiterpenes va sesquiterpenoidlarga misollar kiradi gumulen, farnesenlar, farnesol. (The sesqui- prefiks bir yarim degan ma'noni anglatadi.) Diterpenes tarkib topgan to'rt izopren birliklari va C molekulyar formulasiga ega $20H32$ . Ular kelib chiqadi geranilgeranil pirofosfat. Diterpen va diterpenoidlarga misollar kafestol, qahweol, kembren va taksadien (kashshof taksol). Diterpenlar, shuningdek, kabi biologik muhim birikmalar uchun asos yaratadi retinol, setchatka va fitol. Sesterterpen, tarkibida 25 uglerod bo'lgan terpenlar va beshta izopren birliklari, boshqa o'lchamlarga nisbatan kam uchraydi. (The sester- prefiks ikki yarim degan ma'noni anglatadi.) Sesterterpenoidga misol geranilfarnesol. Triterpenesdan iborat oltita izopren birliklari va C molekulyar formulasiga ega $30H48$ . Chiziqli triterpen skvalen, ning asosiy tarkibiy qismi akula jigar yog'i, ning ikkita molekulasini qaytaruvchi birikmasidan kelib chiqadi farnesil pirofosfat. Keyin skvalen biosintez bilan qayta ishlanib, uni hosil qiladi lanosterol yoki sikloartenol, hamma uchun tarkibiy kashshoflar steroidlar. Seskarterpenlar tarkib topgan yetti izopren birliklari va C molekulyar formulasiga ega $C35H56$ . Sesquarterpenlar odatda kelib chiqishlariga ko'ra mikrobial hisoblanadi. Sesquarterpenoidlarga ferrugikadiol va tetraprenilkurkumen misol bo'la oladi.

Tetraterpenlar o'z ichiga oladi sakkiz izopren birliklari va C molekulyar formulasiga ega $C40H64$ . Biologik muhim tetraterpenoidlarga asiklik kiradi likopen, monotsiklik gamma-karotin va velosiped alfa- va beta-karotinlar.

Polyterpenes ning uzun zanjirlaridan iborat ko'p izopren birliklar. Tabiiy kauchuk er-xotin bog'lanishlar bo'lgan poliizoprenadan iborat

cis. Ba'zi o'simliklarda poliizopren ishlab chiqariladi trans deb nomlanuvchi qo'shaloq bog'lanishlar gutta-percha.

Norisoprenoidlar, masalan, C13-norisoprenoid 3-okso-a-ionol mavjud Iskandariya Maskati megastigmane-3,9-diol va 3-okso-7,8-dihidro-a-ionol kabi 7,8-dihidroionon hosilalari Shiraz barglar (turlardagi ikkala uzum) Vitis vinifera ) yoki vino (ba'zilari uchun javobgardir ziravorlar yozuvlari yilda Chardonnay ), qo'ziqorin tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin

Sanoat sintezlari

Terpenlar va terpenoidlar keng tarqalgan bo'lsa-da, ularning tabiiy manbalardan olinishi ko'pincha muammoli. Binobarin, ular kimyoviy sintez bilan hosil qilinadi, odatda neft-kimyo. Bir marshrutda atseton va asetilen kondensatsiyalanadi 2-metilbut-3-yn-2-ol, geranil spirtini berish uchun asetoacetic ester bilan kengaytiriladi. Boshqalari terpen va terpenoidlardan tayyorланади, ular miqdori bo'yicha osonlikcha ajratib olinadi, deyiladi qog'ozda va baland moy sanoat tarmoqlari. Masalan, a-pinen, tabiiy manbalardan osongina olinadigan, aylantiriladi sitronellal va kofur. Citronellal-ga aylantiriladi atirgul oksidi

## **NAZORAT SAVOLLARI.**

Terpenoidlarning tuzilishi

Terpenoidlarning qaysi o'simliklarda tabiiy holda uchraydi?

Terpenoidlarni su'niy terpenoidlardan farqi.

Terpenoidlarni qo'llanilishi.

## XIII BOB. GILIKOZIDLAR

### 13.1. Gilikozidlar

Glikozidlar (*glycys - shirin*) o'simlik olamida keng tarqalgan organik birikmalar hisoblanadi. Turli omillar ta 'sirida doimo qand (glikon) va qand bo'lмаган (aglikon) qismlarga parchalanuvchi murakkab organik birikmalar glikozidlar deb ataladi. Qand bo'lмаган aglikon (yunoncha so'z bo'lib. qand emas degan ma'noni bildiradi). ba'zi glikozidlarda yana genin, sapogenin, emodin va boshqa nomlar bilan ataladi. "Glikozid" termini birinchilardan bo'lib, 19 asrning birinchi yarmida nemis kimyogarlari F.Veler va Yu.Libix tomonidan fanga kiritilgan. Har xil glikozidlarning aglikonlari kimyoviy tuzilishi bo'yicha turlicha bo'lib, organik birikmalarning turli sinflariga kiradi. Shuning uchun ularning kimyoviy tarkibi hamda analiz qilish usullari ham turlicha. Glikozidlar tarkibidagi qand qismi mono-(ko'pincha glyukozadan), di-, tri- va qisman undan murakkab bo'lgan oligosaxaridlardan hamda ayrim glikozidlarning o'ziga xos spetsifik qandlaridan tashkil topgan bo'ladi.

Aglikon radikali bilan birlashgan qand molekulasining uglerod atomini a-yoki p-konfiguratsiyasiga (aglikon radikali bilan almashingan gidroksil guruhining bo'shliqda joylashganiga) hamda monosaxaridlarning 6 ta (piranoza) yoki 5 ta (furanoza) a'zoli halqa hosil qilgan tautomeriya shaklida bo'lishiga qarab, glikozidlar a - yoki (3—, shuningdek piranozid yoki furanozid holatida bo'lishi mumkin. Tabiatda ko'pincha o'simliklar tarkibida glikozidlarning P-piranozid shakli uchraydi. Aglikon qand molekulasi bilan efir tipida birlashib, glikozidlar hosil qiladi. Shuning uchun glikozidlar oson parchalanadi. Ular fermentlar (enzimlar) yoki kislotalar ta 'sirida, suv va harorat ta'sirida gidrozlanib. o'zining tarkibiy qismi aglikon va qand molekulalariga parchalanadi. Bu reaksiya orqaga qaytishi ham mumkin. Shuning uchun gidroliz natijasida hosil bo'lgan mahsulotlardan (aglikon va qand molekulalari) ma'lum sharoitda fermentlar ishtirokida qaytadan glikozid sintezlanadi. Lekin fermentlar qat'iy spetsifik ta'sir qilgani uchun har bir glikozidning parchalanish yoki sintezlanishida ularni o'ziga tegishli maxsus fermentlar ishtirok etadi.

Glikozid molekulasida aglikonga qand qismi oddiy va murakkab efirlar tipida kislorod atomi —O - orqali (O-glikozidlarda) yoki tioefi

rlar tipida oltingugurt atomi - S - orqali (S - tioglikozidlarda) birlashgan bo'ladi. Tsinogen (nitro—. N - glikozidlар) glikozidlarning aglikoni tarkibida tsianid kislotasi bo'ladi. Bulardan tashqari, ba 'zi glikozidlarda qand molekulasi aglikon qismining yadrosini Liglerod — C— atomiga tog'ridan-to'g'r o'zining uglerod — C - atomi orqali birlashishi mumkin. Bunday glikozidlarni C-glikozidlар nomi bilan yuritiladi. Boshqa, ayniqsa O— va S-glikozidlarga nisbatan C-glikoz.idlar ancha turg'un va faqat qattiq sharoitda, kislotalarning kuchliroq eritmalarida uzoq qizdarish natijasida ularni aglikon va qand qismlariga parchalash mumkin.

Glikozidlар tarkibida bir (monozidlар), ikki (biozidlар), uch (triozidlар) va undan ortiq monosaxarid molekulasi bo'llishi mumkin. Ular odatda aglikonni bitta gidroksil guruhiga uzun zanjir tipida ketma-ket birlashadi. Shuning uchun bunday glikozidlarning gidrolizi — parchalanishi pog'onali boradi va monosaxarid molekulalari aglikondan bittadan ketma-ket ajraladi. Masalan, triozidning gidrolizlanish reaksiyasini quyidagi sxema bo'yicha tasvirlash mumkin:

I davr. Trioziд — 1 molekula monosaxarid + biozid.

I I davr. Biozid - I molekula monosaxarid + monozid.

I II davr. Monozid - 1 molekula monosaxarid + aglikon.

Ba'zan glikozidlardagi monosaxaridlarning ayrim molekulalari aglikonni 2 ta yoki 3 ta gidroksiliga birlashib di-, tri- yoki undan ham murakkab glikozid hosil qilishi mumkin. Glikozidlар osonlik bilan parchalanadi. Ayniqsa, ular o 'simliklarning o'lik to'qimasida ferment, harorat ta 'sirida va namlik ishtirokida tez parchalanadi. Shuning uchun tirik o 'simliklar to 'qimasida bo'ladigan glikozidlarni birlamchi glikozidlар deb hisoblanadi. O'simliklardan ajratib olingan glikozidlarga birlamchi glikozidlarning qisman gidrolizlanishidan vujudga kelgan mahsulot deb qaraladi. Glikozidlarni gidroliz mahsulotlari tarkibiga ko'ra gomoglikozidlар (gidroliz natijasida faqat uglevodalr hosil b o'ladi) va geterozidlarga (gidroliz mahsuloti sifatida uglevoddan tashqari uglevod bo'Mmagan qismlarga (aglikon yoki genin yoki radikallarga parchalanuvchi) bo'linadi.

### **13.2. Glikozidlarning tasnifi.**

Tarkibida glikozid saqlovchi o's imliklar shu glikozidlар aglikonining kimyoviy tuzilishiga qarab sinflarga bo'linadi. Ba'zi glikozidlар hozirgacha yetarli darajada o'rganilmagani uchun sinflarga

bo'lishda ularning fizik xossalari yoki hayvonlar organizmiga ko'rsatadigan fiziologik ta'siri asos qilib olingan.

Tibbiyotda ishlatiladigan tarkibida glikozidlar bo'lgan dorivor o'simliklar va mahsulotlar quyidagi sinflarga bo'linadi:

1. Tarkibida tioglikozidlar bo'lgan;
2. Tarkibida tsianogen glikozidlar bo'lgan;
3. Tarkibida monoterpen (achchiq) glikozidlar bo'lgan;
4. Tarkibida steroid (yurak) glikozidlari bo'lgan;
5. Tarkibida triterpen glikozidlar (saponinlar) bo'lgan;
6. Tarkibida fenolglikozidlar bo'lgan;
7. Tarkibida antraglikozidlar bo'lgan;
8. Tarkibida flavon glikozidlar bo'lgan va boshqalar.

Geterozidlar aglikonini tuzilishiga ko'ra bir qaricha guruhlarga bo'linadi:

1. *Alkilglikozidlar* - aglikonlari alkillar vakili Omeil. -etil) hisoblanadi. Masalan, tikonli eleutrokok ildiz va ildizpoyasida hosil bo'ladigan eleuterozid-S glikozidi:

2. *Azof tutuvchi (tsicmogenn) glikozidlar* — gidrolizi natijasida senil kislota (sianid vodorod) hosil qiluvchi. Masalan, achchiq bodom tarkibidagi amigdalin glikozidi, lining uglevodli qismi disaxarid gentibioza hisoblanadi.

3. *Tioglikozidlar* — tio-shakarlarni siklik hosilasi sanaladi, ulardagi SH-gruppadagi vodorod atomi aglikon bilan al mashgan. Aglikonni tarkibida oltingugurt bo'lgan glikozidlar *tioglikozidlar* (S-glikozidlar) deb ataladni. Bu glikozidlardagi qand molekulasi aglikon qismi bilan oltingugurt atomi orqali birlashgan. Tioglikozidlarning ferment ta'sirida parchalanishidan hosil bo'lgan aglikon qismi efir moylari xossasiga o'xshash xossaga ega (uchuvchan va suv bug'i bilan haydaladi). Shuning uchun bu glikozidlarning b a'zi aglikonlari efir moyi deb yuritiladi. Tioglikozidlar achchiq bo'lib, organizmning shilliq qavatlariga va teriga qitiqlovchi ta'sir k o'rsatadi (terini qizdiradi yoki kuydiradi). Oz miqdorda iste'mol qilinsa, ishtaha ochadi. Tioglikozidlar kuchli bakteritsid ta'sirga ega. Tioglikozidlar yoki izotrotsianatlar hayvonlarda buqoq kasalligini paydo qilishi mumkin, degan fikr ham bor. Tioglikozidlarning turlari ko'p. IJlar asosan kavardoshlar, karamdoshlar (butguldoshlar, krestguldoshlar), rezedadoshlar va boshqa oilalar vakillarida uchraydi. Jumladan, masalan, karamdoshlar (butguldoshlar) oilasiga kiradigan o'simliklar (sholg'om, karam. rediska, turp, xren, xantal va boshqa o'simliklar) da keng tarqalgan.

Tibbiyotda tioglikozidlar saqlovchi o'simliklardan hozircha faqat xantal urug'i (uni tarkibida tioglikozid sinigrin bo'ladi) ishlataladi. Sinigrin mirozin fermenti ta'sirida glyukoza, kaliy bisulfat va allilizotatsianatga (xantal efir moyiga) parchalanadi:

4. *Steroid glikozidlar* — aglikon lari siklopantanopergidrofenantren va uning unumlaridan iborat bo'lgan glikozidlarni *steroid glikozidlar* deb ataladi. Unga yurak (kardiotonik) glikozidlar, steroid saponinlar, glikoalkaloidlar, ekdisteroidlar (fitoekdizonlar) kiradi.

Bu guruhga kiruvchi glikozidlarning aglikonlari siklopantanopergidrofenantren unumlari bo'lsada, ularning kimyoviy tuzi I ishlari va ayniqsa, fiziologik ta'siri bir-biridan katta farq qiladi. Steroid glikozidlar ba'zilarining aglikonlari o 'z molekulasida azot atomini saqlaydi, masalan: steroid alkaloidlar. Ayrim glikozidlarning suvdagi eritmasi turg'un ko'pik hosil qilish va qizil qon tanachalari - eritrotsitlarini eritish xossasiga ega, masalan, steroid saponinlar. Ba 'zilari esa yurakka spetsifik ta'sir qiladi, masalan: yurak glikozidlari. Shuning uchun steroid glikozidlar turlicha analiz qilish usullariga ega hamda tarkibida shu glikozidlarni bo'lgan dorivor o'simliklar va mahsulotlar farmakognoziyaning har xil bo'limlarida o'rganiladi. Steroid glikozidlarga xos b o'lgan sifal reaksiyalari (Lberman- Burxard reaksiyasi hamda xolesterin va boshqa reaktivlar bilan o 'tkaziladigan reaksiyalar) ham bor. Bu reaksiyalar ayrim steroid birikmalar o'rganiladigan b o'llimlarda keltirilgan. Steroid glikozidlardan tibbiyotda turli maqsadlar uchun foydalaniladi. Yurak glikozidlari spetsistik ta 'sirga ega bo'lgan qimmatbaho preparatlari sifatida yurak kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Steroid saponinlar hamda steroid alkaloidlar progesteron, kortizon va boshqa steroid gormonlarni sintez qilishda ishlataladi. Steroid saponinlar, steroid alkoloidlar alohida dori sifatida q o 'llanishidan tashqari kortizon, progesteron va boshqa steroid garmonal preparatlarni sintez qilishda xomashyo sifatida ham

Qo'llaniladi.

5. *Terpenoidli glikozidlar* — izopren (Cdls),, hosilalari bo'lib unga: - achchiq monoterpenlar - (C5Hs)2 - triterpen saponinlar - (C5HS)6 kiradi.

6. *Fenologlikozidhtr* — aglikon qismi qandaydir fenolli birikma bilan bog'Mangan. Bu guruh o 'z ichiga: flavonoid, kumarin, antratsen hosilalari, ksanton, oshlovchi moddalar va boshqalarni qamrab oladi.

## *7. Kam o 'rganilgan glikozidlar.*

Yuqorida keltirilgan glikozidlardan tashqari oshlovchi moddalardan katta bir guruhi (gidrolizlanuvchi oshlovchi moddalar), qisrnan kumarinlar (kumarin glikozidlar) va boshqa birikmalar ham glikozidlarga kiradi. Lekin fenolglikozidlar, antraglikozidlar, flavon glikozidlar, oshlovchi moddalar, kumarinlar fenollarning unumlari bo'lgani uchun farmakognoziya kursining tegishli boshqa bo'limlarida ko'rildi.

### **13.3.Glikozidlarning o'simlik olamida tarqalishi.**

Glikozidlar tabiatda eng keng tarqalgan tabiiy birikmalar sanaladi. Ko'pincha bir o'simlikda bir necha xil glikozidlar mavjud bo'ladi. Masalan angishvonagul bargi tarkibida 70 ga yaqin glikozidlar uchraydi. Glikozidlar o'simliklarning turli organlarida turli miqdorda hujayra shirasida eriydigan shaklda bo'ladi. Ba'zan bitta yoki bir hil kimyoviy tuzilishdagi bir guruh glikozidlar butun bir oilaga (yoki botanik bir-biriga yaqin bo'lgan qardosh oilalarga) xos bo'lib, ular shu oilaga kiradigan turlarda keng tarqaladi (masalan, amigdalini glikozid ra'noguldoshlar, tioglikozidlar esa karamguldoshlar (krestguldoshlar) oilalari turlarida). Shu bilan bir qatorda ba'zi glikozidlar bir nechta oilaga kiradigan o'simliklarda uchraydi. Glikozidlar o'simlik to'qimalarida bo'ladijan moddalar almashinushi jarayonida faol qatnashadi. Glikozidlarga uglevodlarning zaxira holda yig'ilgan shakllardan biri deb ham qaraladi.

O'simlik olamida ko'pincha O—glikozidlar, kamroq S—glikoizdlar (krestguldoshlar, liliyadoshlar) va C—glikoizdlar (avrim flavonoidlar - viteksin, antratsen unumlari, ksantonlar) tarqalgan bo'ladi. N-glikozidlar hayvon organizmida ham uchraydi (nuklein kislota, nukleoproteidlar), ayrim antibiotiklar - streptomitsin va boshqalar ham shu guruhga kiradi.

### **13.4.Glikozidlarning fizikaviy va kimyoviy xossalari.**

Sof holda ajratib olingan glikozidlar kristall modda bo'lib, ular ko'pchilik organik erituvchilarda erimaydi, spirtda yomon (ba'zan yaxshi), suvda yaxshi eriydi. Glikozidlarning suvdagi eritmasi neytral reaksiyaga, shuningdek, qutblangan nur tekisligini og'dirish (optic faollik) xususiyatiga ega. I lamma glikozidlar Feling reaktividan misni

qaytaradi. Glikozidlarning suvdagi eritraalari bariy gidroksid, ko'rg'oshin atsetat va tanin eritmalar bilan cho'kma hosil qiladi. Glikozidlarning kimyoviy xossalari va analiz qilish usul lari aglikonlarning tuzilishiga bog'liq. Aglikonlarning kimyoviy tuzilishi turlicha bo'lganligi uchun analiz usullari ham turlichadir.

Glikozidlarning terapevtik ta'siri ham ularning aglikonlariga bog'likdir. Qand qismi aglikonlarni (demak, glikozid molekulasini) suvda erishini hamda hayvonlar organizmida shimalishini, ya'ni organizmga ta'sir qilishini tezlashtiradi. Shu bilan birga, ba'zi monosaxaridlar ayrim aglikonlarni ta'sir kuchini oshirishi yoki aksincha pasaytirishi mumkin.

Glikozidlarni xususiyatlari turlicha bo'lib, bu ulardagi glikozid bog'lar soniga, bundan tashqari aglikonlarining tuzilishiga bog'liq. Ko'pgina glikozidlar turg'un bo'lмаган bog'larga ega, ulardagi gligozid bog'i hisobiga ular suv muhitida fermentlar ta'sirida gidrolizlanadi, bu holat kislota, kam hollarda ishqorlar (S—glikozidlar) ta'sirida ham amalga oshadi. (3— yoki a—glikozidlar ta'siri natijasida O-glikozidlar tez parchalanadi. Kislotali gidrolizgan C—glikozidlar chidamli bo'l lib, ular faqat konsentratlangan kislotalar yoki ularni aralashmalaridagina parchalanishi mumkin. Furanozidlar piranozidlarga qaraganda tezroq parchalanadi. Glikozid molekulasida 2 va undan ortiq monosaxaridlar va ularning hosilalari bo'lganida (uran kislotasi, spirtlar) bosqichli gidroliz amalga oshadi, bunda uglevod molekulalari birin-ketin ajralib chiqadi. Bosqichli gidroliz mahsulotlari ikkilamchi glikozidlar deyiladi, chunki ular o'simlik to'qimasida tabiiy holdagi glikozidlardan farq qiladi.

Strofantin - yurak glikozidi bo'lib, strofant urug'i tarkibidagi birlamchi glikozid, K-strofantin-P va tsimarin - ikkilamchi glikozid sanaladi. Ko'pchilik hollarda glikozidlarning gidrolizi – parchalanishi fermentlar va harorat ta'sirida hamda suv ishtirokida boradi (agarda kislota ta'sirida parchalanmasa). Fermentlar oqsil moddalar bo'lib, yuqori haroratda ( $60-70^{\circ}\text{C}$  dan va undan yuqorida) ular denaturatsiyalanadi. Past haroratda ( $+25^{\circ}\text{C}$  dan va undan past haroratda) esa fermentlar ta'sir qilmaydi, ya'ni ularning faolligi to'xtaydi. Bu hoi mahsulot tayyorlash, quritish va saqlash vaqtida hisobga olinishi zarur. Haqiqatan ham yig'ilgan mahsulotni tezda quritilmay, uyib qo'yilsa, u namlik ta'sirida qizib, to'qimalaridagi fermentlar esa faollashib, glikozidlarni parchalaydi yoki to'g'r i quritilgan mahsulotni issiq va nam yerda saqlansa ham yuqorida

aytilgan ahvol qaytariladi. Shuning uchun tayyorlangan mahsulotni yig'ib qo'y may tezda va to 'g 'ri quritish, quritilgan mahsulotni yaxshi yopiladigan idishlarga solib, quruq yerda saqlash lozim. Shundagina mahsulot tarkibidagi glikozidlar parchalanmay saqlanadi va dorivor mahsulot o'z sifatini yo'qotmaydi.

### **13.5.Glikozid saqlovchi xomashyoni yig'ish, quritish va saqlash.**

Yig'ish, quritish va saqlashda glikozidlarni fermentlar ta'sirida gidrolizlanishi sodir bo'ladi dan haroratni shakllanishiga yo'1 qo'ymaslik zarur. O'simlikning yer ustki qismi quruq havoda, kichik idishlarga (yaxshisi savatcha, teshiklarga ega yashiklar) tezlik bilan teriladi, va 2-3 soat ichida (xomashyo o"z-o'zidan qizib ketishiga yo'1 qo'ymaslik zarur) quritish joylariga yetkaziladi. Quritishni tezlikda olib borish talab qilinadi, bunda xomashyo yupqa yoyilgan holda 50—70°C olib boriladi. Ushbu haroratda xomashyoni 1—2 soat ushlab turish talab qilinadi, fermentlar faolligi yo'qotilgandan so'ng, quritishni yakunlash oddiy xona haroratida olib boriladi.

#### **Glikozidlarni tibbiyotda qo'llanilishi va imkoniyatlari.**

Glikozidlarni inson va hayvonlar uchun juda muhim ahamiyatga ega, chunki ularni ko'pchiligi qimmatli farmakalogik ta 'sirlarga - kardiotonik, tetiklashtiruvchi, bo'shashtiruvchi, o't haydovchi, ich suruvchi va boshq. ta 'sirlarga ega. Glikozid xomashyosidan bugungi kunda ko'pincha kompleks preparatlar - tindirma, ekstrakt, damlamalar, yig'malar tayyorlanmoqda. Biroq zamonaviy texnologiyani rivojlanib borishi bilan individual birlamchi va ikkilamchi glikozidlar (digoksin, tselanid, rutin va boshq.) saqlovchi preparatlar paydo bo'ldi. Tabiiy gligozidlarga analogik glikozidlarni sintezlashga urinishlarga hanuzgacha kamdan-kam muvaffaq bo'linadi. Asosiy mashaqqat — qand molekulasi va aglikonni tabiiy glikozid konfiguratsiyasiga mos ravishda bog'lash hisoblanadi.

#### **NAZORAT SAVOLLARI.**

1. Glikozidlarni tibbiyotda qo'llanilishi
2. Glikozidlarning fizikaviy va kimyoviy xossalariini aytинг.
3. Glikozidlarni o'simlik olamida tarqalishi
4. Glikozidlarning tasniflang

## GLOSSARIY

**Avtotroflar** - oziqlanish uchun kerak bo'lgan organik moddalarni o'zлari tayyorlaydigan xlorofilli yashil o'simliklar avtotrof o'simliklar deyiladi.

**Avitaminoz** - organizmda vitamin yetishmasligi. Avitaminoz inson va hayvon organizmida har- xil kasalik hollarini vujudga keltiradi.

**Avtosporalar** - ba'zisuvotlar ona hujayrasida jinssiz yo'l bilan shakilanuvchi sporalar.

**Avtogamiya**.- Avto -o'zidan, gameo - nikoxlanaman degan ma'noni bildiradi. Bir gul changdonidan chiqqan chang donachasining shu guldagi urug'chi tumshuqchasiga tushishini avtogamiya deyyaladi.

**Antibiotiklar** - tuban o'simliklar hujayrasi, ishlab chiqadigan modda. Bulib, ular o'simliklarni har xil zararkunanda mikroorganizmlardan saqlashda himoya vazifasini o'taydi.

**Asosiy to'qima** - O'simlik organlarining ko'pchilik qismini tashkil etib hujayra po'sti yupqa, modda almashinish jarayonida faol ishtirok etuvchi hujayralardan tashkil topgan. Bu guruh hujayralar o'simlik organlarida birlamchi va ikkilamchi meristema hisobidan hosil bo'ladi

**Assimilyatsion parenxima** - Xloroplastlari bo'lgan asosiy to'qima bo'lib bu parenxima asosan o'simlik barglarida, o'simliklarning poyalarida daraxtsimon o'simliklar poyasining birlamchi parenximasida, fellodyerma hhujayralarda, epifit o'simliklarining havo ildizlarida va yashil mevalarida bo'ladi.

**Asosiy ildizlar** - gulli o'simliklar urug'idagi murtak ildizchasinining rivojlanishidan hosil bo'ladi va vyertikal holda yo'nalib, tuproqqa chuqur kirib boradi.

**Anteridiy** – sporali o'simliklar ( yo'sin,qirqbo'g'im, suvo'tlar) va ba'zi zamburug'larning Erkak jinsiy organi.

**Androtsey** - guldagi changchilarining to'plami.

**Antropohoriyalar**- inson yordamida tarqaladigan o'simliklar.

**Apokarp urug'chi** - bitta meva bargchadan hosil bo'lgan urug'chi (genetsiy) ga aytildi.

**Anatrop urug'kurtak** - urug'kurtak mikropilasi platsenta yonida unga parallel holda joylashadi.

**Atrop urug'kurtak** – to'g'ri urug'kurtak yoki ortotrop ham deyiladi, bu xildagi urug'kurtakda urug'kurtak mikropilasi urug'kurtak platsentiga karama-karshi tomonda ya'ni uning yuqorisida joylashgan.

**Alkaloidlar** – tarkibida azot tutuvchi organik birikmalar; ishqoriy xususiyatga va fiziologik faollikkaga ega. Asosan o'simliklardan olinadi.

**Ampilatrop urug'kurtak** - bunday urug'kurtakning bukilishi kuchli bo'lib, murtak xaltasini ham o'z ichiga oladi va urug'kurtak taqasimon shakilini egallaydi.

**Anatomiya** – odam, hayvon va o'simliklarning ichki tuzilishini o'rjanadigan fan.

**Anemofiliya** - o'simliklarning shamol yordamida changlanish jarayoni.

**Androspora** – Erkak spora, mikrospora-urug'lanayotgan spora, ayrim suvo'tlaridagi jinssiz sporalardan erkak organizmlar hosil bo'ladi.

**Antropogen omillar** - Odamlarning o'simlik turlari yoki o'simlik guruhining tuzilishiga ko'rsatgan ta'siri.

**Areal** - yunoncha "area" so'zidan olingan bo'lib, maydon, hudud degan ma'noni bildiradi, ya'ni ma'lum bir o'simlik turi, turkumi yoki oilasining yer yuzida tarqalgan maydoni.

**Bakteriyalar** – asosan bir hujayrali prokariotlarga mansub mikroskopik organizmlar guruhi.

**Batsillalar** – To'g'ri, uzun, tayoqchasimon bakteriyalarga aytildi.

**Botanika** - so'zi grekcha "botane" so'zidan olinib, ko'kat, sabzavot degan ma'noni bildiradi. Demak, botanika umuman o'simliklar to'g'risidagi fan bo'lib, biologiyaning bir qismi hisoblanadi.

**Bir jinsli gul** - gulda faqat androtsey yoki genetsiy bo'ladi.

**Bir uyli o'simlik** - bir jinsli (erkak va urg'ochi) gullar bitta o'simlikning o'zida joylashgan bo'ladi.

**Vegetativ organ** - lotincha vegetatio so'zidan olingan bo'lib, o'sish, rivojlanish degan ma'noni bildiradi. O'simlikning ildizi, poyasi, bargi vegetativ organi hasoblanadi.

**Vitaminlar** - yunoncha Vita so'zidan olingan bo'lib, hayot degan ma'noni bildiradi.

**Gemitrop urug'kurtak** – nutsellus va integumentlar platsentaga nisbatan to'g'ri burchak hosil qilib joylashadi.

**Getyerostiliya**. Urug'chi va changchining xar xil uzunlikda bo'lishio'zidan changlanishning oldini oladi.

**Geterotroflar** -o'sishi va rivojlanishi uchun zarur organik moddalarni boshqa, ya'ni avtotrof o'simliklarda tayyorlanadigan moddalar hisobiga yashaydigan o'simliklarga aytildi.

**Genyerativ organ** - lotincha genirati so'zidan olingan bo'lib, yaratmoq, tug'moq, degan ma'noni anglatadi. O'simlikning bunday organlariga gul, meva va uruglar kiradi.

**Getyerogamiya** - ham grekcha "geteros" har xil, "gomeo" nikohlanaman degani. Bunda gametalar o'zining katta-kichikligi bilan bir-biridan farq qiladi. Xivchinli ikkala gameta ham bemalol harakat qiladi. Ularning kichikrog'i erkak gameta mikrogameta, yirikrog'i esa urg'ochi makrogameta hisoblanadi. Mikrogameta makrogametaga nisbatan harakatchan bo'ladi.

**Gametangiya** -o'simliklarda gametalarning hosil bo'ladigan joyi.

**Genetsey** - guldagi urug'chilarning to'plami.

**Geytenogamiya** - qo'shni changlanish ya'ni bir o'simlik individlarida joylashgan ikkita gul o'rtaida bo'ladigan changlanish. Bunda bitta guldagi changdondan chiqqan chang shu o'simlik individuumidagi boshqa guldagi urug'chi tumshuqchasiga tushib changlatadi.

**Gidrofiliya** - o'simliklarning suv yordamida changlanishi, bunday o'simliklar esa hidrofil o'simliklar deyiladi.

**Dixogamiya** - urug'chi bilan changchining har xil vaqtda yetilishi natijasida o'zidan changlanish bo'lmaydi.

**Deplazmoliz** - Plazmoliz holatdagi hujayra suvg'a botirilsa, unda turgor holatining qayta paydo bo'lishi.

**Dissimilyatsiya** - nafas olishda organik moddalar molekulalari anayerob sharoitda oksidlanib anorganik moddalarning hosil bo'lishi va energiya ajralib chiqish jarayoniga aytildi.

**Differentsiatsiya zonasi** - Ildiz tuklari joylashgan zonadagi mutaxassislashgan hujayralar yig'indisi.

**Endospermsiz urug'lar** - Urug'da murtakning unib chiqishi uchun kerakli zaxira oziq moddalar murtakning o'zida, ya'ni urug' pallalarida to'plangan bo'lsa endospermsiz urug' deyiladi.

**Endospermli urug'lar** - Urug'ga murtakning unib chiqishi uchun kerakli bo'lgan oziq moddalar maxsus g'amlovchi to'qima - endospermda to'plansa endospermli urug' deyiladi

**Epidermis** - (yunoncha "epi"-yuqori, "derma"-teri ma'nosini bildiradi) birlamchi qoplovchi to'qima himoya vazifasini bajaradi, ya'ni o'simlikning yosh organlarini quyosh nuri ta'sirida qurib qolishdan

saqlaydi, barg orqali bo'lib turadigan transpiratsiyani chegaralaydi va boshqa mexanik ta'sirlardan himoya qiladi.

**Entomofiliya** - o'simliklarning hasharotlar yordamida changlanish jarayoni.

**Jinssiz gullar** - birgina gulqo'rg'oni bo'lgan gullar.

**Izogamiya** - grekcha so'z bo'lib "izos"-teng, "gomeo"- nikohlanaman, degan ma'noni bildiradi. Kattaligi va shakili bir-biridan farq qilmaydigan erkak va urg'ochi gametalarning xivchini bo'lib, uning yordamida suvda tez suzib harakatlana oladi. Ular bir-biri bilan qo'shilganda xivchinsiz bitta hujayra - zigota hosil bo'ladi.

**Ikki uyli o'simlik** - o'simlikning erkak gullari bir o'simlikda, urg'ochi gullari boshqasida bo'lishi.

**Ikki jinsli gul** - gulda ham androtsey (changchilar), ham genetsiy (urug'chilar) bo'lgan gullar.

**Introduksiya** - Kishilarning o'zi uchun zarur bo'lган o'simliklarni bir rayondan ikkinchi rayonga ko'chirib turib, shu sharoitga moslashtirishi.

**Kaltsiefillar** - Bu o'simliklar ohak karbonati bo'lgan tuproqlarda o'sa oladi va ular ohaksevarlar deyiladi

**Kaltsiefob** - Bular ohakli tuproqda o'sa olmaydigan o'simliklardir.

**Ksenogamiya** - bir o'simlik individiumida joylashgan guldagi changdondan chiqqan changdonachalari, boshqa o'simlik individiumida joylashgan guldagi urug'chi tumshuqchasiga tushishi.

